



MAXMUDA QO'LDASHEVA

**BOSHLANG'ICH SINIF
O'QUVCHILARIGA ANIQ VA TABIIY
FANLARDAN TA'LIM BERISH
YO'LLARI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

QO'LDASHEVA MAXMUDA NURMATJONOVNA

**BOSHLANG'ICH SINIF
O'QUVCHILARIGA ANIQ VA TABIIY
FANLARDAN TA'LIM BERISH
YO'LLARI**

**O'QUV-U SLUBIY
QO'LLANMA**

70110501 - Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang'ich ta'lim)

2-kurs talabalari uchun)

UO'K: 439(624+35)14 KBK:

58.(5936)25

M: 54

Qo'ldasheva M. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga aniq va tabiiy fanlardan ta'lim berish yo'llari (O'quv-uslubiy qo'llanma). NamDU, 2022 – 240 bet

“Boshlang'ich sinf o'quvchilariga aniq va tabiiy fanlardan ta'lim berish yo'llari” fanini o'qitishda muayyan fan dasturi asosida tuzilgan o'quv qo'llanmani qisman to'ldiruvchi ushbu o'quv –uslubiy qo'llanmada mavzularni zaruriy hajmda tizimli yoritilgan uni puhta o'zlashtirishni ta'minlovchi mazmun va shaklan turlarga moslashtirilgan innovatsion metodlar asosida qiziqarli topshiriqlar, ko'rsatmalar, ularning yechimlari ifoda etilgan.

O'quv-uslubiy qo'llanma, fan o'qituvchilari va boshlang'ich ta'lim yo'nalishida o'qiyotgan magistrantlar hamda ko'p sonli kitobxonlarning nazariy va amaliy mashg'ulotlarda bilim va malakalarni shakllanishiga xizmat qiladi.

В данном учебно –методическом пособии, частично дополняющем учебное пособие, составленное на основе конкретной предметной программы при преподавании предмета” пути обучения учащихся начальных классов по точным и естественным наукам”, систематически освещаются темы в необходимом объеме, излагаются интересные задания, инструкции, их решения на основе инновационных методов, адаптированных к содержанию и видам форм, обеспечивающих его доскональное усвоение.

Учебно-методическое пособие служит для формирования знаний и умений на теоретических и практических занятиях учителей-предметников и магистрантов, обучающихся по направлению начального образования, а также большого числа читателей.

In this educational and methodological manual, which partially complements the curriculum compiled on the basis of a specific subject program in teaching the subject” ways of teaching primary school students in the exact and Natural Sciences”, interesting tasks, instructions, their solutions are expressed on the basis of innovative methods adapted to the content and form types that provide systematic coverage of topics in the.

The teaching and methodological manual serves to form knowledge and skills in theoretical and practical classes of subject teachers and undergraduates studying in the direction of primary education, as well as a large number of readers.

- Muallif:** Qo'ldasheva Mahmuda Nurmatjonovna-Namangan davlat universiteti
Boshlang'ich ta'limda aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasida
katta o'qituvchisi, (PhD)
- Mas'ul muharrir:** pedagogika fanlari bo'yicha (PhD), dotsent D.Muminova
- Taqrizchilar:** pedagogika fanlari bo'yicha DSc., professor, O'.Asqarova
pedagogika fanlari bo'yicha PhD, dotsent T. Kaziyeva

O'quv-uslubiy qo'llanma Namangan davlat universiteti Ilmiy kengashining 2022-yil
“ ”-dagi “ ”-sonli majlisi bayonnomasiga asosan nashrga tavsiya etilgan.



KIRISH

Jahonda va mamlakatimizda yangi iqtisodiy sharoit va ta'limdagi islohotlar bo'lajak o'qituvchilarning bilim darajasiga, malakali mutaxassislariga zamonaviy talablarni qo'yimoqda. Shu munosabat bilan Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi magistrnlarni tayyorlash va o'qitish jarayonida pedagogik tayyorgarligi alohida ahamiyatga ega. Fanni o'qitishda innovatsion texnologiyalarga asoslangan aniq va tabiiy fanlarni o'qitish mazmunining o'zgarishiga va ta'lim muassasalarining mutlaqo tuzilmalarini ishlab chiqishga, yangi o'quv dasturlari, maxsus kurslar, o'quv-uslubiy jihozlarni joriy etish va ishlab chiqishga, o'qitishning faol shakllari va usullarini joriy etishga, kasbiy ta'limga tubdan yangi yondashuvni amalga oshirishga olib keladi. Ta'lim tizimini qayta qurishning birlamchi vazifalari uzluksiz kasb-hunar ta'limiga o'tish, har bir hudud malakali kadrlarga bo'lgan bolgan hududiy ehtiyojlarni o'zi qondira olishi uchun o'qitishni markazlashtirmaslik hisoblanadi.

Qo'llanmada mutaxassislik fan o'qituvchisining o'quv-me'yoriy hujjatlari va metodik ishlari, mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish, mustaqil ta'lim va uni tashkil etish metodikasi, mutaxassislik fanlaridan kurs ishi (loyihasi)ni tayyorlash metodikasi, bitiruv malakaviy ishlari bajarilishining tashkiliy va ilmiy-metodik ta'minoti, uzluksiz ta'lim tizimida mutaxassislik fanlarining didaktik ta'minotini ishlab chiqish, mashg'ulot ishlanmalarini tayyorlash, o'quv-uslubiy majmualarini ishlab chiqish, ochiq mashg'ulotlarni o'tkazish va hujjatlarini rasmiylashtirish, darsdan tashqari ish shakllariga rahbarlik qilish kabi masalalarni, aniq va tabiiy fanlarining oliy va o'rta maxsus ta'limda o'qitish va ta'lim berish yo'llariga oid masalalarni o'z ichiga qamrab olgan.

1-§. Fanning maqsadi va vazifalari. O'qituvchiga qo'yiladigan talablar.

O'qituvchining faoliyati va pedagogik mahorati

Reja:

1. Fanning mazmuni, maqsadi va vazifalari.
2. O'qituvchining faoliyati va pedagogik mahorati;
3. O'qituvchiga qo'yiladigan pedagogik, ilmiy, texnik, etik, estetik, ahloqiy, pedagogik talablarni ko'rib chiqish

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma'naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalash, mamlakatda maktab boshlang'ich ta'limida aniq va tabiiy fanlari darslarini samarali tashkil etishning zamonaviy yo'llari, metodikasini ishlab chiqish va takomillashtirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Bu masalani hal qilish har tomonlama muhokama va ilmiy asoslangan bo'lishni talab etadi. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida o'qituvchi pedagoglar tomonidan boshlang'ich ta'limda aniq va tabiiy fanlardan o'quv kursi mazmuni bo'yicha milliy dastur asosida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan darsliklar, yozma ish daftarlari, nazorat ishlari tayyorlab, mazkur darslik asosida dars jarayoni tashkil etilmoqda. O'quvchilarning o'z-o'zini nazorat qilish jarayonini tashkil etilgan va bu jarayon ta'lim samaradorligini ortishiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatishi ma'lum bo'ldi.

Fanning asosiy maqsadi - "Boshlang'ich sinf o'quvchilariga aniq va tabiiy fanlardan ta'lim berish yo'llari" fanini o'qitish bilan bog'liq umumiy masalalar, boshlang'ich ta'lim fanlarini oliy va o'rta maxsus ta'limda o'qitish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishdan iboratdir.

Fanning vazifasi - Boshlang'ich sinf o'quvchilariga aniq va tabiiy fanlardan ta'lim berish yo'llari ni o'qitish metodikasiga oid umumiy masalalari bilan tanishtirish.

O'qituvchining faoliyati va pedagogik mahorati. Mamlakatimiz taraqqiyotining muhim sharti kadrlarni tayyorlash tizimining mukammal bo'lishi, zamonaviy iqtisod, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalar asosida rivojlanishi hisoblanadi.

Har bir yetuk mutaxassis ta'lim beradigan fanlari turkumini ilmiy – nazariy jihatdan o'zlashtirishi, ilmiy bilishga doir g'oyalari, nazariyalar va qonuniyatlarning mazmun – mohiyatini bilishi lozim.

Ilmiy nuqtai nazardan nazariya – bu jarayon mohiyati haqidagi haqiqiy isbotlangan, tasdiqlangan bilimlar tizimidir. Ilmiy bilishning oily shakli bo'lib, tadqiq etilayotgan obyektning tarkibini, funksiyasini hamda rivojlanishini, uni tashkil etgan elementlar o'rtasidagi aloqadorlik va bog'liqlikni ochib beradi.

Nazariya – obyektlar mohiyatini, ularning amal qilish, o'zaro bog'liqlik, o'zgarish hamda rivojlanish qonuniyatlarini ochib berish asosida voqealarni izoblash, yangi ma'lum bo'lmagan ma'lumotlar hamda ularni tavsiflovchi qonuniyatlarni, tadqiq etilayotgan tizimning istiqboldagi qonuniy holatini bashorat qilish imkonini beradi. Nazariyaning muhim elementlari tamoyillar va qonuniyatlardir.

Tamoyillar – nazariyaning umumiy va muhim fundamental asosidir. Muayyan nazariyada avvalgi bilimni umumlashtirish natijasi sifatida tamoyillar har tomonlama asoslanadi. Nazariyalarning paydo bo'lishi va izohlanishida tamoyillar tayanch vazifasini o'taydi. Qonunlar tamoyillar aniqlashtirib, ularning amal qilish "mexanizmi" ni, oqibatlarining bog'liqligini ochib beradi.

Fan qonunlari – obyektiv qonunlarni nazariy tasdiqlashshaklida ifodalanishidir (ya'ni tadqiq etilayotgan jarayonlarning, obyektlarning , voqealarning umumiy va zaruriy bog'liqlik qonunlarini ifodalaydi).

Shuni qayd etish kerakki, o'qitish qonun va qonuniyatlari uzluksiz ta'lim tizimining oldiga qo'yilgan davlat va ijtimoiy hayotdagi ma'naviy – ma'rifiy o'zgarishlar, ta'lim – tarbiya jarayonining maqsadi va vazifalari, fanning rivojlanish darajasiga bevosita bog'liq holda o'zgarib yangilanib turadi. Bugungi

talablaridan kelib chiqib quyidagi o'qitish qonuniyatlarini pedagogic amaliyotga qo'llash maqsadga muvofiqdir:

1. O'qitish maqsadi, mazmuni, vositalari va shakllarining ijtimoiy muhitga bog'liqlik qonuni. Mazkur qonuniyat ta'lim – tarbiya jarayonining tarkibiy qismlarini tanlash va shakllantirishda jamiyatdagi ijtimoiy – iqtisodiy, ma'naviy – ma'rifiy o'zgarishlar, ijtimoiy munosabatlarning ta'sirini o'zida aks ettiradi. Mazkur qonuniyat ta'lim oluvchilarda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirishga imkon beradi. Keyingi yillarda yuqorida qayd etilgan fikrlar, o'qitish maqsadi va vazifalari hisobga olinib ta'lim mazmuni yangilanib, ta'lim mazmuni jamiyatda amalgam oshirilayotgan yangilanish, rivojlanayotgan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslashib boradi. O'quv fanlari bo'yicha davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, darsliklar va o'quv metodik qo'llanmalarining yangi avlodi yaratilmoqda. Yangi pedagogic axborot texnologiyaarini ta'lim amaliyotiga tadbiq etish, uzluksiz ta'lim tizimi moddiy – texnik ta'minotini takomillashtirish amamalga oshrilyapti.

2. Tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi ta'lim qonuniyati – shaxsning tahsil olish jarayoni, bilim, faoliyat usullarini o'zlashtirishi, uning rivojlanishi va shaxsiy sifatlarini shakllanishiga asoslanadi. Ushbu qonuniyat har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga imkon beradi. Kadrlar tayyorlashning milliy modelida shaxs muhim o'rin tutadi va uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama rivojlangan barkamol shaxs, o'zining mustaqil fikriga ega bo'lgan fuqaroni shakllantirish nazarda tutiladi.

O'qituvchining pedagogik mahorati-Ishga bo'lgan fidoiylik, bilim va tajribalarning birikmasi bo'lib, pedagog faoliyatining eng yuqori cho'qqisidir. Chunki u o'ziga ajratilgan juda qisqa vaqt ichida eng yuqori mukammal natijaga erishadi.

Umumiy talablari" bilan tasdiqlangan va barcha pedagog xodimlar uchun umumiy hisoblanadi.

Quyidagilar mutaxassisning pedagogic ishga tayyorgarligining zarur va yetarli darajasini ta'minlaydigan asosiy talablar hisoblanadi:

- O'qitish (dars berish) mahorati;
- Tarbiyalash maxorati;
- O'quv – tarbiya jarayonida gumanitar omilni ta'minlaydigan shaxsiy sifatlar;
- Ta'lim olayotganlarning bilimlarini xolisona nazorat qilish va baholash mahorati.

Yuqoridagi normativ hujjatda keltirilgan pedagoglarga qo'yilayotgan umumiy va xususiy talablardan kelib chiqib, globallashuv jarayonida pedagoglar ta'lim – tarbiya jarayoniga innovatsion pedagogic va axborot texnologiyalarini joriy etishlari hamda pedagoglar o'zlari ham innovatsion texnologiyalarni yaratishlari, doimo izlanishlari lozim.¹

Hozirgi kunda pedagoglar o'quv va pedagogic jarayonlarni tashkiliy etish va boshqarishning innovatsion usullarini bilishi, balki ularni yaratishi zarurligi ko'zga tashlanmoqda.

Yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda bugungi zamon talablari asosida:

- Ta'lim mazmunini o'zlashtirilishi asosida yangi va samarali innovatsion texnologiyalarini yaratish hamda joriy etish ko'nikmasi;
- Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalana olish ko'nikmasi;
- Fanga oid electron axborot vositalarini bilish va ulardan foydalana olish ko'nikmasi;
- Elektron axborot vositalarini yarata olish va ulardan dars jarayonida samarali foydalanish ko'nikmalarini ham kiritish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Aniq va tabiiy fanlar fani mutaxassislari tabiat va jamiyatning taraqqiyot qonunlarini, ularning o'zaro aloqadorligi asosida yuz beradigan hodisa va voqealarni o'rganuvchi fanlar erishgan yutuqlardan xabardor bo'lishi lozim. Chunki, Aniq va tabiiy fanlar fanlar tizimida tabiat va jamiyatning o'zaro aloqada rivojlanishini majmual, ko'p qirrali, har tomonlama o'rganuvchi yagona fanlar

¹ Malaka oshirish tizimi uzviyligini takomillashtirishda axborot tizimi uzviyligini takomillashtirishda axborot xizmati: muammo va yechimlari. Mavzusidagi Respublika ilmiy – amaliy konferensiya materiallari. Toshkent -2016

tizimidir. Aniq va tabiiy fanlar fanini o'qitishda, o'qituvchi nazariy bilimlarni, tabiiy – geograik jarayonlani ta'riflar, gipotezalar, isbotlar va xaritalarga asoslangan holda og'zaki bayon etadi. Talaba esa mavzuni mustaqil o'zlashtirishi jarayonida egallagan nazariy bilimlarini amaliyotga tadbiiq etishda qiyin sharoitga tushib qoladi. Bu esa o'z navbatida dars jarayonini samarali tashkil etishni, multimedia vositalari asosida ma'ruzalar tashkil etishni rivojlantirishni, elektron darsliklar, electron – o'quv metodik ta'minot resurslaridan, innovatsion metodlardan o'quv jarayonida unumli foydalanib, talabalar faolligini oshirishni, ijodkorlik qobiliyatlarini takomillashtirishni talab etadi.

Aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda o'qituvchi davlat va ijtimoiy buyurtmalarni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar:

- Aniq va tabiiy fanlar ta'limi jarayonida talaba – yoshlarni ma'naviy – ahloqiy tarbiyalash, ma'rifiy ishlarning samarali shakllari va usullarini ishlab chiqish va joriy etish;

- Aniq va tabiiy fanlar fanlaridan tashkil etiladigan ta'lim – tarbiya jarayonida innovatsion va axborot kommunikatsiya va texnologiyalaridan foydalanish;

- Aniq va tabiiy fanlar fanlarini o'qitishda tayyorgarlikning modul tizimidan foydalangan holda o'qitish jarayonini jadallashtirish;

- Xalqning boy ma'naviy va intellectual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida geografik ta'limning insonparvarlik yo'nalishini ta'minlash;

- Geografik ta'lim jarayonining o'quv-metodik majmualar va didaktik ta'minotning yangi avlodi silabusni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

- Milliy mustaqillik prinsiplari xalqning boy intellectual merosi hamda umumbashariy qadriyatlar ustuvorligi asosida geografik ta'limning barcha darajalari va bo'g'inlarida talaba – yoshlarning ma'naviy va ahloqiy fazilatlarini rivojlantirish;

- Aniq va tabiiy fanlar ta'limi jarayonida talaba- yoshlar ongi va qalbiga milliy g'oya va mafkurani singdirish, ta'lim muassasalarida mafkuraviy tarbiyani bugungi kun darajasiga ko'tarish;

•Ta'lim- tarbiya jarayonida ta'lim va tarbiyani uzviylashtirish, fanlar aro integratsiya orqali ta'lim oluvchilarning barkamolligini ta'minlash, huquqiy, iqtisodiy, ekologik va sanitariya-gigienik ta'limi hamda tarbiyasini takomillashtirish.

Mazkur buyurtmalar asosida oliy ta'lim muassasalarida aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda quyidagi zamonaviy yondashuvlar mavjud:

1. Aniq va tabiiy fanlarini o'qitish jarayoniga tizimli yondashuv;
2. Aniq va tabiiy fanlarini o'qitish jarayoniga modulli yondashuv;
3. Aniq va tabiiy fanlarini o'qitish jarayoniga innovatsion yondashuv;
4. Aniq va tabiiy fanlarini o'qitish jarayoniga talabalar shaxsiga yo'naltirilgan yondashuv.

Yuqorida qayd etilgan yondashuvlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun avvalo oliy ta'lim tizimida barcha o'quv fanlari, xususan aniq va fanlardan tashkil etiladigan o'qitish jarayonini ilmiy – nazariy asoslari bo'lgan o'qitish prinsiplari va qonuniyatlarini aniqlashi lozim.

Aniq va tabiiy fanlarini o'qitish jarayonida tizimli yondashuv negizida ta'lim mazmuni, o'qitish metodlari, vositalari va shakllarining uzviyligini ta'minlash yotadi va ta'lim – tarbiya jarayonining mazkur tarkibiy qismlari bir yaxlit tizimini hosil qiladi.

Demak, Oliy ta'limdagi o'qitish jarayoni ta'lim mazmuni, o'qitish vositasi, metodlari va shakllarini tashkil qilish ko'p qirrali yagona tizim shaklida amalga oshiriladi, yaxlit tizimni tashkil etadi.

Darsga qo'yiladigan didaktik talablar:

- ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarning birligini ta'minlash;
- dars yaxshi rejalashtirilgan, tayyorlangan, jixozlangan va tashkil etilgan bo'lishi kerak;
- ilmiy va uslubiy jixatdan to'g'ri tashkil etilgan dars tarbiyaviy ta'sir o'tkazadi, ilmiy yo'nalish uchun qulay hisoblanadi, o'quv materiallarini puxta va ongli tarzda o'zlashtirishga, ko'nikmalar shakllanishiga imkon beradi;
- darsning tuzilishi ilmiy jixatdan bir maqsadga va aniq vazifalarni hal

qilishga qaratilgan bo'lishi kerak;

➤ darsga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tish chog'ida o'qitish va tarbiyalashga nisbatan zamonaviy psixologik-pedagogik va uslubiy yondashishni nazarda tutish;

➤ mashgulotlarning turli shakllarini umumsinf, guruxiy va individual qo'shib olib borish;

➤ dars o'tilishi shakliga ko'ra qat'iy bir tizim bo'yicha olib boriladi: muayyan bog'lanishdan, darsning maqsadlari va vazifalarini belgilashdan, materialni tushuntirish, mustahkamlash va takrorlashdan, uy vazifasini berishdan iborat bo'ladi, darsning kislmlari o'zaro bog'liq bo'lishi va har biri keyingisini tayyorlash uchun asos bo'lishi kerak;

➤ darsda didaktik tamoyillarni to'g'ri belgilash va o'qitish usullaridan unumli foydalanish zarur;

➤ ko'rgazmali qurol va texnik vositalardan unumli foydalanishni tashkil etish;

➤ o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirishini nazorat qilish;

➤ darsni oldingi va keyingi o'tilgan mavzular bilan bog'lash;

➤ o'qituvchilar o'qish-bilish faoliyatining samaraligini o'qituvchining rahbarlik (yetakchilik) roli bilan qo'shib olib borish;

➤ darsda o'quvchilarning shaxsiy tajribasiga tayanish.

Darsga qo'yiladigan psixologik talablar:

O'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish: masalan, quyi sinfda o'qituvchi ta'limiy suhbat, hikoya usullaridan keng foydalansa, yuqori sinflarda ma'ruza, seminar, muammoli o'qitish va boshqa usullardan foydalanadi;

➤ darsda tabakalash tamoyiliga e'tibor berish va uning imkoniyatlaridan unumli foydalanish;

➤ tabaqaviy yondashuv vositalaridan va individual tarzda ta'sir o'tkazish usullaridan foydalanish darajasi;

➤ o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi orasidagi o'zaro munosabat; ta'lim

jarayonida o'quvchilarning xotira, qiziqish, layoqat, moyilligiga e'tibor berish va ulardan samarali foydalanish;

➤ darsni tashkil etishda o'quvchining individual ish sur'ati, uning fikrlash usullaridagi o'ziga xoslikni hisobga olish.

Darsga qo'yiladigan axloqiy - etik talablar:

Axloqiy-etik talablar asosan o'qituvchiga taalluqli. Ta'lim muassasasi o'qituvchisi axloqiy, estetik, siyosiy bilimga, g'oyaviy e'tiqodga, ishonchga ega bo'lishi, o'z kasbini, o'quvchilarini va fanini sevishi, nutqiga va tashki ko'rinishiga e'tibor berishi kerak. Bu sifatlar orqali o'qituvchi o'quvchilarni shaxsiy namunasi bilan tarbiyalaydi.

Darsga qo'yiladigan gigienik talablar:

Darsda muayyan gigienik-sanitariya xolat talab qilinadi: sinf xonasining yorug'ligi, o'quv qurollari, jixozlarning o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelishi, ko'rgazmali qurollardan foydalanish (jadvallar, rasmlar, diapozitiv, kinofilm) va xokazo.

Darsga qo'yiladigan texnik talablar:

Texnika xavfsizligiga rioya qilish, yong'inga qarshi chora-tadbirlarni ko'rish, o'quvchilarning mehnatini muhofaza qilish.

Nazorat savollari

1. O'qituvchining pedagogik faoliyatiga qo'yiladigan talablarni sanab bering.
2. O'qituvchi mahoratining shakllantirish bosqichlari nimalardan iborat?
3. Darsga qo'yiladigan didaktik talablarni sanab bering.
4. Darsga qo'yilgan ahloqiy –etik talablar haqida ma'lumot bering.

2-§. Boshlang'ich sinflarda aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasining didaktik printsiplari

Reja:

1. Ta'limning metodologik asoslari.
2. Zamonaviy didaktika konsepsiyasi.
3. Sharq mutafakkirlarining didaktika haqidagi fikrlari.
4. Ta'lim turlari va ularning tavsifi. Ta'lim qonuniyatlari va tamoyillari.

1. Didaktika haqida tushuncha. Didaktikaning predmeti va vazifalari. Didaktikaning tashkil topishi va rivojlanishi.

Insonning faoliyatida o'qitish har doim juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ta'lim tasodifiy, intuitiv xususiyatga ega bo'lganda ham va asosan tasodifan axborotlarni berish hamda taqlid qilishdan iborat bo'lganda ham shunday bo'lgan; keyinchalik ham, ta'lim maqsadga muvofiq muntazam va rejalashtirilgan jarayonga aylanganda, maktab paydo bo'lganida ham shunday bo'lgan. Biroq uzoq vaqt davomida ta'limni nazariy tahlil qilish va o'rganish ishlari olib borilmadi, shuning uchun oz nazariyasiga ega bo'lmadi. Faqatgina XVII asr bu sohada muhim o'zgarishlar olib keldi: aynan o'sha paytda ta'lim alohida nom oldi va tarixda birinchi didaktik faoliyatning ilmiy asoslangan tizimiga asos solindi.

Didaktika so'zi yunoncha didaktikos "o'rgatuvchi", didasko esa – "o'rganuvchi" ma'nosini bildiradi.

Bu so'z 1613 yili Germaniyada nemis pedagogi Volfgang Ratke (1571-1635 yillar) tomonidan kiritildi.

Bu tushunchani shunga o'xshash usulda buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670 yillar) "Buyuk didaktika" nomli mashhur asarida tilga oladi. Lekin Komenskiy "didaktika bu faqat ta'limgina emas, balki tarbiyalash ham", deb ta'kidlaydi. Mazkur asarda olim ta'lim nazariyasining muhim masalalari: ta'lim mazmuni, ta'limning ko'rgazmaliligi, ketma-ketligi kabi tamoyillari, sinf-dars tizimi borasida so'z yuritadi.

2. Didaktikaning predmeti, funksiyalari va vazifasi.

Pedagogik fan o'qitish va tarbiyalashni ularning yaxlitligi va birligida o'rganadi. Ikki faoliyatning har birining mohiyatini aniq bayon etish uchun ta'lim nazariyasi (didaktika) va tarbiya nazariyasini ajratib ko'rsatadilar.

Hozirgi davrda didaktika o'qitishning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini ilmiy asoslab beruvchi pedagogika sohasi sifatida tushuniladi.

Umumiy didaktikadan tashqari xususiy didaktikalar yoki alohida fanlar bo'yicha ta'lim metodikasi deb ataluvchi didaktikalar ham mavjud.

Ularning mazmuni ta'limning ma'lum bosqichlarida u yoki bu fanlarni o'rganish va ta'lim berishning nazariy asoslarini belgilaydi.

Didaktika – bu pedagogik fan bo'lib, u ta'limning nazariy jihatlarini o'rganadi. Har bir o'qituvchi didaktika asoslarini bilishi zarur. Didaktika predmetini aniqlash bo'yicha turli qarashlar ilgari surilgan.

Qarashlarning turlicha bo'lishi didaktikaning metodologik kategoriyalarini aniq ajratilmaganligi bilan bog'liq.

Ko'pchilik olimlar ta'lim obyekt deb o'qitish jarayonining maqsadi, mazmuni, qonuniyatlari, metodlari va tamoyillarini ko'rsatadilar.

Didaktika ta'limni ijtimoiy tajribani berish vositasi sifatida e'tirof etadi. Ta'lim yordamida yoshlarni hayotga tayyorlash amalga oshiriladi. Ta'limiy faoliyatini tashkil etishda o'qituvchi – o'quvchi, o'quvchi – o'quv material, o'quvchi - boshqa o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlar yuzaga keladi.

Pedagogik adabiyotlarda ulardan qaysi biri didaktika uchun asosiy hisoblanishi kerakligi borasida ham turli fikrlar keltiriladi hamda o'quvchining o'quv materialiga bo'lgan munosabati, ya'ni, bilimlarni o'rganish munosabatini asosiy deb e'tirof etuvchi qarashlar soni nisbatan ko'p.

Darhaqiqat, o'qish, o'rganishi ta'lim jarayonining ajralmas xususiyatidir. Ta'limga psixologiya nuqtai nazaridan yondashilsa, ushbu munosabatning ustuvorligiga shubha qolmaydi. Biroq, ta'limga pedagogik, ya'ni, ijtimoiy tajribani berish, o'rgatish nuqtai nazaridan qaralsa faoliyat uchun asosiy sanaluvchi

munosabat – ikki shaxs (o'quvchi va o'qituvchi) o'rtasidagi munosabatlar yetakchi o'rin egallashi lozim ekanligi anglanadi.

Didaktika predmetini mohiyatini ochishga xizmat qiluvchi yana bir qarash ta'lim-tarbiya jarayonini yaxlit o'rganish zarurligini ilgari suradi. Ta'limning tarbiyaviy vazifalari o'quvchining bilimni o'zlashtirishlarini ta'minlabgina qolmay, shaxs xususiyati, uning rivojlanishi, ma'lum ma'naviy-axloqiy sifatlarni o'zlashtirishi, fe'l-atvori, xulqini tarbiyalash uchun zarur shart-sharoitni yaratishdan iborat.

Didaktikaga ta'limning mazmunli va protsessual jihatlarini birgalikda o'rganish xosdir. Amaliyotni qayta tashkil etish va takomillashtirish masalalarini nazarda tutgan holda didaktika ta'limni faqatgina o'rganish obyektiga sifatidagina emas, balki ilmiy asoslangan loyihalashtirish obyektiga sifatida qaraydi.

Umumiy didaktikaning predmeti dars o'tish (o'qituvchi faoliyati) va bilim olish (o'quvchining o'rganish faoliyati)ning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi hisoblanadi.

Didaktikaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- ta'lim jarayonlari va ularni amalga oshiri shartlarini ta'riflash va tushuntirish;

- ta'lim jarayonini yanada mukammal tashkil etish, ya'ni, ta'lim tizimlari va texnologiyalarini ishlab chiqish;

- ta'lim jarayoni uchun xos bo'lgan umumiy qonuniyatlarni aniqlash, omillarini tahlil qilish va ta'riflash.

Didaktika nazariy va bir vaqtning o'zida meyoriy-amaliy fan. Didaktikaning ilmiy-nazariy vazifasi ta'limning mavjud jarayonlarini o'rganish, uning turli jihatlarini o'rtasidagi bog'liqliklar, ularning mohiyatini ochib berish, rivojlanish tendensiyalari va kelajagini aniqlashdan iboratdir.

O'zlashtirilgan nazariy bilimlar ta'lim amaliyotini yo'naltirish, ta'limni jamiyat tomonidan qo'yilayotgan ijtimoiy talablarga muvofiq takomillashtirishga imkon beradi. Ta'lim mazmunini anglab olish, ta'lim tamoyillari, ta'lim metod va

vositalarini qo'llash meyorlarini aniqlash asosida didaktika amaliy-meyoriy hamda konstruktiv-texnologiya vazifani bajaradi.

3. Didaktikaning tushunchaviy tizimi va asosiy kategoriyalari.

Muayyan fanga xos bo'lgan tushunchalarda insoniyat tomonidan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida to'plangan bilimlar aks etadi. Mavjud ilmiy tushunchalar ikki asosiy guruhga ajratiladi:

- 1) falsafiy tushunchalar;
- 2) xususiy ilmiy, ya'ni, muayyan fangagina xos bo'lgan tushunchalar.

Didaktika uchun "umumiy va alohida", "mohiyati va hodisa", "qarama-qarshilik", "bog'liqligi" kabi va boshqa falsafiy tushunchalar ham muhim ahamiyatga ega. Didaktika tomonidan foydalaniladigan umumfan tushunchalari orasida "tizim", "struktura", "vazifa", "element" kabilar alohida o'rin tutadi. Pedagogikaga xos didaktik tushunchalar sirasiga quyidagilar kiradi: "ta'lim", "dars berish", "bilim olish", "ta'lim jarayoni", "o'quv fani", "ta'lim mazmuni" va boshqalar.

Didaktikada turdosh fanlarga xos bo'lgan tushunchalar ham qo'llaniladi: "idrok etish", "o'zlashtirishi", "mahorat", "rivojlanish" va boshqalar (psixologiya) hamda "boshqarish", "qayta aloqa" (kibernetika).

Didaktikaning tushunchali-terminologik tizimi muntazam yangilanib va to'ldirilib borilmoqda.

Didaktikaning asosiy kategoriyalari quyidagilardan iborat: dars o'tish, bilim olish, ta'lim, bilim, ko'nikma, malaka, ta'lim maqsadi, mazmuni, ta'lim jarayoni, ta'lim jarayonini tashkil etish, ta'lim turlari, shakllari, metodlari va vositalari, ta'lim natijasi.

So'nggi paytlarda asosiy didaktik kategoriyalar sirasiga ta'limning didaktik tizimi va ta'lim texnologiyasi kabi tushunchalarni ham kiritish taklifi ilgari surilmoqda.

Bilim olish – idrok etish, o'rganish, mashq qilish va egallangan tajriba asosida xulq va faoliyatda yangi shakllarning yuzaga kelishi, mavjud bilimlarining o'zgarib, takomillashib, boyib borish jarayoni.

Ta'lim – qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan o'qituvchi va o'quvchining maqsadli o'zaro harakatlari. Ularning birgalikdagi faoliyati ikki tomonlama aloqani tashkil etish jarayonidir. Ta'lim berish asosida bolani umumiy rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratiladi. Ta'lim - o'qitish jarayonida o'quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma, malaka, fikrlash tizimi.

Bilim – tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui bo'lib, ular o'quvchining ongida borliq tushunchalari, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etadi.

Ko'nikma – shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.

Malaka – muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

Maqsad (o'qish, bilim olish maqsadi) – ta'limning nimaga intilayotgani, uning urinishlari yo'naltirilgan.

Mazmun (ta'lim, bilim olishning mazmuni) – ta'lim jarayonida o'quvchi egallab olishi zarur bo'lgan ilmiy bilimlar, amaliy ko'nikma va malakalar, faoliyat hamda fikrlash usullarining tizimi.

Tashkil etish – didaktik jarayonni aniq mezonlar asosida tartibga solish, qo'yilgan maqsadni amalga oshirish uchun unga zarur shaklni berish.

Shakl (yunoncha, forma - tashqi ko'rinishi, qobig'i) – o'quv jarayonining mavjudligini ta'minlovchi usul, uning ichki mantig'i, mohiyati va mazmuni uchun qobig'idir. Shakl sinfdagi o'quvchilarning soni, ta'lim o'rni hamda vaqti, uni amalga oshirish tartibi va shu kabilarga bog'liq bo'ladi.

Metod (yunoncha *metodos* – yo'li, usuli) - ta'lim maqsadi va vazifasiga erishish (uni amalga amalga oshirish) yo'li.

Vosita - o'quv jarayonini predmetli ta'minlash (pedagogning nutqi, darslik, o'quv qo'llanmalari, ko'rsatma li quollar, sinfdagi jihozlar, texnik vositalar, o'quv quollari va boshqalar vosita hisoblanadi).

Natija (ta'lim mahsuli) – ta'lim nimaga erishishini qayd etuvchi tushuncha, o'quv jarayonining oqibati, belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi.

4. Didaktik nazariya (konsepsiya)lar va ularning falsafiy asoslari.

Ta'lim jarayoni psixologik-pedagogik konsepsiyalar (ular aksariyat hollarda didaktik tizimlar ham deb ataladi) asosida tashkil etiladi.

Didaktik tizim (yunoncha systema – yaxlit, qismlarda tashkil topgan, birlashtirish) – ma'lum mezonlari bo'yicha yaxlit holatni belgilash, ajratib ko'rsatish demakdir. U ta'limning maqsadi, tamoyillari, mazmuni, shakli, metod va vositalarining birligi asosida tashkil etilgan tuzilmalarning ichki yaxlitligini ifodalaydi. Tadqiqotchilar mavjud didaktik konsepsiya (tizim)larni umumlashtirib quyidagi guruhlarga ajratadilar:

- 1) *an'anaviy;*
- 2) *progressiv;*
- 3) *zamonaviy.*

Ta'lim nazariyasida Y.A.Komenskiy, I.Pestallotsi va I.Gerbartlarning didaktik konsepsiyalari muhim ahamiyatga ega.

An'anaviy didaktik tizimning yaratilishi nemis faylasufi, psixolog va pedagog I.F.Gerbert (1776-1841 yillar) nomi bilan bog'liq. U

Y.A.Komenskiyning sinf-dars an'anaviy tizimini tanqidiy nuqati nazardan qayta asoslab, etika va psixologiyaning nazariy yutuqlariga tayangan holda ta'lim tizimini yaratdi. I.F.Gerbert ta'lim tizimining asosiy belgisi quyidagilardan iborat.

O'quvchilarning intellektual rivojlanishini ta'minlash maktabning asosiy vazifasi; bolani tarbiyalash esa oilaning vazifasidir.

Progressiv (pedotsentrik) tizim bolaning bilim olishida faoliyatining asosiy rol o'ynashini e'tirof etadi. Mazkur tizim asosini D.Dyui tizimi, G.Kershteynning mehnat maktabi, V.Lay nazariyalari tashkil etadi.

Zamonaviy didaktik tizim. XX asrning 50-yillarida psixolog va pedagog B.Skinner qismlarga bo'lingan axborotlarni yetkazish, bu jarayonni muntazam nazorat qilish asosida materialni o'zlashtirishda samaradorlikka erishish g'oyasini ilgari suradi. Mazkur g'oya keyinchalik dasturiy ta'lim deb ataladi. Keyinchalik N.Krauder nazorat natijalariga qarab o'quvchiga mustaqil ishlash uchun turli materiallarni taklif etadigan tarmoqlashtirilgan dasturlarni yaratdi.

D.Dyuning nazariy g'oyalari muammoli ta'limning asosi bo'lib qoldi. Bugungi kunda muammoli ta'lim deb nomlanuvchi, ushbu g'oya o'qituvchi rahbarligi ostida muammoli vaziyatni yaratish va ularni hal etishda o'quvchilarning faollik va mustaqilliklarini ta'minlashga erishishni nazarda tutadi. Muammoli ta'limning vazifasi faol o'rganish jarayonini rag'batlashtirish, o'quvchilarda fikrlash, tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

L.V.Zankovning (1901-1977 yillar) rivojlantiruvchi ta'lim konsepsiyasi XX asrning 50-yillarida keng tarqaldi. Uning g'oyalarni amalga oshirish ta'lim jarayoniga insonparvarlik g'oyasini singdirish, shaxsni barkamol rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga imkon beradi.

Psixolog L.S.Vigotskiy (1896-1934 yillar) tomonidan 30-yillarda ilgari surilgan "Yaqin rivojlanish zonasi" g'oyasi ham muhim ahamiyatga ega. Unga ko'ra bola kattalar yordamida bilim olib, o'zi mustaqil bajara olmagan ishlarni bajara boshlaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida ta'lim va tarbiyani insonparvarlik, demokratik g'oyalarga muvofiq tashkil etilishi e'tirof etilgan.

Ta'limni insonparvarlashtirish ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsini hurmat qilish, uning sha'ni, obro'si, qadr-qimmatini poymol etmaslik, mavjud iste'dodini rivojlantirishni nazarda tutadi. Demokratlashtirish esa pedagogik jarayonda rasmiyatchilikka yo'l qo'ymaslik, ta'lim dasturlarini tanlashda o'quvchilarning fikrlarini inobatga olishni ifodalaydi.

Respublika uzluksiz ta'lim tizimi ijtimoiy buyurtmani bajarishga xizmat qiladi, barkamol shaxs va yetuk mutaxassisni tarbiyalash vazifasini bajaradi.

Zamonaviy pedagogikada ta'lim paradigma (modeli) lari. Pedagogik paradigma (yunoncha paradigma - misol, namuna) – pedagogika fani rivojining har bir bosqichida ta'limiy va tarbiyaviy muammolarni hal etish namunasi (modeli, standarti) sifatida ilmiy pedagogik hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan nazariy hamda metodologik ko'rsatmalar to'plami bo'lib, u ta'limning konseptual modeli

sifatida qo'llaniladi. Bugungi kunda ta'limning quyidagi paradigmalari keng tarqalgan:

1. An'anaviy – konservativ (bilim paradigmasi)
2. Ratsionalistik (bixevioristik)
3. Fenomenologik (gumanistik) paradigma.
4. Texnokratik.
5. Ezoterik.

Ayni vaqtda ta'lim paradigmalari belgilashga nisbatan ikki xil yondashuv mavjud:

1. Qadriyatli (aksiologik) yondashuv - madaniyat inson hayotining mazmuni sifatida tushuniladi.

2. Faoliyatli yondashuvga asosan madaniyat moddiy va ma'naviy boyliklarini yaratishga yo'naltirilgan faoliyatning sinalgan usullari sifatida talqin etiladi.

3. Shaxsiy yondashuv - madaniyat muayyan shaxs timsolida namoyon bo'ladi.

Madaniyatga nisbatan turlicha yondashuvlarning mavjudligi turlicha paradigmalarning yaratilishiga zamin yaratadi.

Har bir paradigma bir qator ta'limiy muammolarni hal etishga yo'naltiriladi.

Xususan:

- ijtimoiy institut sifatida o'quv muassasalarining vazifalari;

- ta'limning samarali tizimi;

- o'quv yurtlari oldida turgan eng muhim, ustuvor masala;

- ta'limning ijtimoiy ahamiyatli maqsadlari;

- muayyan bilim, ko'nikma va malakalarning qimmatli hisoblanishi. Ayni vaqtda quyidagi paradigmalari mavjud:

1. Bilim olishning an'anaviy paradigmasi (modeli) (J.Majo, L.Kro, J.Kapel va boshqalar)

Unga ko'ra ta'limning asosiy maqsadi - "Bilim, qanchalik qiyin bo'lmasin bilim olish". An'anaviy paradigma maktabning maqsadi yosh avlodga individual

rivojlanishi hamda ijtimoiy tartibni saqlab qolishga yordam beruvchi madaniy meroslarning muhim elementlari – bilim, ko'nikma va malakalar, ilg'or g'oyalar va qadriyatlarni saqlab qolish hamda ularni yoshlarga yetkazish muhim ekanligini yoritadi. Bilim olish paradigmasining asosiy maqsadi: ta'lim olish, taraqqiyot va madaniyatning eng muhim elementlarini avloddan-avlodga yetkazish.

2. Ratsionalistik (bixevioristik) paradigma (P.Blum, R.Gane, B.Skinner va boshqalar). Ratsionalistik paradigma diqqat markazida ta'lim mazmuni emas, balki o'quvchilar tomonidan turli bilimlarni o'zlashtirilishini ta'minlovchi samarali usullari yotadi. Ta'limning ratsionalistik modeli asosini B.Skinerning ijtimoiy injeneriya bixevioristik (inglizcha behavior - xulqi) konsepsiyasi tashkil qiladi.

Maktabning maqsadi – o,,quvchilarda g'arb madaniyati ijtimoiy qoidalari, talablari va ko'zlagan maqsadlariga mos keladigan moslashtiruvchi "xulqiy repertuar"ni shakllantirishdir. Shu bilan bir vaqtda, "xulqi" atamasi bilan "insonga xos hamma ta'sirlanishlar – uning fikrlari, sezgi va harakatlari" ifodalanadi (R.Tayler).

Bunda ta'limning asosiy metodlari, o'rgatish, trening, test sinovlari, individual ta'limi, tuzatishlari bo'lib qoladi. Buning oqibatida, ta'limninggina emas, balki dars berishning ham ijodiy xarakterini aniqlash muammosi muhokama qilinmaydi.

P.Blum barcha o'quvchilar faqat o'zlashtiribgina qolmay, balki muvaffaqiyatli o'qishlari mumkin deb hisoblaydi. O'quvchining optimal qobiliyatlari ma'lum sharoitlarda, o'quvchiga ta'lim berish natijasi uning sur'ati bilan aniqlanadi. Olimning fikricha, o'quvchilarning 95 % i ta'lim muddatlariga bo'lgan cheklashlar olib tashlanganda o'quv kursining butun muzmunini o'zlashtirib olishga qodirlar. Ana shu nuqtai nazardan o'quvchilar tomonidan bilimlarning muvaffaqiyatli o'zlashtirishini ta'minlovchi metodika ishlab chiqiladi, uning mohiyati quyidagichadir:

1. Butun sinf yoki kurs uchun to'la o'zlashtirish etaloni, mezonini aniq belgilab olish asosida o'qituvchi ta'lim yakunida erishilishi kerak bo'lgan aniq natijalarning ro'yxati va unga muvofiq keluvchi testlarni tuzadi.

2. O'quv birliklari, ya'ni, o'quv materiallarining yaxlit bo'limlari ko'rsatiladi, ularni o'zlashtirish natijalari aniqlanadi, yakuniy bahoga ta'sir ko'rsatmaydigan navbatdagi testlar tuziladi. Bu testlarning vazifalari – tuzatish, korreksiyalashdan iborat.

3. To'la o'zlashtirishga yo'naltirilgan har bir o'quv-kurs materiallarini o'zlashtirish darajasini baholash uchun test sinovlarini o'tkazish. Bu o'rinda har bir o'quvchiga baho va ta'lim maqsadlarining ahamiyatini tushuntirish muhim.

Predmetlarni bo'sh va o'rtacha o'zlashtiruvchi o'quvchilarning qobiliyatlarini jadal rivojlantirish P.Blum konsepsiyasining asosiy mazmunini tashkil etadi.

Turli mamlakatlarning (Avstriya, Belgiya, AQSh va boshqalar) ta'lim tizimlari tajribasi ratsionalistik (bixevioristik) paradigma g'oyalari muvofiq ish ko'rilganda 70 % o'quvchilar yuqori natijalarni qayd etganliklarini ko'rsatadi.

Yuqorida qayd etilgan ta'lim yo'nalishlari o'zida insonparvarlik g'oyalarini ifoda etmagan, ular bola dunyoqarashining rivojlanishi, shaxsning rivojlanishida shaxslararo munosabatlarning muhim o'rin tutishini nazarda tutmaydi.

3. Gumanistik (fenomenologik) paradigmasida (A.Maslou, A.Kombs, K.Rodgers, L.S.Vo., godskiy va boshqalar) o'quvchini erkin shaxs, ijtimoiy munosabatlar subyekti sifatida e'tirof etib, uning o'ziga xos rivojlanish talablariga egaligini ta'kidlaydi. Ular bolani rivojlantirish maqsadida uni shaxslararo munosabatlar jarayoniga yo'naltiradi. Ta'limning fenomenologik (fenomen – yunoncha phainomenon – hisoblangan, ya'ni, mashhur, alohida nodir odam) modeli o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olib, ularning talab va qiziqishlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni ko'zda tutadi. Uning vakillari o'quvchini nodir shaxs deb hisoblaydilar. Gumanistik paradigma doirasida faoliyat olib boruvchi har bir ta'lim tizimi ijodiy rivojlanadi va o'quvchi hamda o'qituvchining erkinligi va ijodkorligini yoqlaydi.

Gumanistik paradigma g'oyalari 1991 yildan keyin respublika uzluksiz ta'lim tizimiga joriy etila boshlandi. Paradigmaning diqqat markazida o'quvchining barkamol rivojlanishi, uning intellektual ehtiyojlari, "erkin fikrlaydigan shaxsni

tarbiyalash” masalasining ijobiy hal etilishi yotadi. Ayni vaqtda respublika ta’lim muassasalarida qo’yidagi g’oyalarga amal qilinmoqda: “Demokratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashga o’rganmasa, berilgan ta’lim samarasi past bo’lishi muqarrar. Mustaqil fikrlash – ham katta boylikdir”¹.

Ezoterik paradigma (yunoncha esoterikos – ichki, sirli, yashirin, faqatgina biluvchilar uchun mo’ljallangan insonning dunyo bilan o’zaro aloqalari yuksak darajalarini aks ettiradi). Modelning mohiyati haqiqatga abadiy va o’zgarmas, doimiy sifatida munosabatda bo’lishdan iboratdir. Paradigma tarafdorlari haqiqatni bilib bo’lmaydi deb ta’kidlaydilar. Unga faqatgina fahmlash asosida erishish mumkin. Pedagogik faoliyatning oliy maqsadi koinot bilan muloqot, o’quvchining tabiiy kuchlarini ozod etish va rivojlantirishdan iborat. Shu bilan birga, o’qituvchining himoyalash vazifasi muhimdir, u o’quvchining mavjud imkoniyatlarini uni ma’naviy, jismoniy, psixik jihatdan rivojlantirishga yo’naltiradi.

Ilmiy-texnik, texnokratik paradigmaning asosiy maqsadi amaliyotni takomillashtirish asosida o’quvchilarga “aniq” ilmiy bilimlarni berish va ularning o’zlashtirishlarini ta’minlash. “Bilim - kuchdir”, shuning uchun insonning qimmatini uning o’rganish, bilim olish, imkoniyatlari bilan belgilanadi. Odam o’z-o’zidan qimmatli emas, u faqatgina ma’lum (o’rtacha, standartlashtirilgan) bilim yoki xulq egasi sifatida qimmatga ega g’oyalari mazkur paradigmaning asosini tashkil etadi.

So’nggi yillarda noinstitutsonal paradigma rivojlana boshladi. U ta’limni ijtimoiy institutlar, ya’ni, maktab va oliy o’quv yurtlardan tashqarida tashkil etish g’oyasini ilgari suradi. Bu ta’lim “tabiatda” - Internet, “ochiq maktablar” – kompyuterlar vositasida ta’lim dasturlariga (masofadan o’qitish) muvofiq o’qitish samarali deya hisoblaydi.

Nazorat uchun savollar:

1. “Didaktika” tushunchasini ta’riflab bering.
2. Didaktikaning predmeti va obyekti nimalardan iborat?
3. Didaktikaning asosiy vazifalari nimalardan iborat?

4. Didaktikaning asosiy kategoriyalari qaysilar?
5. Didaktik konsepsiyalardan qaysilari bilan tanishsiz?
6. Rivojlantiruvchi konsepsiyaning mohiyati nimadan iborat?
7. Rivojlantiruvchi ta'limning asosiy tamoyillari qaysilar?
8. "Ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyatlari" tushunchasini Siz qanday tushunasiz?
9. Zamonaviy didaktik tizimning o'ziga xos belgilari nimalardan iborat?
10. Pedagogik paradigma nima? Ta'limning asosiy paradigmalari aytib bering.

3-§. Boshlang'ich ta'limda aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda o'quv dasturi, darslik, multimedia ilovali metodik qo'llanmalar. Ulardan foydalanish texnologiyasi

Reja:

1. Aniq va tabiiy fanlarini o'qitish qonuniyatlari va tamoyillari;
2. Boshlang'ich fani o'qituvchisining o'quv-me'yoriy hujjatlari va metodik ishlari, ularni rejalashtirish, tashkil etish va tayyorlash metodikasi;
3. Mutaxassislik fanlarini o'qitish mazmunini belgilab beruvchi me'yoriy hujjatlar; 4. Fanni o'qitish metod va vositalari, aniq va tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida axborot texnologiyalari, dastur, multimedia, ilovali qo'llanmalardan foydalanish.

Mamlakatimizda inson kapitaliga yo'naltirilayotgan investitsiyalarning yildan-yilga o'sib borishi, axborot kommunikatsiya texnologiyalari jadallik bilan rivojlanayotgan, globallashuv, dunyo bozorida raqobat tobora kuchayib borayotgan bir davrda, demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo'lgan bilim va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash muhim omil bo'lmoqda. Jamiyatning, axborot muhitining va mehnat bozorida holatning jadal rivojlanishi natijasida reproduktiv ta'lim tizimi davr talabiga javob bermay qoldi. Bu esa matematikani o'qitishning yangicha 7 yondashuvlarini ishlab chiqilishini

talab qilmoqda. Faqat bilim olishga yo'naltirilgan ta'lim o'tgan zamonda qolmoqda. Vatanimizning gullab-yashnashi, barqaror rivojlanishi ma'lum bir darajada yoshlarning chuqur bilimga, mustahkam ishonch-e'tiqodga va umuman, komil inson bo'lishlariga bog'liq. Bu haqda Prezidentimiz shunday deb ta'kidlagan: «Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'la oladigan, bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz. Ongli, bilimli odamlarni oldi-qochdi gaplar bilan alday bo'lmaydi. U har bir narsani aql, mantiq tarozisiga solib ko'radi. O'z fikr-o'yi, xulosasini mantiq asosida qurgan kishi yetuk odam bo'ladi»

1. Jamiyatimiz oldida vujudga kelayotgan muammolarni hal etishga faol kirisha oladigan, sharoitni yaxshi tushunadigan, keng qamrovli fikrlaydigan, hayotda uchraydigan kundalik va kasbiy muammolarni tushunadigan, tahlil qila oladigan, taqqoslay oladigan, amaliy hal eta oladigan insonlarga bo'lgan talab qo'yilmoqda. Barchamizga ma'lumki, matematika fani insonning aqlini o'stiradi, uning diqqatini rivojlantiradi, ko'zlangan (rivojlantirilgan) maqsadga erishish uchun o'zida qat'iyat va irodani tarbiyalaydi, o'zidagi algoritmik tarzda tartib-intizomlilikni ta'minlaydi va eng muhimi uning tafakkuri kengayadi. Prezidentimiz juda o'rinli ta'kidlab o'tganlaridek, «chuqur tahlil, mantiqqa asoslanmagan fikr odamlarni chalg'itadi. Faqat bahs-munozara, tahlil mevasi bo'lgan xulosalarigina bizga to'g'ri yo'l ko'rsatishi mumkin»¹ Demak, zamonaviy inson mustaqil qaror qabul qila oladigan, jamoada ishlay oladigan, tashabbuskor, yangiliklarga moslasha oladigan, mashaqqatli va asabiy xolatlarga chidamli, bu xolatlardan chiqa oladigan bo'lishi kerak. Hamma bunday sifatlarni matematika ta'limida kompetensiyaviy yondoshuvdan foydalanish asosida erishish mumkin.

Bugungi kunda iqtisodiy rivojlangan davlatlarda kompetensiyaviy yondoshuv ta'lim mazmunini modernizatsiya qilib, yangicha o'qitish yo'nalishlaridan biriga aylangan. Bu davlatlardagi umumiy ta'limning yangicha mazmunining asosini o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini hosil qilish va rivojlantirish tashkil etadi. Ta'limga kompetensiyaviy yondoshuv eskitib qolgan "bilim, ko'nikma va malakani o'zlashtirish" kontsepsiyasiga qarshi o'laroq,

kasbiy, shaxsiy va jamiyatdagi kundalik hayotda uchraydigan holatlarda samarali harakat 1. 1 Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. //Asarlar to'plami. 7 jild. - T.: "O'zbekiston", 1999, 134-bet. 8 qilishga imkon beradigan turli ko'rinishdagi malakalarni o'quvchilar tomonidan egallashni nazarda tutadi. SHunday qilib, kompetentsiyaviy yondashuvda matematik ta'limning asosini amaliy, tadbqiqiy yo'nalishlarini kuchaytirishga qaratiladi.

Bundan tashqari, tuzilayotgan ta'lim standartlari o'quvchilarning oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olishlari, turli kasb egalari bo'lishlari va har tomonlama faol fuqaro bo'lishlari uchun zarur bo'ladigan sifatlarni aks ettirishi kerak. Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi yosh avlodning o'zgaruvchan dunyoda raqobatbardosh bo'lishi fanlarni mukammal egallashni taqozo etadi, bu esa O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimiga matematikani o'rgatish bo'yicha xalqaro standartlarni joriy etish orqali ta'minlanadi. Standart loyihasi tuzilishda quyidagi umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlardan foydalanildi:

1) Yevropa Kengashining "Uzluksiz ta'lim uchun tayanch kompetentsiyalar – umumevropa standartlari strukturasi" to'g'risidagi hujjati («Key competences forlifelong learning — a European Reference Framework» 2) 2) Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining (Organisation forEconomic Cooperation and Development (OECD)) Xalqaro o'quvchilarni baholash Dasturi (Programme forInternational Student Assessment (PISA)) standartlari3 .

3) Ta'lim natijalarini baholash bo'yicha Xalqaro Assotsiatsiyasining (International Association forthe Evaluation of Educational Achievement (IEA)) Xalqaro matematika va aniq va tabiiy fanlarning tendentsiyalarini o'rganish markazi (Trends in international mathematics and science study Center(TIMSS)) standartlari

4. 1-hujjatning ayrim holatlarini nazarda tutgan holda Xalq ta'lim vazirligi qoshidagi Respublika ta'lim markazi tavsiyasiga ko'ra matematika bo'yicha quyidagi tayanch kompetentsiyalarga erishishga qaratilgan ta'lim standartining yangi avlodini yaratish:

- Kommunikativ kompetentsiya
- Axborot bilan ishlash kompetentsiya ;
- SHaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetentsiya ;
- Ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiya.

2 Recommendation of the European Parliament and of the Council of 18 December 2006 "On key competences for lifelong learning" (2006/962/EC) 3 PISA 2012 Assessment and Analytical Framework (mathematics, reading, science, problem solving and financial literacy. 4 Timss 2015 Assessment Frameworks. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA).

Umummadaniy kompetentsiyalar

•Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetentsiya

•Kommunikativ kompetentsiya:

•A1

•matematikaga oid atamalarning ma'nosini tushunib to'g'ri o'qiy olish; •so'z va gaplarni bog'lagan holda o'z fikrini aniq va ravshan ifodalay olish; •fikrni mantiqiy izchillikda ifodalay olish;

•matematik matn ma'nosini qayta so'zlab bera olish;

•matematik qoidalarni ifodali ayta olish.

•matematikaga oid audiomatn, videotasvirlarni tinglab tushuna olish va tegishli munosabat bildiradi olish.

•A1+

•matematikaga oid audiomatn, videotasvirlarni tinglab tushuna olish vazmavmunini tushuntira olish.

• Axborotlar bilan ishlash kompetentsiyasi:

• A1

• tavsiya etilgan manbalardan axborotni izlab topa olish, zarur bo'lsa uni boshqa ko'rinishlarga (matn, jadval, sxema va h.k.) o'tkaza olish;

- diagrammalar, jadvallar, chizmalar ko'rinishida berilgan statistik ma'lumotlarga asoslanib turli obyekt va hodisalarni taqqoslay olish;

- statistik ma'lumotlarning ko'rinishlarning bir turdan boshqa ko'rinishga o'tkaza olish.

- A1+

- manbalardan axborotni izlab topa olish, uni boshqa ko'rinishlarga (matn, jadval, sxema va h.k.) o'tkaza olish.

- O'zini o'zi rivojlantirish kompetentsiyasi:

- A1

- o'qituvchi bilan birgalikda o'quv masalasini (maqsadini) topa olish, ifodalay olish va qismlarga ajrata olish;

- o'quv faoliyat natijasini tahlil qila olish, yo'l qo'yilgan xato va noaniqliklarni topa olish, ularni tuzata olish;

- o'qituvchi bilan birgalikda olingan natijalarni boshqalar foydalanishi uchun oson ko'rinishda taqdim eta olish;

- kundalik vaziyatlarda mavjud bilim va ko'nikmalarni qo'llay olish;

- o'qish va yangi bilimlarni egallashga qiziqqa olish;

- masala yechish orqali kundalik vaziyatlarga nisbatan o'zining ijobiy estetik-emotsional munosabatini shakllantira olish.

- A1+

- masala yechish orqali real dunyodagi vaziyatlarga nisbatan o'zining ijobiy estetik-emotsional munosabatini shakllantira olish.

- ta'lim jarayonini samarali tashkil etish orqali o'quvchilar o'rtasida qiziqish uyg'otish va ongli intizomni vujudga keltirish;
- o'quvchilarni muvafaqqiyatli bilim olishga yo'llovchi hamkorlikning paydo bo'lishi;

- muntazam faoliyatning tashkil etilishi;
- tegishli talablarni jamoa orqali qo'llashni amalga oshirish muhim sanaladi.

3. Zamonaviy ta'lim jarayonini tashkil etish metodlari

- o'rta saviyali o'quvchiga nisbatan mo'ljal olishdan voz kechish;
- o'quvchilarning eng yaxshi sifatlarini aniqlash va rivojlantirish;
- ta'limda psixologik-pedagogik diagnostikani qo'llash orqali o'quvchilarning qiziqishi, ehtiyoji, qobiliyati, shaxsiy sifatleri, aqliy faoliyatning xususiyatlarini aniqlash;

- o'quvchilar o'zlashtiradigan bilim, ko'nikma va malakalar dinamikasini tasavvur qilish;

- o'quvchi shaxsi rivojlanishining dasturiga tegishli o'zgartirishlar kiritish talab etiladi.

8-jadval.

An'anaviy ta'lim	Rivojlantiruvchi ta'lim
Boshlang'ich (asosiy) maqsad	Aniq, so'zsiz bajaruvchi shaxsni tayyorlash
Ko'rsatma	Shaxsni jahon standarti talabiga javob beradigan, o'ziga munosabatini bildira oladigan, mustaqil faoliyat yurita oladigan ijodkor, tadbirkor shaxsni tayyorlash, mustaqil ishlashga, o'z-o'zini tarbiyalashga sharoit yaratish
Dastur asosida o'rganish	Fan sohasida berilayotgan materialni yodlash savollarga javob o'zi mustaqil javob topa olishi, yodlash emas, fan mazmunini o'zi tushunib etishi, kerakli bilimni qidirib topa olishi.
Ta'limiy (didaktik) maqsadlar	Bilim, ko'nikma, malakalarni dars jarayonida o'quvchilarda shakllantirish o'z fikrlarini mustaqil bayon etishga o'rganish, kerakli adabiyotlardan ustalik bilan foydalanish, ularni izlashga, topishga o'rgatish.
Metodlar	Informatsion, reproduktiv. Muammoli, qisman reproduktiv – muammoli izlanishli axborot-reproduktiv, aktiv, interaktiv.
Dars vaqtida o'quvchilar faoliyatini etish tashkil etish akllari	Frontal (bir necha, yakka holda, juft bo'lib, o'quvchidan yakka holda) gurubli, frontal shaklda.

Nazorat savollari:

1. An'anaviy dars o'tish usuli ta'limning qanday modeli hisoblanadi?
2. An'anaviy dars qanday bosqichlardan iborat?
3. O'qituvchi tomonidan o'qitish jarayonini va o'qitish muhitini yuqori darajada nazorat qilinishi qanday amalga oshiriladi?
4. Vaqtdan unumli foydalanish deganda nimalarni tushunasiz?
5. Aniq ilmiy bilimlarga tayanish nimalarni o'z ichiga oladi?
6. O'quvchilar qanday xolatlarda passiv ishtirokchi bo'lib qoladilar?
7. O'qituvchining to'la nazorati barcha o'quvchilar uchun motivatsiyani vujudga keltiradimi?
8. Motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishi uchun nimalarga ahamiyat berish kerak?
9. O'quvchilar o'qituvchi bilan bevosita muloqotga kirisha olmasligiga nima sabab bo'ladi?
10. Eslab qolish darajasi hamma o'quvchilarda bir xil bo'lmaganligi qanday xolatni keltirib chiqaradi?

AMALIY MASHG'ULOTLAR

1-§. Boshlang'ich sinflarda aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda o'quv dasturi, darslik, multimedia ilovali metodik qo'llanmalar tahlili

Reja:

1. Boshlang'ich ta'lim matematika fanidan o'quv dasturi, darsliklardan foydalanish texnologiyasi
2. Multimedia ilovali qo'llanmalardan foydalanish texnologiyasi
3. Metodik qo'llanmalardan foydalanish texnologiyasi

Ta'lim sifatini o'zgartirishda o'qituvchining roli:

1. Tashkilotchi-ijtimoiy pedagog: o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlaydi.
2. Sinf yetakchisi-sinfda ijobiy psixologik muhit yaratadi va ta'sir ko'rsatadi;
3. Metodist-ta'lim jarayonida o'quvchilarning muammoni yechishda yordam beradi va qo'llab-quvatlaydi.
4. Faylasuf-bilim va tajribalarni tahlil qiladi, o'z qarashlarini asoslaydi;
5. Tajribali yaqin do'st-o'quvchilar oldidagi to'siq va muammolarni bartaraf etishga yordam beradi.
6. Tadqiqotchi – novator-yangilik yaratuvchi-munzam ravishda o'z ustida ishlaydi, yangi g'oyalar yaratadi, tatbiq etadi.
7. O'quv jarayonini rahbari va uni rag'batlantiruvchi-maqсадga yetish vositalari, istiqbolini nazarda tutadi, o'qitish uslublarni tanlaydi, o'quvchilarni o'qishga o'rgatadi, ijodiy yondashadi.
8. O'zaro ta'sir ko'rsatuvchi -jamo'a bo'lib ishlay oladi va ishlashga o'rgatadi.
9. Maslahatchi- shaxsiy namunasini o'rgatadi
10. Tarbiyachi-o'quvchilarga jismonan, aqliy va ma'naviy tomondan rivojlanishlariga yordam beradi.
11. Psixolog-o'zini yaxshi biladi va tushunadi
12. O'zgarishlarga yo'naltiruvchi-o'quvchilarni hayotiy ko'nikmalarini yaxshilashga yordam beradi

13. Ma'lumotlarni taqsimlovchi-o'quvchilarga asosiy yangi ma'lumotlarni yetkazadi va amaliyotga tatbiq etishga o'rgatadi. O'qituvchi o'quv jarayonida maslahatchi sifatida faoliyat qiladi.

Ya'ni: O'quvchilarga ko'nikmalarini o'qish jarayonida rivojlantirishga yordam beradi; - Turli xil yo'nalishdagi reja (strategiya)larni qanday qo'llash kerakligi bo'yicha maslahat beradi; - Faol qayta aloqani ta'minlaydi; - Noan'anaviy usullar bilan o'quvchilarning harakatlarini qo'llaydi va mustahkamlaydi; - O'quv faoliyatidagi qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi; - O'quv faoliyatini individuallashtirishga yordam beradi; - O'quvchilarning o'quv jarayonidagi ehtiyojlarini tahlil qiladi. O'qituvchi-yangilik kirituvchi va Yangiliklarni ayniqsa o'zga davlatlardan kirib kelayotganlarini farqlaydi va tushunib yetadi; va Yangiliklarni tahlil qila olishga layoqatli;

Yangiliklarni turli xil vaziyatlarda qo'llay oladi va kamchiliklarini to'g'rilaydi;

O'z pedagogik amaliyotida yangiliklardan ijodkorona foydalana olishga layoqatli. Kattalarni o'qitish va o'rgatishning mohiyati:

- mazmundan kelib chiqib-dolzarb maqsadni belgilash (motivatsiya asosida);

-tajribani sinab ko'rish va tanqid;

-o'rganish, emotsiyaning ta'siri; hurmat qilish va xavfsizlik muhiti;

-o'qish- ma'suliyat,faollik;

-tajribadan o'rganish;

-refleksiya va qayta aloqa O'zbekistonning shu kundagi pedagogik jamoatchiligining aksariyati, aynan mana shu yuldan bormokda. Bu yul ilojsizlikdan izlab topilgan bo'lib, kiska muddat xizmat kilishi mumkin. Mustaqillikni qo'lga kiritgan va buyuk kelajak sari intilayotgan jamiyatga bu yul uzoq xizmat kilolmaydi. Chunki: birinchidan, ma'lum sabablarga kura jaxon xamjamiyati taraqqiyotidan ortda kolib ketgan jamiyatimiz tarakkiy etgan mamlakatlar katoridan urin olishi uchun axoli ta'limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maksadida eng ilg'or pedagogik tadbirlardan foydalanishning zarurligi; ikkinchidan, an'anaviy o'kitish tizimi yozma va ogzaki

so'zlarga tayanib ish ko'rishi tufayli «Axborotli o'qitish» sifatida tavsiflanib, o'qituvchi faoliyati birgina ukuv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib qolganligi; uchinchidan, fan-texnika taraqqiyotining o'ta rivojlanganligi natijasida axborotlarning keskin ko'payib borayotganligi va ularni yoshlarga bildirish uchun vaqtning chegaralanganligi; to'rtinchidan, kishilik jamiyati o'z taraqqiyotining shu kundagi bosqichida nazariy va empirik bilimlarga asoslangan tafakkurdan tobora foydali natijaga ega bulgan, aniq yakunga asoslangan texnik tafakkurga o'tib borayotganligi; beshinchidan, yoshlarni xayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg'or bilim berish usuli xisoblangan obyektiv borliqqa majmuavit yondashuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishidadir. Pedagogik texnologiya yuqorida sanab o'tilgan beshta sababiy shartlarning barcha talablariga javob beradigan ta'limiy tadbirdir. Ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish ilmiy muammo sifatida maxsus tadqiqotlar olib borishni ko'zda tutadi.

1-topshiriq. Matematika fanidan dastur va darslik bilan ishlash texnologiyalari haqida ma'lumot bering.

2-topshiriq. Multimedia va ilovalar bilan ishlash texnologiyasi haqida qisqacha ma'lumot bering hamda multimedianing bitta ilovasini tayyorlang.

3-topshiriq. Fan bo'yicha etodik qo'llanmalar statistikakasini tayyorlang hamda tahlilini qiling.

2-§. Boshlang'ich sinflarda aniq va tabiiy fanlarni o'qitishdagi muammolar. O'quvchilarda matematik savodxonlik va tabiiy kuzatuvchilik malakalarini shakllantirish usullari

Reja:

- 1. Boshlang'ich sinflarda aniq va tabiiy fanlarni o'qitishdagi muammolar.**
- 2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik tafakkurini shakllantirish yo'llari**
- 3. Boshlang'ich sinflarda aniq va tabiiy fanlarni o'qitishdagi muammolar.**

Matematika har bir inson hayotida juda zarur bo'lishi mumkin bo'lgan eng muhim fanlardan biridir. Barchamiz yashayotgan vaqtni hisobga olgan holda, matematikasiz printsipl ravishda amalga oshirish mumkin emas. Matematika o'quv predmeti sifatida o'quvchilarning bilim qobiliyatlarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni o'z ichiga oladi, u sintez, taqqoslash, tahlil kabi fikrlash shakllarini shakllantiradi va tuzatadi, konkretlashtirish uchun umumlashtirish qobiliyatini rivojlantiradi, xotira, e'tibor va boshqa aqliy funktsiyalarni tuzatish uchun sharoit yaratadi. Ushbu jarayonda bolalar nutqining rivojlanishi kuzatiladi, u maxsus matematik atamalar va iboralar bilan boyitiladi. Muayyan muammoning echimini tushuntirishda talaba o'z harakatlarini oqilona tushuntirish ko'nikmalariga ega bo'ladi, buni ortiqcha so'zlar yoki iboralar qo'shmasdan aniq va aniq bajaradi. Boshlang'ich sinflardagi matematika darslari o'rta maktablardagi darslardan keskin farq qiladi. Boshlang'ich sinflardagi matematika o'qituvchisi, ushbu bosqichdagi boshqa o'qituvchilar singari, asosiy vazifalaridan tashqari, psixolog va o'qituvchi mahoratiga ega bo'lishi kerak. Chunki bu davrda o'qitish nafaqat turli xil o'quv fanlari bo'yicha bilimlarni taqdim etishni, balki uni psixologik va shaxsiy jihatdan tarbiyalashni ham o'z ichiga oladi. Boshqa fanlar singari, matematika ham quyidagi bilim va ko'nikmalarni egallashni o'z ichiga oladi: a) natural son, nol, natural sonlar qatori, ularning xususiyatlari, oddiy o'nlik kasrlar tushunchasi haqida tushuncha beradi; b) talabalar ongida asosiy miqdorlar (segmentning uzunligi, qiymati, obyektlarning massasi, turli geometrik shakllarning maydoni, jismlarning hajmi va hajmi, vaqt), o'lchov birliklari, turli miqdorlar va ularning munosabatlari to'g'risida aniq g'oyalarni shakllantiradi; v) o'lchovlarning metrik tizimi, vaqt o'lchovlari haqida tushuncha beradi; D) to'rta asosiy narsani bajarish qobiliyati arifmetik amallar (qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish) ko'p xonali sonlar va kasrlar bilan; e) talabalarda oddiy va murakkab muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Matematika darslarida yuqorida ko'rsatilgan maqsadlarga erishish uchun o'quv materialini o'quvchilarga to'liq etkazishga qaratilgan turli usullar qo'llaniladi. O'qitish metodikasi-bu o'qituvchi

va talabalarning birgalikdagi faoliyati usullari bo'lib, uning yordamida o'qituvchi o'qituvchi tomonidan talabaga bilim va ko'nikmalarni uzatadi.

Bunday usullar ko'p navlarga ega. O'qituvchi ushbu aniq o'quv bosqichida qaysi birini qo'llash maqsadga muvofiqligini tanlaydi. Ulardan ba'zilari ijodiy, boshqalari odatda an'anaviy deb nomlanadi. Agar ko'plab o'qituvchilar tomonidan yangi o'qitish usullari hali o'zlashtirilmagan bo'lsa, an'anaviy usullar uzoq vaqt davomida darslarda qo'llanilgan va ularning samaradorligini ko'rsatishga muvaffaq bo'lgan. Ko'pincha boshqa boshlang'ich sinflarda turli xil o'quv fanlari, shu jumladan matematikadan materiallarni tushuntirishda hikoya qilish usuli qo'llaniladi, matematikaga qo'llanganda u bilimlarni taqdim etish usuli deb ataladi. Shu bilan birga, suhbat usuli qo'llaniladi. Suhbat jarayonida o'qituvchi talabalar oldiga vazifalarni qo'yadi, ularni hal qilishda ikkinchisi mavjud bilimlardan foydalanishi kerak.

Matematikani o'qitish metodikasi boshqa fanlar bilan, birinchi navbatda pedagogika, rivojlanish psixologiyasi, axloq, ona tili va adabiyot bilan chambarchas bog'liqdir. So'nggi paytlarda modellashtirish usullaridan foydalanish tobora ko'proq sezilmoqda. O'rta umumta'lim maktablarida, shu jumladan boshlang'ich sinflarda matematikani o'qitish ularda aniqlik, aniqlik, qat'iyatlilik va kuchli Iroda kabi shaxsiy xususiyatlarni shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, matematika ta'lim maqsadlarida yordam berishi mumkin. Ushbu mavzu o'quvchilarga oqilona fikrlashni o'rgatadi. Agar ona tili va adabiyoti darslari bolaning ijodiy qobiliyatlarini ochib berishga yordam bersa, unga improvizatsiya uchun maydon bersa, matematika u yoki bu vaziyatni qat'iy baholashga, to'g'ri xulosalar chiqarishga va ushbu vaziyatda eng to'g'ri, maqbul qaror qabul qilishga o'rgatadi. Matematika o'quvchilarda tahlillarni taqqoslash va xulosalarni umumlashtirish qobiliyati kabi fikrlash shakllarini shakllantiradi. Shuningdek, matematik muammoni hal qilishda talaba xotirani tuzatishni kuchaytirish, diqqatni jamlash qobiliyatini oshirish va kuzatishni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'rta maktabning boshlang'ich sinflarida bolalar ko'pincha matematikani zerikarli va monoton fan sifatida qabul qilishadi, bu fan

bo'yicha darslarni eng monoton fan sifatida qabul qilishadi. Bunday vaziyatda o'qituvchilarning o'zlarini aybdor deb atash mumkin, ular asosan dars jarayoniga yangi narsalarni olib kirishga intilmaydilar, ular o'quvchilarning o'qitish qobiliyatlari qanchalik qiziqarli ekanligi bilan qiziqmaydilar. Shuni esda tutish kerakki, o'qitish usullari o'quvchilar uchun qiziqarli deb hisoblangan o'qituvchi ular orasida g'alaba qozonadi.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik tafakkurini shakllantirish yo'llari. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik tafakkurini shakllantirish maqsadida qiziqarli matematik o'yinlar, matematik o'yinlar, boshqotirmalar, geometrik masala va mashqlar, muammoli arifmetik masalalar, hazil masalalar, matematik mazmundagi topishmoqdagi topishmoqlardan vosita sifatida foydalanish o'rinlidir. Matematik o'yinlar o'quvchilar bilimini boyitishga ularda aqliy faoliyatni o'stirishga yordam beradi. Matematik o'yinlar, boshqa termalar o'ziga hos xususiyatlarga ega bo'lib, ulardagi o'quvchilarni o'ylashga majbur etadigan sharoit, ularning qiziqaliligi o'quvchilarda aqliy va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi. Qiziqarli matematik o'yinlar o'quvchilarning tafakkurining rivojlanishiga har tomonlama ta'sir etuvchi vosita hisoblanib, uning yordamida aqliy va irodaviy rivojlanish amalga oshiriladi. Fazoviy hayol, matematik tafakkur maqsadga qaratilganligi va maqsadga intilganlik, amaliy vazifalarni yechish uchun amallarning yo'llarini mustaqil qidirish va topish bularning hammasi birgalikda matematikani muvaffaqiyatli egallashlari uchun talab qilinadi. Bola maktab ostonasiga qadam qo'yar ekan, o'zining bo'lgan qiziqishini yo'qotmaydi, u avvalgidek o'yinga o'ch bo'ladi. Hatto qiziqarli masalalar ham bolalarda faollikni uyg'otib, tafakkurni rivojlantiradi.

Biz boshlang'ich sinf matematik darslarida bunday hollarga duch keldik. Bu darslarda o'quvchilarga raqamlar haqidagi masalalar, matematik sofizmlar, boshqotirmalar, masala, she'r, hazil masalalarni yechish tavsiya etiladi. Bulardan ba'zilarini keltiramiz.

1. Raqamlar haqidagi masalalar. Uchta ketma – ket har xil raqamlar oling va undan mumkin bo'lgan ikki xonali sonlar to'plamini tuzing. Hosil bo'lgan

sonlar yig'indisini berilgan raqamlar yig'indisiga bo'ling. Sizlarda javobi 22 bo'ladi. Masalan: 3, 4, 5 sonlarini olamiz. Mumkin bo'lgan ikki xonali sonlar to'plamini tuzamiz: 34, 35, 43, 45, 53, 54.

$$\underline{34+35+43+45+53+54=22}$$

$$3+4+5$$

Sevimli raqam.

2. O'quvchilardan biriga sevimli raqamini aytish taklif qilinadi.

U xohlagan, ya'ni 6 raqamini aytgan bo'lsin.

- Xo'sh, uning qanday xususiyati bor? – deb qiziqib qoladi, o'quvchi. Ajayibligini bilay desangiz, yaxshi ko'rgan raqamingizni 9 ga ko'paytiring va chiqqan son (54) ni quyidagi 123456789 sonlarining tagiga ko'paytiruvchi qilib yozing.

X 12345678

54

666666666

v) Boshqotirgich.

Boshqotirgich niso'ruvchidan (soat) yoshi nechadalgini so'rashdi. Uning javobi o'ylantiradigan edi. "Uch yildan keyingi yoshimning uch baravaridan uch yil avvalgi yoshimning uch baravarini ayiring, u holda sizda mening yoshim hosil bo'ladi", deb javob berdi.

Yechish: Izlangan sonni x bilan belgilaymiz, u holda 3 yildan keyingi yoshi $x+3$ ga va 3 yil avvaligi yoshi $x-3$ bo'ladi. Natijada quyidagi tenglamaga ega bo'lamiz:

$$3(x+3)-3(x-3)=x$$

$$3x+9-3x+9=x$$

$$X=18$$

Demak, u 18 yoshda ekan.

Har qanday matematik o'yinlar qandaydir amtematik nazariyaga asoslanadi. Ular o'quvchilarning abstrakt tushunchalarini o'rganishdagi mashg'ulotda

bolalarning tafakkurini rivojlantirib, faolligini oshiradi. Chunki ularda og'zaki hisoblashning tezligi konkurs hissining o'tkirligi, maqsadga eng to'g'ri yo'l bilan yetish istagi yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Matematikada o'yin fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi, bu esa doimo jiddiy shug'ullanishiga extiyoj tug'diradi. Paskal so'z bilan aytganda, matematika shunday jiddiy fandirki, uni sal qiziqarli qilish imkoniyatini qo'ldan bermaslik lozim.

Quyida yan tafakkurni rivojlantiruvchi matematik o'yinlardan keltiramiz. Ushbu shaxmat tahtasini tegishli sonlarni qo'yish bilan ko'paytirish jadvaliga aylangan ko'rinishida sanamasdan chamalangchi? So'ng qanchalik yaqin taxminlaganingizni tekshiring va aniqlang. Shu jadvalda oxiri 0 bilan tugagan nechta son yashiringan?

Jadvaldagi oxirgi 5 bilan tugagan barcha sonlarni qo'sha olasizmi? Jadvalda aynan bir xil sonlar nechta? Chap tomonidan boshlasangiz (tepadan o'ngga qarab, yoki tepadan pastga qarab) nechanchi qavatgacha bo'lgan sonlarni qo'shib chiqishga kuchingiz yetadi?

1	2	3	4	5	6	7	8	9
2	4		8		12		16	
3		9		15		21		27
4	8		16		24		32	
5		15		25		35		45
6	12		24		36		48	
7		21		35		49		63
8	16		32		48		64	
9		27		45		63		81

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik tafakkurini shakllantirish uchun, ular ning matematik bilimlarini ongli ravishda o'zlashtirib olishlariga yordam beradigan faolliklarini oshiradigan va olgan bilimlarini mustahkamlaydigan, mustaqil ishlash malakalarini tarbiyalovchi ta'lim uslublari yuqori darajada rivojlangan bo'lishi kerak, bunday ta'lim uslublari yana biri umumlashtirishdir.

Umumlashtiruvchi darsda o'tilgan mavzularni umumlashtirish, tizimlashtirish o'quvchilarning matematik tafakkurini rivojlantiradi, shakllantiradi, o'quvchilarning masalaga ijodiy yondashishga, mustaqil fikrlashga, masalaning turli yechimlari hamda eng qisqa optimal usullarini ishlashga o'rgatadi. O'quvchilarda ilmiy izlanishga moyillik uyg'otadi. Umumlashtiruvchi darslarda umumlashtirish, matematik tushunchalarni va masalaning qo'yilishini aniqlashtirish o'quvchilarning matematik tafakkurini, fikrlash qobiliyatlarini, shakllantirish didaktik yo'llardan biri hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf matematika kursida umumlashtiruvchi darslarning umumiy maqsadi – matematika kursining asosiy tushunchalarini takrorlash, umumlashtirish bilan birga ularni chuqurlashtirish va shu fandan o'quvchilar bilimini tizimlashtirish hamda misol va masalalar orqali o'quvchilarning matematik tafakkurini shakllantirishdir.

Mavzularni chuqurlashtirish hamda mustahkamlashda umumlashtiruvchi takrorlash darslari imkoniyat yaratadi. Umumlashtirib, o'rganish to'g'ri tashkil etilsa, talabalarda barcha mavzulardagi umumiy g'oyalarni ajratishga imkoniyat yaratadi. Bunday holda o'quvchilarning bilimi yanada mustahkamlanib, matematik madaniyati oshadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik tafakkurini shakllantirishga oid misollar

Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim jarayoni juda murakkab jarayondir. Chunki o'quvchi bevosita o'quv faoliyatidan ta'limiy faoliyatga kirishadi. Bu jarayonni hozirgi kun davr talabi asosida tashkil etish, ya'ni uzluksiz ta'lim tizimida

uzviylikni ta'minlash boshlang'ich sinf o'qituvchisidan katta ma'suliyat, bilim, mahoratni talab etadi.

Bugungi kun o'qituvchisi o'quvchilarning chuqur bilimli, zukko va mustaqil fikr egasi etib tarbiyalashi uchun nimalarga e'tibor berishi kerak? Darsni qanday tashkil etishi kerak?

Yuqorida keltirilgan muammolarning bevosita yechimi, bizning-cha, ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etilgandagina boshlang'ich sinflarda, matematika ta'limi Davlat Ta'lim Standartida belgilab berilgan talablar darajasiga amalga oshiriladi deb hisoblaymiz.

Boshlang'ich ta'limda matematikadan Davlat Ta'lim Standartlari talablariga o'quvchilarning matematik mulohazalar etish salohiyatlarini shakllantirish orqali erishiladi.

Ma'lumki mustaqil fikr, mustaqil faoliyat natijasida hosil bo'ladi.

Matematika ta'limi mazmuniga o'quvchilarning mustaqil faoliyatlarini kuchaytirishga imkon beruvchi amaliy ishlar va rivojlantiruvchi topshiriqlar kiritish nihoyatda yaxshi natijalar beradi.

Mustaqil fikrlash:

- o'quvchilarning tafakkur doirasini ijodiy fikrlash salohiyatini kengaytiradi;
- o'quvchilarning yangi o'quv vazifalari va muammolarini mustaqil yecha olishga hamda munozara yurita olishga bo'lgan tayyorgarlik va qobiliyatlarini rivojlantiradi;

- bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini namoyon qilish darajasini oshiradi va o'quvchilarda muhim o'quv ko'nikmalari hamda qobiliyatlarini rivojlantiradi. (xususan matematik fikrlash, matematik va mos ravishdagi belgilashlardan foydalana olish);

- matematik ifodalarni izohlay oladi;

- natijalarni izlahlab, hukum chiqara oladi;

- o'quvchilarning intilishini, qiziqishlarini, yo'naltirish va shakllantirish, o'qishga bo'lgan istak, ishtiyoq hamda ta'lim olish uchun kerakli shart – sharoitni belgilab olishga imkon beradi.

Biz quyida tavsiya etadigan misol namunasi o'quvchilarning mustaqil fikrlash faoliyatini kuchaytirish maqsadini amalga oshirishga qaratilgan.

Grafik ravishda berilgan misollar o'quvchilaning amallar tartibini puxta o'zlashtirishlariga yaqindan yordam beradi. Masalan, ifodaning qiymatini topishda o'quvchilar 1-chizmaga murojaat etadilar. O'quvchilar avval birinchi qatordagi amalni, ya'ni ayirish amalini bajarishlari kerak. So'ng ikkinchi qatordagi hisoblashlarni bajaradilar, ya'ni 86 ni ayirmaga bo'ladilar va ifodaning qiymati kelib chiqqanini ko'radilar.

Bunday ko'rinishdagi misollarni o'quvchilar yetarli darajada bajarganlaridan so'ng ularda grafik ravishda berilgan ifodalarning grafiklarini topa olish malakasi shakllandi. Shundan so'ng biz o'quvchilarga ifodani bermasdan, faqat chizmani beramiz, ular chizma asosida ifodani tuzadilar va hisoblashni bajarib tartibi, ifoda, ifodaning qiymatini topish tushunchalarini

1-chizma o'zlashtirish malakalarini shakllantirish uchun keyingi darslarda darsning mustahkamlash jarayonida biz ifoda bilan 2-chizmani beramiz, va o'quvchilarga mustaqil hisoblashni tavsiya etamiz. Agar biz birinchi bosqichda o'quvchilar bilan yetarli darajada ish olib borgan bo'lsak, u holda o'quvchi 60:3*4 ifodaning qiymatini topishda amallar ketma - ket bajarilishi kerakligini bilib natijani hisoblaydilar. Ba'zi o'quvchilar esa chizmaga murojaat etgan holda birinchi ko'paytirish, keyin bo'lish amalini bajaradi va yuqoridagi ifodaning qiymatini noto'g'ri topadi.

3

4

4


6

4

5

Boshqa bir guruh o'quvchilar darhol mustaqil fikr yuritib o'qituvchidan ifoda noto'g'ri berilganligini yoki chizma asosida hisoblansa, ifodada qavs qolib ketganligini aytadilar. 3, 4, 5, 6-chizmalarda o'quvchilarni chizma asosida ishlab izlanayotgan ifodani tuzadilar va qiymatlarni topadilar.

60



2. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishni zamonaviy tarzda amalga oshirish imkoniyatlari

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi matematika fanidan tuzilgan dasturga binoan o'quvchilarga quyidagi bilimlarni berishni nazarda tutadi:

- Butun nomanfiy sonlarni raqamlash;
- Asosiy miqdorlar va ularning o'lchov birliklari;
- Arifmetik amallar;
- Matnli masalalar;
- Algebraik material (tenglik, tengsizlik va b.q.)
- Geometrik material;

Maktabda matematikani o'qitishni uyushtirishning tarixiy, murakkab, ko'p yillik tajribada tekshirilgan va hozirgi zamonning asosiy talablariga javob beradigan shakli darsdir. Matematikaning eng qadimgi davrlaridan hozirgi

kungacha bo'lgan ko'p asrlilik rivojlanish tarixida uning to'rt rivojlanish davri qayd etiladi:

1. Dastlabki omillarning jamlanishi bilan bog'liq matematikaning paydo bo'lish davri. Bu davrda matematika hali alohida fan tariqasida o'zining predmeti va metodiga ega bo'lmay, balki matematikadan faqat ayrim faktlar to'planadi. Bunga misol qilib qadimgi Misr, Bobil, Xitoy va Hind matematikasini ko'rsatish mumkin.

2. Elementar matematika davri. Bu davrga qadimgi Yunon matematiklari asos soldilar va uni O'rta Osiyodagi O'rta Sharq olimlari jumladan Al-Farg'oniy, Abu Ali Ibn Sino, Umar Xayyom, Ulug'beklar davom ettirdilar.

3. O'zgaruvchan miqdorlar matematikasi davri.

4. Klassik oliy matematika davri. [2]

O'quvchilarning matematik bilimlarni o'zlashtirishi faqat o'quv ishida to'g'ri metod tanlashga bog'liq bo'lmasdan, balki o'quv jarayonini tashkil qilish formasiga ham bog'liqdir. Dars deb dastur bo'yicha belgilangan, aniq jadval asosida, aniq vaqt mobaynida o'qituvchi rahbarligida o'quvchilarning o'zgarish soni bilan tashkil etilgan o'quv ishiga aytiladi.

Dars vaqtida o'quvchilar matematikadan nazariy malumotga, hisoblash malakasiga, masala yechish, har xil o'lchashlarni bajarishga o'rganadilar, ya'ni darsda hamma o'quv ishlari bajariladi.

Matematika darsining o'ziga xos tomonlari, eng avvalo, bu o'quv predmetining xususiyatlaridan kelib chiqadi. Bu xususiyatdan biri shundan iboratki, unda arifmetik material bilan bir vaqtda algebra geometriya elementlari ham o'rganiladi. Matematika boshlang'ich kursining boshqa o'ziga xos tomoni nazariy amaliy masalalarning birgalikda qaralishidir. Shuning uchun har bir darsda yangi bilimlar berilishi bilan unga doir amaliy o'quv malakalar sngdiriladi. Taniqli olim J. Ikromov o'zining "Язык обучения математики" kitobida «Maktab o'quvchilarining matematik madaniyati shakllanishi bir necha davrga bo'linadi», deb ta'kidlaydi. Birinchi navbatda ular ob'yektiv tushunchalarning birgalikda tashkil etadigan mazmuni — *matematik reallikni* aniqlab oladilar. Bunda

ob'yektlarning aniqlik xususiyatlari bilan tarixiy jihatlar o'rtasidagi bog'liqlik alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu yerda *matematik reallik* jumlasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak ushbu reallikni o'quvchilar matematik hisob kitoblarning turmush jarayonidagi ahamiyatini bevosita bilganlarida ya'ni kundalik turmush bilan bog'liq misol va masalalarni bevosita bajarganlaridagina his qiladilar. Demak kundalik turmush bilan bog'liq holda matematika o'qitishni tashkil etish o'quvchi faoliyatida muhim ahamiyatga egadir. *Kundalik turmush bilan bog'liq misollar yechish asosida o'quvchi matematik bilimlar shunchaki o'zlashtiriladigan bilimlar emas balki hayotiy zaruriyat sifatida o'zlashtirilishi lozimligi to'g'risida xulosa qiladilar.*

Odatda darsda bir necha didakik materiallar amalga oshiriladi: yangi materialni utish; o'tilgan materialni mustaxkamlash; bilmilarni mustaxkamlash; bilimlarni umumlashtirish, tizimlashtirish; mustaxkam o'quv va malakalar xosil qilish va xokazo. Matematika darslarining o'ziga xos yana bir tomoni Shundaki, bu-o'quv materialining abstraktligidir. Shuning uchun ko'rgazmali vositalar, o'qitishning faol metodlarini sinchiklab tanlash, o'quvchilarning faolligi, sinf o'quvchilarining o'zlashtirish darajasi, kabilarga ham bog'liq.

Matematika darsida turli tuman tarbyaiviy vazifalar ham hal qilinadi. O'quvchilarda kuzatuvchanlikni, ziyraklikni, atrofga tanqidiy qarashni, ishda tashabbuskorlikni, mas'uliyatni va sof vijdonlilikni, to'g'ri va aniq so'zlashni, hisoblash, o'lchash va yozuvlarda aniqlikni, mehnatsevarlik va qiyinchiliklarni yengish xislatlarini tarbyailaydi.

O'quv ishini tashkil etishning darsdan tashqari quyidagi shakllari mavjud:

1. Mustaqil uy ishlari.

2. O'quvchilar bilan yakka va guruh mashg'ulotlari.

3. Matematikaga qobiliyatli o'quvchilar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlar.

4. Matematikadan sinfdan tashqari mashg'ulotlar.

5. O'quvchilar bilan ishlab shiqarishga, tabiatga ekskursiya.

Bu yerda sanab o'tilgan ish shakllari va dars bir birini to'ldiradi. Asosiy masala darsga taalluqlidir. Darsda hamma ishlarga bevosita o'qituvchi rahbarlik

qiladi. Qo'shimcha mashg'ulotlarda esa ish o'qituvchining o'zi tomonidan yoki o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar tomonidan bajariladi.

Bugungi kunda asoslanishi lozim bo'lgan holat-o'quvchiga pedagogik yordam ko'rsatish va o'quv biluv jarayonida uni pedagogik qo'llab quvvatlashning qulay shakl va imkoniyatlarini izlab topishdan iboratdir. [3]

O'quvchilar bilan har bir darsda bir nechta tushunchalar bilan ish olib boriladi. har bir tushunchani tushunish boshqa bir tushunchani takrorlash, esga olib borish bilan olib borilsa, bu tushuncha esa keyingi tushunchalarni tushuntirish uchun xizmat qiladi. O'qitish jarayonida har bir o'quv materiali rivojlantirilgan holda olib boriladi, bu o'quv materiali o'zidan keyin o'qitiladigan materiallarni tushunish uchun poydevor bo'ladi. Boshqa tushunchaning o'zlashtirilish jarayonini qarasa, u bir nechta darslarning o'zaro bog'liqligi o'qitilishi natijasida hosil bo'ladi. Shunday qilib matematik tushunchalarni hosil qilish birgina darsning o'zida hosil qilinmasdan, balki o'zaro aloqada bo'lgan bir qancha darslarni o'tish jarayonida hosil qilinadi. Bunday darslarni birgalikda darslar tizimi deb ataymiz. Shuning uchun o'qituvchi mavzuning mazmunini ochadigan darslarni mantiqiy ketma ketlikda joylashtirishi kerak. Eng katta talab darsning o'quv tarbiyaviy maqsadini e'tiborga olish, o'qitish tamoyillarining metodik va umumpedagogik tomonlarini hisobga olishdir. Mavzu bo'yicha yaxshi o'ylangan darslar tizimining o'quv vaqtini mavzularga to'g'ri taqsimlashga bog'liq. Unda o'quvchilarning mustaqilligini hosil qilish, xususiy misollarni qarash, xususiy xulosalar chiqarish, undan umumiy xulosalar chiqarishga olib kelish diqqat markazida turishi lozim. Bu bilimlar darslar tizimida hosil qilinib, mustaxkamlangandan keyin misol va masalalar yechishni ta'minlashi kerak. Undan keyin mashqlar yordamida malakalarni qayta ishlashi, shuningdek hosil qilingan bilimlarni doimo bir tizimda keltirish va umumlashtirishni ham ta'minlash kerak.

Dasturning qandaydir mavzusining mazmunini aniqlashda, mavzu materialini dars vaqtlariga taqsimlashda, ya'ni bilimlarni o'zlashtirishga quyidagi asosiy bosqichlar qaraladi:

1. Yangi materialni o'qitishga tayyorlash.

2. Yangi o'quv materialini idrok qilish va yangi bilimlarni hosil qilish.

3. Bilimlarni mustahkamlash va turli xil mashqlar orqali malakalarni hosil qilish.

4. Bilimlarni takrorlash, umumlashtirish va bir tizimga keltirish.

5. Bilim va malakalarni tekshirish.

Matematika o'qitish jarayonida o'quvchilarning faolligini oshirish va matematikaga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish omillaridan biri o'quvchilar bilan olib boriladigan mustaqil ishlardir.

Matematika darslarida mustaqil ishlar yangi materialni o'rganishga tayyorgarlik ko'rishda, yangi tushunchalar bilan tanishishda, bilim, uquv va malakalarni mustahkamlashda, shuningdek bilimlarni nazorat qilishda amalga oshiriladi.

O'qitishni tashkil qilish.

O'qitish shakli- bu o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatlarini uni turli sharoitlarda (sinfda, ishlab shiqarishda va h.k.) o'tkazilishiga muvofiq ravishda o'qituvchi tomonidan tarbiyaviy o'qitish jarayonida foydalaniladigan qilib tashkil etilishidir.

Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning tashkiliy shakllari dars, uy vazifalarini mustaqil bajarish, o'quvchilarning yakka tartibda guruh va jamoa bo'lib ishlashlari, ekskursiyalar, sinfdan tashqari ishlardan iborat.

O'quv dasturi DTS asosida tasdiqlangan davlat hujjati bo'lib, uning bajarilishi majburiydir. Boshlang'ich sinflar tabiiy matematik ta'lim davlat standartlari talablarining o'quvchilar tomonidan bajarilishi ularning zarur bilimlar, malaka va ko'nikmalarini egallashlariga, bilim olishga ijobiy munosabatda bo'lishlarining shakllanishiga yordam beradi:

a) o'quvchilarni tevarak atrofdagi tabiiy muhitga moslashtirish, yangi ijtimoiy maqomdagi o'quvchini shakllantirish;

b) faoliyatning har xil turlarini: o'quv, mehnat, muloqotni egallash;

v) o'z-o'zini nazorat qilish hamda baholash reytingini aniqlashga o'rgatish;

g)muayyan umumiy tabiiy-ilmiy iqtidorning belgilangan darajasi va uning keyingi taraqqiyoti tavsifi.

Shunday qilib, boshlang'ich sinflar tabiiy matematik ta'lim davlat standartining o'quv-biluv jarayoniga joriy etilishi o'quv fanlariga doir tabiiy-ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarnigina emas, balki shaxsning muayyan asosiy faoliyati majmuasi mehnat, o'quv-biluv, kommunikativ-axloqiy va jismoniy tuzilishiga mos keladigan fazilatlarning shakllanishini ham ta'minlaydi.

Kundan kunga ma'lumot oshib borayotgan bilan tushunarli bo'ladiki bugungi o'quvchilarga kerak bo'ladigan narsalarni hammasini o'rgatib bo'lmaydi. O'zlashtirilgan ma'lumot juda tez eskirib qolmoqda, chunki har kuni yangi ma'lumotlar chiqmoqda. Fanda o'qitish nazariyasi ushbu fanni o'qitish bo'yicha metodik tizimlarning faoliyat qonunini ochib beradi. Metodika ularni tadbqiqini, texnologiya esa ushbu modelni amalga oshirish usullarini ishlab chiqadi.

Tushuntirish quyidagi usullarda tahlil qilinib olib boriladi:

1)dogmatik usul.

2)evristik usul;

3) tadqiqot usuli (muammoli usul);

Birgalikda ishlash bilish faoliyatining faollashuviga yordam beradi, o'quvchilarda o'zaro nazorat qilish va o'zaro yordam berish sifatlarini shakllantiradi, tarbiyaviy vazifani ado etadi.

Tarbiyaviy vazifalarning hal etilishida darsning ayrim tarbiyaviy o'rinlari emas, balki butun o'quv jarayoni ta'lim mazmuni, o'quv ishi usullari, darsni puxta tashkil etilishi yordam berishini unutmastik kerak.

“Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi ...) ortiqcha” metodi. O'quvchilar mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishlarida ushbu inetod alohida ahamiyatga ega. Uni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- O'rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish;

- hosil bo'lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo'lgan to'rtta (beshta, oltita, ...) va taalluqli bo'lmagan bitta tushunchaning o'rin olishiga erishish;

• o'quvchilarga mavzuga taalluqli bo'lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;

• o'quvchilarni o'z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o'quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o'tishlari hamda ular o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni asoslashlarini talab etish lozim).

Mazkur metod o'quvchilardan o'rganilayotgan mavzu (yoki bo'lim, bob) yuzasidan tahliliy mulohaza yuritish, shuningdek, eng muhim tayanch tushunchalarni ifodalay olishni talab etadi.

Metodni qo'llashda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

• o'qituvchi o'zaro teng nisbatda mavzuga (bo'lim, bob) oid va oid bo'lmagan asosiy tushunchalar tizimini yaratadi;

• o'quvchilar mavzuga (bo'lim, bob) oid va oid bo'lmagan asosiy tushunchalarni aniqlaydilar va daxldor bo'lmagan asosiy tushunchalarni tizimdan chiqaradilar;

• o'quvchilar o'z harakatlarining mohiyatini izohlaydilar.

Metoddan individual, guruhli va ommaviy shaklda o'quvchilar tomonidan mavzuning puxta o'zlashtirilishini ta'minlash hamda ularning bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanish mumkin.

1-sinf darsligidagi «Oshxona jihozlari», «Qushlar», «Uy hayvonlari va parrandalar» kabi mavzularini o'rganishda yangi mavzuni mustahkamlash uchun mazkur metodni qo'llash ijobiy natija beradi. Bunda mavzuga oid to'rtta va taalluqli bo'lmagan (ortiqcha) bitta so'z (tushuncha, fikr) beriladi.

O'quvchilar ana shu so'zni (tushuncha, fikr) aniqlaydilar.

Masalan, 1-sinf darsligidagi 1-mashqda berilgan topshiriqni bajarishda quyidagicha qo'llash mumkin. Yozuv ekranda ko'rsatiladi. O'quvchilar ortiqcha so'zni aniqlashadi.

Uy hayvonlari: sigir, qo'y, toshbaqa, ot, it.

So'ng bu so'zlar ishtirokida gap tuzish topshirig'i beriladi va tuzilgan gaplar asosida axloqiy tarbiya beriladi.

Namuna: *Ot - insonning eng ishonchli do'sti.*

O'quvchilar tomonidan tuzilgan gaplar asosida o'quvchilar qalbida ona tabiatga muhabbat uyg'otiladi, uy hayvonlariga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishga o'rgatiladi.

«Videotopishmoq» metodi. Hozirgi kunda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari (kompyuter, televideniye, radio, nusxa ko'chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar) yordamida ta'lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'qituvchilar oldida ta'lim jarayonida turli axborot vositalaridan o'rinli va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi.

Videotopishmoq metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- o'quvchilar e'tiboriga o'rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish etiladi;
- o'quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganini izohlashadi;
- jarayonlarning mohiyatini daftarlariga qayd etishadi;
- o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytarishadi.

Mazkur metod asosida mavzuga doir kompyuter orqali videolavha namoyish etiladi. O'quvchilar videolavha mavzusi, unda ifodalangan mavzu haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi.

Masalan, «Elektr jihozlari» (1-sinf), «Yil fasllari» (2-sinf) kabilar asosida o'quvchilarga milliy an'analarimiz, urf-odatlarimiz, iqtisodiy munosabatlar haqida tushunchalar beriladi.

3-§. Matematika va tabiiy fanlar darslarini tashkil etishga ilmiy-metodik yondashuv

Reja:

1. Kompetensiyaviy yondashuv asosida matematika va tabiiy fanlarni darslarini tashkil etish.

2. Aniq va tabiiy fan darslariga ilmiy yondashuv. O'quvchilarda kompetensiyani shakllantirishda boshlang'ich sinf o'qituvchisining roli.

3.O'quvchilarni faollik darajasiga ko'ra farqlanuvchi metodlar. Mustaqil ishlarni tashkil etish. I-IV va V-VI sinflarda matematika va tabiiy fanlarni o'qitish borsidagi izchillik

Mashg'ulot maqsadi: Har bir pedagogning bosh maqsadi - pedagogik mahorati bilan o'z individualligini yorqin namoyon etish, interfaol ta'lim vositasida mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirish, uning sifatida oldindan o'quvchilarni ta'lim-tarbiya samaradorligini ko'ra bilish.

Interfaol ta'lim vositasida o'quvchilarda mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirish. Bir qator tadqiqotchilar fikricha o'quv adabiyotlari tanqidiy mulohaza yuritishga imkoniyat yaratuvchi vosita bo'lishi kerak. Har bir fan ma'ruzalari muammoli tarzda bo'lishi bilan tanqidiy asosda o'qitilishi, o'quvchilarda o'rganishga, shuningdek tanqidiy fikr yuritilgan o'quv adabiyotlarga nisbatan qiziqishini orttiradi, ular qator fikrlar asosida o'z fikrini mustahkamlashga harakat qiladi, ma'ruza o'qigan pedagog bilan muloqot qilish uchun intiladilar, o'z fikr-mulohazalarni ifoda qilish yo'llarini topadilar. Demak, o'quvchi o'z bilimini tanqidiy fikrlar asosida oshirib boradi va har qanday holatda ham fikr-mulohaza yuritish qobiliyatini namoyon etadi.

Darsliklarda berilgan matn, mashq va masalalarni illyustrativ materiallar, jadvallarni tanlashda o'quv-biluv faoliyatini boshqarish, ya'ni dars jarayoniga rahbarlik qilish, darslik materiallari vositasida o'quv-chilarning bilim, ko'nikma, malakalari, egallagan shaxsiy sifatlarini na-zorat qilish mexanizmini ishlab chiqish lozim.

Xorijiy tadqiqotchilar fikricha, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, maqsadga intilish, individual va guruh ishleri, hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va kollejdandan tashqari ta'lim olish imkoniyatlarini ham yaratish, kasb-hunar ta'limi muassasalarining asosiy vazifasi bo'lishi kerak.

Frantsuz olimi K. Allegr ta'kidlaganidek, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, maqsadga intilish, ularning individual va guruh ishlarini, hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ham kasb-hunar o'quv yurtlarining asosiy vazifasidir.

Psixologlarning tadqiqotlari tahlili shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarda bilimlarini shakllantirish o'qituvchi rahbarligida, maqsadli tashkil qilingan faoliyat jarayonida samarali rivojlanadi va bu pedagogik jarayonda o'z aksini topadi.

Faqtgina samarali tashkil etilgan ta'lim jarayonida o'quvchida o'quv muammosini mustaqil hal qilish ko'nikmasini rivojlantirish va o'rganilayotgan bilimlar yuzasidan kelib chiqqan muammolarni ijodiy yechish imkoniyatini yaratadi.

Shuning uchun ham biz bugungi kunda zamonaviy ta'limning vazifasi, maqsadi, o'rni va rolini yaqqol tasavvur qila olishimiz kerak.

Biz hozirgi vaqtda qo'llanilayotgan o'quv-tarbiya jarayonida va pedagogik adabiyotlar va tadqiqot ishlarida, "mustaqil ta'lim", "mustaqil ish" tushunchalarining mohiyatini yoritishga harakat qildik. Ba'zan mustaqil holda o'qish va mustaqil ta'lim tushunchalari adashtiriladi. Mustaqil holda o'qish rasmiy o'quv jarayonidan tashqarida kechishi mumkin, ya'ni muayyan ta'lim muassasiga bormay turib, uyda o'zi o'quv materiallari asosida mustaqil, individual holda o'qishi va o'rganishi mumkin.

N.Muslimovning fikricha mustaqil ta'lim - bilimlarni o'zlashtirish tasavvurlarini rivojlantirish tushunchalari, ko'nikma va malakalarni hosil qilish bo'yicha o'quv jarayonining subyektiv maqsadiga muvofiq muntazam, mustaqil hamda avtonom faoliyatni tashkil etish demakdir.

Mustaqil ta'lim - belgilangan o'quv topshiriqlarini tahsil oluvchilarning mustaqil va ijodiy bajarishlari asosida o'tadigan o'quv faoliyatidir. Mustaqil ta'lim negizini mustaqil ishlar tashkil etadi.

Biz mustaqil ta'limni pedagogik tamoyillarga asoslanib tashkil etish kerak, deb o'ylaymiz. Masalan, o'quvchilarning ongliligi va faolligi tamoyili o'qitishni shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, bunda o'quvchilar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash metodlarini ongli va faol egallab oladigan, ularda ijodiy tashabbuskorlik, o'quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, nutq rivojlanadigan bo'lsin.

Masalan: Mustaqil bilim olish va o'rganishda o'quvchilar harakati guruhdagi o'quvchilar quyidagi tartibda bo'lishi mumkin:

5. O'quvchilar kichik guruhlariga bo'linadi (odatda 3-4 ta)

6. Har bir kichik guruh o'tilgan mavzular bo'yicha bir nechta savol (yoki topshiriq)lar tuzadilar.

7. So'ngra guruhlar o'zaro savollar bilan almashadilar.

8. Guruhlar "raqib" guruh tuzgan savollarga javob beradilar va eng ko'p savolga to'g'ri javob bergan guruh muvaffaqiyat qozongan deb hisoblanadi.

Demak, kasb-hunar kollejarida o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarni samarali tashkil etish o'quv jarayonining muhim omillaridan biri bo'lib hisoblanadi. Mustaqil va ijodiy ishlash jarayonida o'quvchida mustaqil fikrlash qobiliyatining rivojlanishi natijasida, o'quvchida jarayonlar va hodisalar, obyektlar haqida bilimlarni tizimlashtirish ularni chuqur o'rganish hamda tegishli qarorlar qabul qilish, nazariy bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmalari shakllanadi.

Nazariy va amaliy mashg'ulotlar. Nazariy dars, tajriba va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish davomida o'qitish jarayonining ko'zda tutilgan ketma-ketligini saqlab qolish hamda rejalashtirilgan o'quv maqsadlariga erishishni ta'minlash lozim.

O'qituvchi tomonidan o'quvchilarning mustaqil va ijodiy faoliyatlarini rivojlantirish uchun mashg'ulotlarning dars ishlanmasi hamda texnologik xaritasi ishlab chiqilishi kerak. Har bir mashg'ulot bo'yicha dars ishlanmalari va texnologik xaritalarni ishlab chiqish o'quv jarayonini to'laqonli loyihalashtirish hamda samarali tashkil etish imkonini beradi.

Mustaqil ish. O'quvchilarining mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini shakllantirish hamda rivojlantirishda mustaqil ishlar-ning ahamiyati juda katta.

Mustaqil ishlar o'quvchining umumiy rivojlanishiga va kasbiy mahoratini o'stirishga xizmat qilishi kerak. SHuningdek o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlarini tashkil qilish tarbiyaviy, ta'limiy ahamiyatga ham ega bo'lishi kerak. Tarbiyaviylik ahamiyati shundaki o'quvchi o'z bilimini oshirish va mustahkamlash uchun o'zini-o'zini tarbiyalab boradi. Ta'limiy ahamiyati esa o'quvchi bo'sh vaqtdan samarali foydalangan holda mustaqil bilim olish jarayonining shakllanishiga olib keladi.

O'quvchilarning mustaqil ishlarini samarali tashkil etish va boshqarish o'quv jarayonining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Mustaqil va ijodiy ishlarning turlari, shakllarini tanlashda “oddiydan-murakkabga” hamda “umumiydan-xususiyga”, “mavhumdananiqlikka” tamoyillariga amal qilish lozim. Mustaqil va ijodiy ish topshiriqlarini ishlab chiqishda har bir o‘quvchining shaxsiy imkoniyatlari, tushunuvchanlik, o‘quv materialini o‘zlashtirish darajasi inobatga olinishi, shaxsga yo‘nal-tirilgan o‘qitish texnologiyalarini qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning ijodiy ishlashiga ahamiyat berish kerak. O‘qituvchi o‘quvchi bajaradigan mustaqil ishlarni hajmini aniqlab, bajarish uchun ularga aqliy mehnat qilish yo‘llarini o‘rgatadi hamda ishni bajarish jarayonida kelib chiqadigan kamchiliklar va xatoliklar bo‘yicha ko‘rsatmalar beradi.

Mashg‘ulotlarni tashkil etish shakllari. O‘quvchilarning mustaqil izlanuvchanlik faoliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar kichik guruhlarda hamda individual shaklda olib borilishi lozim. Individual shakl asosan ijodiy topshiriqlarni bajarishga yo‘naltiriladi. Har bir o‘quvchi o‘zining individual (jismoniy, psixik va b.) xususiyatlariga egaki, bu uning o‘quv faoliyatiga katta ta’sir etadi. Pedagogning bu xususiyatlarni o‘rganishi va inobatga olishi o‘qitish sifatini oshirish hamda har bir o‘quvchining ijodiy qobiliyat-larini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi.

Pedagog o‘quvchilarning darslardagi va tajriba mashg‘ulotlari vaqtida dars jarayonidagi ishini, mustaqil ish va topshiriqlarini bajarishini kuzatadi, ularning bilimi, nazorat ishlarini tekshiradi, maslahatlarda, darsdan tashqari vaqtlarda ular bilan ishlaydi. O‘quvchining kuchli va ojiz tomonini bilib olishga, uning qiziqishlari, tafakkuri, nutqi, xotirasi, diqqati, xayoliga xos bo‘lgan xususiyatlarni o‘rganishga, uning xarakteri hamda irodaviy sifatlarini yaxshi bilib olishga harakat qiladi, ularning hayotiy va mehnat tajribalarini, muassasaga kelishdan oldingi faoliyati xususiyatlarini o‘rganadi.

Kichik guruhlarda ishlash maxsus bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalar o‘rganilishi kerak bo‘lganda, shuningdek o‘quvchilarda mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qo‘llaniladi. Bir nechta o‘quvchilar birgalikda ishlagan paytda, ularning shaxsiy xususiyatlari va xarakterlari orasida o‘zaro hamkorlik vujudga keladi.

Guruhli bo‘lib ishlashda ikkita holat farqlanadi:

- bir xil mavzuda olib boriladigan guruh ishi;

- har xil mavzuda olib boriladigan guruh ishi

Bir xil mavzuda olib boriladigan guruh ishida bir necha guruhlariga bir xil topshiriqlar beriladi. Topshiriq va mashqlarni yechish sharoitlari ham bir xil bo'ladi. Shunday qilib har xil yechimlar guruh ishi tugaganidan so'ng bir-biri bilan taqqoslanishi mumkin. Ko'pincha bunday hollarda raqobat holati yuzaga keladi. Yechim topilishi vaqtida esa raqiblikka o'xshash holatlar vujudga keladi. Bu yerda muhim narsa shuki, guruhlardagi o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari imkon qadar bir xil bo'lishi kerak.

Har xil mavzuda olib boriladigan guruh ishida beriladigan ish topshirig'i bir necha qismlarga bo'linadi. Faqat bu qismlar birlashtirilgandagina topshiriqning mazmuni aniq ko'rinadi.

Har bir guruh bu holda qisman topshiriq oladi va mustaqil ravishda uning ustida ishlaydi.

Bunday yondashuvda bir guruh o'quvchilari faqat o'zlariga berilgan topshiriqlarni bilishadi xolos; ya'ni boshqa guruhlar ishlari haqida deyarli xabarlari bo'lmaydi. Shuning uchun ham natijalar qisman birlashtirilishi zarur.

Kichik guruhlarda ishlashda berilgan topshiriqlar puxtalik bilan o'ylab chiqilgan bo'lishi kerak, chunki ularda o'quvchilar orasida muloqot va hamkorlik qobiliyatini rivojlantirish kabi maqsadlar bor.

3) "Reja o'yini" shaklidagi guruhiy ish:

"Reja o'yinlari" belgilangan vaziyatda turli xil yechimlarni sinab ko'rish imkonini beradi. O'quvchilar bunda muammoga bo'lgan har xil ta'sirlar natijaga qanday ta'sir qilishini o'rganadi. Buning uchun sabab va oqibat bir-biri bilan bog'liq ravishda ko'rilishi kerak. O'quvchilar o'yin jarayonida o'zaro raqobat munosabatida bo'ladilar.

4) Loyiha shaklidagi guruhiy ish:

Loyihaviy ish bir loyihani aniq belgilangan chegara doirasida ishlab chiqishni talab qiladi. Loyiha shaklidagi guruhiy ish juda ham katta ahamiyatga ega, chunki bunda vazifalar topshiriqlar majmuasi bo'yicha aniq taqsimlanishi kerak bo'ladi.

O'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini rivojlantirishda elektron ta'lim resurslaridan maksimal foydalanish muhim ahamiyatga ega. O'quv

va didaktik materiallarga qo'shimcha tarzda tasviriy-vizual vositalar (fotosuratlar, rasmlar, chizmalar, grafiklar) ham kiradi. Ular umumiy va keng qamrovli tasavvurlarni vujudga keltirishni osonlashtiradi. SHuningdek, tasviriy tasavvurlarni shakllantiradigan audio-vizual vositalar texnologik jarayonlar va funksiyalar to'g'risidagi keng qamrovli real tasavvurlarni vujudga keltiradi.

Predmet vositalari tasvir va matnlarni yozib olish, saqlash imkonini beradi. Ularga doska, flipchart, kodoskop (proektor) kamera va kompyuterlar kiradi.

Tajriba ishi sohasiga tegishli kerakli tajriba uskunolari, namunalar, jihozlar va asboblarni nazariy dars yoki amaliy mashg'ulot paytida didaktik funksiyaga ega bo'lsa, o'quv vositasi sifatida qo'llanilishi mumkin.

Ushbu vositalardan foydalanishda ularni muayyan maqsad soha va usullarga mos holda tanlash muhim o'rin tutadi. O'qituvchi o'quv va ko'rsatmali vositalarni ishlata olishni, ulardan maqsadga muvofiq va oqilona tarzda foydalanishni bilishi kerak. Texnik vositalardan foydalanilayotganda yuzaga keladigan texnik muammolarni mustaqil hal qila olishi kerak.

O'quv materiallari bir paytning o'zida didaktik materiallar sifatida, ya'ni o'qitish va o'rganish uchun ishlatiladi. Agar o'quv va didaktik materiallar yetarli bo'lmasa, u holda o'qituvchi tomonidan ularning tanlanishi hamda nazariy yoki amaliy mashg'ulotlar maqsadiga moslashtirib tayyorlanishi kerak.

O'qitish jarayonida o'quvchilarni faollashtirish - shuni nazarda tutadiki, bunda o'quvchilar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash usullarini ongli va faol egallab oladigan, ularda ijodiy tashabbuskorlik, o'quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, nutq rivojlanadi.

O'quvchilarning faolligi ularning o'quv materialni egallab olishida o'quv, tajriba xonasi sharoitlarida topshiriqlarni bajarishdagi harakatlarida namoyon bo'ladi. Faollilik o'quvchilarning o'quv va mehnat faoliyatidagi mustaqilligini rivojlantirish bilan mustahkam bog'langan.

Faol usullarini tanlash birinchidan, darsdan ko'zda tutilgan o'quv maqsadlariga bog'liq. Masalan, agar darsning maqsadi yangi bilimlarni egallashdan iborat bo'lsa, o'qituvchi bu bilimlarni o'zi bayon qiladi yoki o'quvchilarning o'quv adabiyotlari va boshqa materiallar bilan mustaqil ishlashini tashkil qiladi.

Ikkinchidan, ta'lim usullarini tanlash o'rganiladigan fanning mazmuni va darsning aniq o'quv materialiga bog'liq bo'ladi. Bir mashg'ulotning o'zida bir nechta faol usullar qo'llanilishi mumkin.

Uchinchidan, o'quvchilarning ilgari tayyorgarlik darajasiga va shaxsiy tajribasiga bog'liq. Agar yangi o'quv materiali o'quvchilarga butunlay notanish bo'lsa, o'qituvchi buni o'zi bayon qiladi, buni didaktik vositalar va tajribalarni ko'rsatish bilan qo'shib olib boradi.

Ta'lim oluvchilarning bilim olish, mustaqil ishlash va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning ongli faolligi, mustaqilligi hamda ijodkorligini, o'quv bilish faoliyati natijasining sifatini xarakterlaydi.

Faollik-ta'lim sharoitida o'zlashtirilgan nazariy bilim va amaliy ishharakat usullarini turli ishlab chiqarish vaziyatlarida qo'llanishga imkon beradi.

O'qitish jarayoni. O'quvchilarning mustaqil izlanuvchanlik qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar dars ishlanmalari hamda texnologik xaritalari asosida o'qitish jarayoni tashkil etiladi. Mashg'ulotlar asosini mustaqil va ijodiy ish topshiriqlarini bajarish tashkil etadi. Har bir mashg'ulot o'quv maqsadiga to'la erishish uchun qo'shimcha mashg'ulotlar ham o'tkazilishi mumkin.

O'quvchilarga mustaqil bilish, fikrlash va ijodiy izlanishga majbur qiladigan, muammoli hayotiy dalillarga asoslanadigan vaziyatli topshiriqlarni berish maqsadga muvofiqdir. O'quvchi topshiriqlarni ijodiy fikrlash va mustaqil ishlash orqali bajarishlari lozim.

O'qituvchilar mustaqil va ijodiy ish topshiriqlarini bajarish bo'yicha o'quvchilarning intilishlarini olqishlashi hamda to'g'ri yo'naltira olishlari lozim. O'quvchi yakka xolda samaraliroq ishlaydimi; yoki bir necha kishidan iborat guruh bilan birgalikda ishlashni yoqtiradimi; yoki unga elek-tron darsliklardan foydalanish qulayroqmi buni o'qituvchi yaxshi bilishi kerak.

O'quvchi topshiriqni o'zi anglashi va uni bajarishga harakat qilishi, o'qituvchi esa, o'z navbatida, o'quvchilarning mustaqil izlanish olib borish ko'nikmalarini, o'tilgan materiallarni yanada chuqurroq o'zlashtirish uchun qo'shimcha ma'lumotlarni izlab topish qobiliyatlarini rivojlantirishga undashlari lozim.

Savollar yoki topshiriqlar orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlashlarni rivojlantirish, noma'lum yoki noaniq ma'lumotlar mohiyatini tushunish uchun mustaqil izlanishlarini vujudga keltiradi. Biz tomondan olib borilgan pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'quvchining ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish, uning mustaqil bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirishda mustaqil ish ijobiy ta'sir ko'rsatar ekan. Lekin, auditoriyadan tashqari mustaqil ishni tashkil qilish birmuncha murakkab jarayon. CHunki bu jarayonda o'quvchi mustaqil tarzda fanlar bo'yicha berilgan topshiriqlarni o'quv-uslubiy adabiyotlaridan foydalangan holda bajarishlari kerak.

O'quvchilar tomonidan o'quv materiallari o'zlashtirilganligini, ko'nikma va malakalar hosil bo'lganligini tekshirish hamda baholash ta'lim jarayonining zaruriy tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu faqat o'qitish natijalarini baholash emas, balki o'qitish jarayoni davrida o'quvchilar bilim olish va mustaqil ish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir.

Bilim va ko'nikmalarni tekshirish hamda baholashning ta'limiy ahamiyati shundan iboratki, bunda o'quv materialining o'zlashtirilishi to'g'risida o'quvchi va o'qituvchi muayyan ma'lumotga ega bo'ladi. O'qituvchiga o'quvchilarning qaysi o'quv materialini yaxshi o'zlashtirilganu, qaysi ish yetarli darajada o'zlashtirilmaganligi ma'lum bo'ladi. Bu esa o'quvchining o'rganish faoliyatini tashkil etish va boshqarish uchun asos bo'lib hisoblanadi. Baholash orqali o'quvchilarning o'quv materiallarini bilish, tushunish, xotirada saqlab qolish, amalda qo'llay olish, tahlil qilish va o'zo'zini baholash darajalari aniqlanadi.

Bilimlarni, ko'nikma va malakalarni baholashning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bunda o'quvchilarning o'qishga qiziqishi, o'z yutuqlari yoki muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabati shakllanadi, o'quv qiyinchiliklarni yengish ishtiyoqi tug'iladi.

Natijalarni baholash orqali butun ta'lim jarayoni tekshirilib ko'rilishi kerak. Bu bilan ta'lim jarayonida kutilayotgan o'quv maqsadiga erishilayotganlik darajasi tekshiriladi. Ta'lim berish davomidagi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni baholash o'quvchining o'zligini anglashi uchun bir imkoniyatdir.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini ham inobatga olib baholashda quyidagilarni e'tiborga olish muhimdir:

- o'quv maqsadlariga erishilganlikni aniqlash;
- ta'lim jarayonidagi yutuq va kamchiliklarni aniqlash; - o'qituvchi o'z faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etish; - joriy va oraliq o'zlashtirish darajasini aniqlash;
- baholash natijalari bo'yicha ota-onalarga ma'lumot berish; - dastlabki bilim va ko'nikmalar ta'lim natijasini baholash; - o'quvchilarning qiziqishlarini aniqlash uchun.

Baholashni quyidagi uch bosqichda o'tkazish tavsiya etiladi:

Boshlang'ich baholash ta'lim jarayoni boshida o'quvchilarning dastlabki bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun o'tkaziladi. Bunday baholash natijalari orqali maxsus fanni o'qitish jarayonining mazmuni, metodlari va shakllarini tanlash imkoniyati yaratiladi.

Joriy (shakllantiruvchi) baholash muntazam ravishda o'tkazib borilishi lozim. U ta'lim jarayonidagi yutuq va kamchiliklarni, samarasini tezkor aniqlab borish, o'quv jarayonini muvofiqlashtirish hamda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi qaytar aloqani ta'minlash imkonini beradi.

Oraliq baholash maxsus fan asosiy bo'limlari yoki modullari bo'yicha mashg'ulotlar o'tib bo'lingandan keyin o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini o'zlashtirganliklari baholanadi. Bu bilan o'quvchining bo'lim yoki model bo'yicha o'quv materialini qanchalik darajada o'zlashtirganligi haqida ma'lumotga ega bo'linadi. Lozim bo'lsa o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar bilan qo'shimcha mashg'ulotlar olib boriladi.

Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy shakllantirish. "Kompetentsiya" atamasi keng ma'noda umumiy masalalarni hal etishda amaliy tajribalar asosida bilim va malakalarni qo'llash, muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyatini bildiradi. Lotincha "campetere"- muvofiq bo'lmoq so'zidan kelib chiqqan.

Hozirgi kunda "kompetentsiya" atamasi turli sohalarida qo'llaniladi: huquqshunoslik, tilshunoslik, madaniyat sohalarida, shuningdek tashkilot,

muassasa yoki kompaniyaning muhim kompetentsiyalari. Lekin xodimlarni boshqarish nuqtai nazaridan “kompetentsiya” atamasi qiziqtiradi, shuning uchun xodimlarning kasbiy kompetentsiyasi haqida fikr yuritamiz.

Amerikalik psixolog va inson motivatsiyasi tadqiqotchisi Devid Makliland tashkilot, muassasa yoki kompaniyaga kompetentli yondashuvning boshlanishida shuni ta’kidlaydiki, “Inson shaxsi o’rganilayotganda nomzod yoki xodim o’zining kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyatlari haqida to’g’ri javob bermaydi, chunki odam doimo o’zining meniga yuqori baho beradi, shuning uchun kompetentli yondashuv tashkilot, muassasa yoki kompaniya administratsiyasi tomonidan qonun doirasida ishlab chiqilishi kerak

Xodimlar bilan ishlashda kompetentli yondashuv xodimlarni tanlash, baholash, o’qitish va rivojlantirishga qaratilgan. Bunda aniq xodimning tegishli kasbiy kompetentsiyaga ega ekanligi va darajasi aniqlanadi.

“Kasbiy kompetentsiya” atamasi shunday izohlanadi: “bu xodimning lavozim talablariga muvofiq ishlash qobiliyatidir”: Kasbiy kompetentsiyalar shaxsiy tavsiflar kabi bayon etilishi mumkin, masalan, “stressga chidamli”, 27 “komanda ishiga layoqatlilik”, “kreativlik” kompetentsiyalari, xuddi shunday egallagan malakalari kabi ko’rsatilishi ham mumkin, masalan: “muzokara olib borish”, “biznes-reja tuzish” kompetentsiyalari.

Lavozim kompetentsiyasi ro’yxatini shakllantirishda quyidagi ikkita qoidani yodda tutish lozim:

- fe’l-atvori (bevosita ko’rish mumkin bo’lgan);
- aniq jihatlari (kompetentsiya darajasini aniqlashdagi asos) Kasbiy kompetentsiya namunalariidan bir nechasini keltiramiz:

“Ishontira olish” kompetentsiyasi. Aniqlash: Boshqalarga ta’sir ko’rsatib, ularni o’z qaror va harakatlariga ko’ndirish.

“Tashabbuskorlik” kompetentsiyasi. Aniqlash: harakatni boshlab berish va shaxsiy ijobiy jihatlari bilan voqeaga samarali ta’sir ko’rsata olish. Doimo izlanishda bo’lish, yangi vazifalarni, qo’shimcha ishlarni o’z zimmasiga olish

Odatda har bir lavozim uchun 5-10 ta asosiy kasbiy kompetentsiya belgilanadi. Ular bayon etiladi. Bunday holatlarda rahbar tomonidan test savollari shakllantirilsa maqsad muvofiq bo’ladi. Berilayotgan test savollarining har biri

ma'lum kompetensiyaga moslashtiriladi. Test hodimlarning ushbu kompetensiyalarni qanchalik egallanganliklarini ko'rsatadi. Test natijalariga ko'ra xodimlarning kompetensiyani egallash darajalari aniqlanadi, masalan:

Kompetentli yondashuv quyidagilarni amalga oshirish imkonini beradi:

- xodimlarning egallagan lavozimiga munosibligini baholash;
- ishga qabul qilishda yangi loyihani amalga oshirishda hodimlarni tanlash, vakant lavozimga nomzodni tanlash;
- hodimlarni ma'lum vaqtda attestatsiyadan o'tkazish, kamchilik aniqlanganda qo'shimcha o'qitish.

Bundan tashqari, baholash omili sifatida kompetensiya bilan ishlash, ishxonaning hamma uchun yagona tasdiqlangan standartlari asosida xodimlarning real tavsifnomalarini va malakalarini baholash imkonini beradi. Xodimning ish tajribasini baholash, shuningdek og'zaki suhbat o'tkazish ko'pincha bir tomonlama amalga oshiriladi va har doim to'g'ri bo'lavermaydi. Talab etiladigan kompetensiyalarning mavjudligiga o'tkaziladigan test quyidagi savollarga to'liq javob bera olishi lozim bo'ladi, masalan: "Xodim tashkilot, muassasa yoki kompaniyamizdagi vazifalarni biz talab qiladigan darajada bajara oladimi?" "Unda yetarli tajriba, zaruriy tayyorgarlik, alohida malaka va shu kabilar bormi?"

Umuman olganda kompetentli yondashuv - bu tashkilot, muassasa yoki kompaniyaning rivojlanishi va gullab-yashnashi uchun asosiy omildir. Ish jarayonini yuqorida keltirilgan tartibda tashkil etilsa, biz jamiyat rivojlanishiga o'zimizning munosib darajada hissamizni qo'shishimiz mumkin.

Nazorat savollari:

1. Interfaol ta'lim vositasida mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirish va kompetentli yondashuv omillari.
6. Interfaol ta'lim vositasida o'quvchilarda mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirish xususiyatlari.
7. Kompetentli yondashuv asosida o'quvchini kasbga yo'naltirish omillarini bilasizmi.
8. Zamonaviy metodlar yoki interfaol usullarni o'qitishning samarasini oshirishga nimalar yordam beradi.
9. An'anaviy va noan'anaviy o'qitish usulini farqini izohlab bering.

4-§. Boshlang'ich sinflarda matematik va tabiiy fan tushunchalarini shakllantirishning interaktiv metodlari

Reja:

1. Boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuvlar.
2. Aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda ta'lim berish yo'llarini ishlab chiqishda innovatsion yondashuvlar.
3. Faol va interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish usullari.

Ta'limga zamonaviy yondashuvlar. Zamonaviy ta'limning eng muhim unsurlari qadimdan shakllanib kelgan. Ta'lim maqsadi, mazmuni, shakli, uslub va vositalari ta'lim jarayonlari mazmunini tahlil qilish uchun qo'llaniladigan an'anaviy kategoriyalar bo'lib hisoblanadi. Aynan shu kategoriyalar ma'lum predmet, mutaxassislik yoki ixtisoslik bo'yicha o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qiluvchi pedagog faoliyatining predmeti sifatida yuzaga chiqadi.

Qayd etilgan pedagogik kategoriyalarni maqsadga muvofiq ravishda yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning qonuniyat va mezonlarini tizimlashtiruvchi omil vazifasini bajaradi. Zamonaviy o'qituvchi dars jarayonida «aktyor» emas, aksincha «rejissyor» bo'lishi kerakligini anglashi lozim. Buning uchun esa u bir necha yangicha ta'lim usullarini yaxshi bilishi kerak. SHu yerda birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning «Biz o'g'ilqizlarimizni o'zlarini anglashga, mustaqil, ongli fikrlashga, ularning tafakkurida bo'shliq vujudga kelishigi yo'l qo'ymasligimiz lozim» degan so'zlarini misol qilib keltirgan holda maktab o'quvchisi, kasb-hunar kollejlari, akademik litsey talabalarining nutq boyligini oshirishimiz, badiiy va ilmiy adabiyotlarga qiziqishini rivojlantirishimiz, ularning dunyoviy va diniy ilmlardan qay darajada xabardorligini aniqlashimiz kerak bo'ladi.

Pedagogika – bu lotincha so'zdan olingan bo'lib, “payne” bola, “agogeyn” – yetaklamoq degan ma'noni bildiradi. topgan. Ped texnologiya bu Oldindan loyhalangan ma'lum bir pedagogik tizimni amliyotga joriy qilish. -Pedagogik tizim bu shaxsga maqsadli pedagogik ta'sir ko'rsatish uchun zarur bo'lgan metodlar,

vositalar va jarayonlar yig'indisi. Maqsadimiz o'quvchilarni oldindan bilimini mukammallashtirib uni samarali va sifatli bilimga ega bo'lishga ta'sir berish. Bolalarimiz faqat sog'lom bo'lsa, baxtli bo'lmasligi mumkin. Baxtli bo'lishi uchun birinchi prezidentimiz aytganlaridek yangicha o'ylaydigan, yangicha fikirlaydigan, zamonaviy bilimlarga ega, raqobatbardosh, dono, aqilli, keynchalik donishmandlik darajasida bo'lishi zarur deb takidlaganlar.

Darhaqiqat dars mobaynida ma'lum nazariy bilimlarni o'quvchiga yetkazish, unda ayrim faoliyat yuzasidan ko'nikma va malaka hosil qilish, ma'naviy sifatlarni shakllantirish, o'quvchi bilimini nazorat qilish hamda baholash o'qituvchidan yuksak mahorat va tezkorlik talab qiladi. Axborotlarni tezkor sur'atda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda tinglovchiga yetkazib berishni yo'lga qo'yish ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyani tadbiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiladi. O'qituvchining samarali faoliyat ko'rsatishga undovchi darsning metodik ishlanmasini puxta ishlab chiqishdan farqli o'laroq, ta'lim texnologiyasi tinglovchilar faoliyatiga nisbatan yo'naltirilgan bo'lib, u tinglovchilarning shaxsiy hamda o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatlarini inobatga olgan holda, o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi. Ta'lim texnologiyasining markaziy muammosi – ta'lim oluvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat.

Texnologiya (yunon. "techne" – mahorat, san'at, "logos" – tushuncha, ta'limot) – muayyan (ishlab chiqarish, ijtimoiy, iqtisodiy va b.) jarayonlarning yuksak mahorat, san'at darajasida tashkil etilishi Ta'lim texnologiyasi (ingl. "an educational technology") – ta'lim (o'qitish) jarayonining yuksak mahorat, san'at darajasida tashkil etilishi. Ta'lim texnologiyasi – ta'lim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, ya'ni, avvaldan loyihalashtirilgan ta'lim jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichmabosqich amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yo'lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan

samarali, unumli foydalanish hamda ta'lim jarayonini yuqori darajada boshqarish Ta'lim metodi – o'quv jarayonining majmuaviy vazifalarini yechishga yo'naltirilgan o'qituvchi va talabalarning birgalikdagi faoliyati usuli bo'lsa, ta'lim metodikasi esa muayyan o'quv predmetini o'qitishning ilmiy asoslangan metod, qoida va usullar tizimi.

O'z mohiyatiga ko'ra pedagogik texnologiya vaqt taqsimotiga muvofiq dasturlanib, ilmiy jihatdan asoslangan xamda kutilgan natijaga erishishni ta'minlovchi pedagogik jarayonning barcha bosqich va qismlarining vazifalari aniq belgilangan tizimni ifodalaydi. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini baholash ham muhim ahamiyatga ega. Pedagogik texnologiyalarning imkoniyatidan kelib chiqqan holda ularni amaliyotga tatbiq etishning samaradorligini bir qator mezonlar bilan aniqlash mumkin.

O'qitish tizimida pedagogik texnologiyalarini samarali qo'llash pedagogning kasbiy kompetentligiga ham bog'liq. SHu sababli pedagogik texnologiyalarning samaradorligini pedagog tomonidan ularning qo'llanilishiga ko'ra ham baholash mumkin.

- ta'lim shakllarini takomillashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish va boshqalarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tatbiq etish va aniqlashning izchil metodi (YuNESKO) Pedagogik texnologiya Ular quyidagilardir:

- ta'lim, tarbiya va shaxsni rivojlantirish vazifalarining o'zida yaxlit as ettira olishi;

- o'zida zamonaviy fan va texnika darajalarini ifodalay olishi;

- g'oyaviy jihatdan talabalarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos kelishi;

- o'quv materialining zarur axborotlar bilan to'liq ta'minlanganligi;

- o'qitish jarayonida rang-barang metod va vositalarni qo'llash imkoniyatini ta'minlanganligi;

- ta'limning ko'rgazmaliligi va barcha uchun ochiqligini ta'minlash tamoyiliga egaligi;

- ko'p funktsiyali ta'lim vositalaridan foydalanish va ularni oson ekspluatatsiya qilish imkoniyatining mavjulligi;

- pedagogning talabalarga mustaqil ishlarni samarali tashkil etishga ko'malashish darajasi Mahorat-shaxsning tajriba orqali orttirgan xususiyati. Biror sohasidagi moslashuvchan ko'nikma va ijodkorlik asosida hosil bo'lgan kasbiy ko'nikmalarning nazariy darajasidir.

Mahorat – san'at, Mahorat izlanish, Mahorat – pedagogik texnologiyalarni qo'llay bilish, mahorat - o'qituvchining o'z faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish va o'z-o'zini tarbiyalashdir. Qobiliyat hamma insonlarda mavjud bo'lib, bir tekisda bo'lmay, biri yuqori, biri o'rta quyi darajadan ibortdir. Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Pedagogik mahorat egasi o'z mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi. Qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Ibn Sino ta'lim jarayonida quyidagi qoidalarga amal qilish lozim deb hisoblaydi:

- o'qitishda oddiydan murakkabga qarab borish;
- bolaning qobiliyat va mayllarini e'tiborga olish;
- bolaga kuchi yetadigan mashqlarni bajartirish;
- ta'limni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borilishi.

Bolaga ta'lim va tarbiya berishi uchun saxovatli, donno, iymonli, axloqiy va aqliy tarbiya usullarini yaxshi biladigan, irodasi kuchli muallim va tarbiyachini tanlash zarur. Muallim sog'lom, pok, halol, xushmuomala kishi bo'lmog'i lozim. «Boshlang'ich ta'lim kontseptsiyasi»da boshlang'ich sinf o'qituvchisi qiyofasi ta'riflanadi: «...eng muhimi balalarda o'qish, o'rganishga chinakkam xavas, ishtiyoq uyg'otuvchi, e'tiqod xosil qiluvchi ustoz sifatida alohida o'rin tutadi.» va yana shu kontseptsiyadan boshlang'ich sinf o'qituvchisi fazilatlariga qo'shimcha keltiriladi. O'qituvchi:

- «...O'zbekiston kelajagi buyuk davlat ekaniga ishonadigan milliy iftixorli bo'lishi;

- bolalarni xalq pedagogikasi durdonalari hamda milliy qadriyatlarimiz asosida tarbiyalay olishi;

– nutqiy ravon, xalq tili boyligi ifoda usuli va tasvir vositalarini adabiy til uslubi va me'yorini to'la egallagan bo'lishi» zarur.

- pedagogning texnologik madaniyatga egaligi;
- pedagogning pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida tajribaga egaligi;
- pedagog tomonidan pedagogik texnologiyalarga "ijodiy" o'zgarishlar kiritilishi va ularning qayta shakllantirilishi;

- pedagogik texnologiyalarni ta'lim amaliyotiga tatbiq etishda o'qituvchi va talabalar o'rtasida o'zaro hamkorlik negizida muvaffaqiyatli vaziyatlarning qaror topganligi;

- pedagogik texnologiyalarning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik;

- pedagogik texnologiyalarning talabalar va pedagoglarning kasbiy rivojlanishini ta'minlashdagi imkoniyatlarga egaligi;

- talabalar o'quv-bilish faoliyatining ijobiy ahamiyat kasb etishi Bunda quyidagi mezonlar muhim ahamiyatga ega: Uzoq yillar mobaynida qayd etilgan pedagogik kategoriyalar jamiyat ijtimoiy talabi darajasidagi maqsadlarni ro'yobga chiqarish uchun yetarli bo'lib kelgan. Muayyan davrlarda bir guruh pedagoglar tomonidan barcha davrlarda amalga oshirilgan pedagog faoliyatning darajasi qoniqarsiz deya baholaganlar. Ular, xususan, pedagogik tushunchalarga berilgan ta'rif va tavsiflarning noaniqligi, ta'lim jarayonlarini tavsiflovchi ba'zi kategoriyalarning yetishmasligi, ta'lim maqsadi, mazmuni, shakli, uslubi va o'qitish vositalari o'rtasida o'zaro uzviylikning mavjud emasligi kabi holatlarni doimiy ravishda tanqid qilib kelganlar. Ular tomonidan «metodika» tushunchasi yuqori darajadagi subyektivlikka ega ekanligi ta'kidlanadi. Haqiqatda esa ta'lim natijalari o'quvchining pedagogik jarayonlaridan muvaffaqiyatli «o'tganligi» bilan belgilanadi. Pedagogik jarayonning mohiyati - o'qituvchi hamda o'quvchining birgalikdagi faoliyati mazmunida aks etadi, mazkur jarayonda pedagog o'quvchiga yuzaga kelgan qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi.

Pedagogik yordamning asosiy mohiyati pedagogik jarayonning tavsifi, uning ma'lum maqsadga yo'naltirilganligi, shuningdek, shaxsni shakllantirish va

tarbiyalash borasida hal etiladigan vazifalar bilan ifodalandi. Pedagog axborotlarni e'lon qilish, ko'rsatish, eslatish, tushuncha yoki maslahat berish, yo'naltirish, haqqoniyLashtirish, kengashish, bartaraf etish, hamdardlik qilish, ilhomlantirish, qiziqish va hurmatni izhor qilish, talabchanlikni qo'llab-quvvatlash kabi ko'rinishlarda yordam beradi.

Bu o'rinda ta'lim maqsadlarining belgilanishi (kimga va nima uchun?), mazmunni tanlash va ishlab chiqish (nima?), ta'lim jarayonlarini tashkil qilish (qanday?), ta'lim metod va vositalarining belgilanishi (nimalar yordamida?), shuningdek, o'qituvchilar malaka darajasi (kim?), erishilgan natijalarni baholash metodi (qanday yo'l bilan?) inobatga olinishi lozim. Keltirilgan mezonlarning majmuaviy tarzda qo'llanilishi o'quv jarayonining mohiyati va texnologiyasini belgilab beradi.

Ta'lim texnologiyasini loyihalash jarayonida pedagogik vazifaning qo'yilishi va uni hal etishga alohida e'tibor berilishi zarur: Zamonaviy o'qitish texnologiyalari - majmuaviy integral (butun, uzviy bog'liq) tizim bo'lib, unda ta'lim maqsadlari asosida belgilangan ko'nikma va malakalar o'quvchilar tomonidan nazariy bilimlarni o'zlashtirish, ularda muayyan ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat elementlarining ma'lum tartibga solingan to'plami sifatida aks etadi. Pedagogik vazifani belgilashda quyidagilarni inobatga olish maqsadga muvofiqdir: Pedagogik vazifalarning hal etilishini ta'minlovchi o'qitish texnologiyasini loyihalashga qaratilgan o'qituvchi faoliyatining mazmuni metod, shakl va vositalar asosida shakllantiriladi.

Pedagogik vazifaning o'qitilishi Didaktik jarayonni ishlab chiqish O'qitish texnologiyasini loyihalash

- O'qitish texnologiyasini loyihalash ta'lim maqsadlarini tahlil etish asosida o'quv predmeti mazmunini aniqlash;

- o'quv predmeti axborot tuzilmasini ishlab chiqish va uni o'quv unsurlari tizimi ko'rinishida ifodalash;

-o'quvchilarning o'quv unsurlarini o'zlashtirilish darajalarini avvaldan belgilash;

-o'quvchilarning dastlabki bilim darajasini aniqlash (bu ko'rsatkich o'quv predmetining mazmuni asoslanadigan o'quv materialini o'zlashtirganlik darajasidan kelib chiqadi); moddiy baza hamda ta'limning tashkiliy shakllariga o'qiyadigan chegaralarni belgilash.

Pedagog faoliyati mazmunini belgilovchi asosiy omillar:

-boshqarish turi;

- axborot almashish jarayonining turi;

-axborotni uzatish vositalarining tiplari va bilish faoliyatini boshqarish.

O'qitish jarayoniga faoliyat nuqtai nazaridan yondashish kontseptsiyasiga asoslanib, uni tashkil etish quyidagi mantiqiy ketmaketligini asoslash mumkin: dastlab o'quv materiali mazmunining tavsifi, uni o'rganishdan ko'zlangan maqsad (o'zlashtirish darajalari), shuningdek, pedagogik vazifaning qo'yilish shartlari tahlil etiladi. So'ngra, o'qitishning mos ravishdagi metodlari hamda o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish tizimi ishlab chiqiladi. Shu asosda o'qitish vositalarining ro'yxati tuziladi. Ushbu usul bilan hosil qilingan metod va ta'lim vositalarining yaxlit tizimi tashkiliy shakllar bilan uyg'unlashtiriladi, ya'ni, muayyan texnologiya ishlab chiqiladi. Umumlashgan pedagogik texnologiyalar ma'lum psixo-pedagogik asoslarda qurilgan «sintetik nazariya» sifatida qaraladi.

Tadbiqiy pedagogik texnologiyalar oldindan rejalashtirilgan natijaga erishishga yo'naltirilgan kasbiy tayyorgarlik jarayonini loyihalash muammosini metodik jihatdan hal etishga yo'naltiriladi. Bugungi kunda pedagogik texnologiyalar tadbiqiy asosini shaxsiy faoliyatli yondoshuv, tanqidiy-ijodiy fikrlash, muammolarni hal etish, qaror qabul qilish va jamoada hamkorlikni qaror toptirishga oid pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish ehtiyoji yuzaga kelmoqda. Ayni vaqtda ta'lim muassasalari amaliyotida quyidagi pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanilmoqda: Pedagogik texnologiya turlari Pedagogik texnologiya turi Maqsadi Mohiyati Mexanizmi Muammoli o'qitish O'quvchilarnig bilish faolligi hamda ijodiy mustaqilligini oshirish O'quvchilarga ularda bilimlarni o'zlashtirish borasidagi faollikni yuzaga keltirishga xizmat qiluvchi masalalarni maqsadga muvofiq, ketma-ket berib boorish. Tadqiqotchi lik

metodlari, bilish faoliyatiga yo'naltirilgan masalalarni yechish Mujassam lashtirilgan ta'lim shaxsning his qilish xususiyatlariga maksimal darajada yaqinlashtiril Mashg'ulotlarni bloklarga birlashtirish hisobiga fanlarni chuqur o'zlashtirishga O'quvchilar ish qobiliyati dinamikasi ni hisobga oluvchi ta'lim metodlaridan ta'lim jarayoni tuzilmasini yaratish erishish Modul ta'limi Ta'lim mazmunini shaxsning individual ehtiyojlari va uning bazaviy tayyorgarligi darajasida muvofiqlash tirish O'quvchilarning individual o'quv dasturi asosida mustaqil ishlashlari Muammoli yondashuvni amalga oshirishning individual maromi Rivojlanti ruvchi ta'lim haxs va uning qobiliyatlarini rivojlantirish O'quv jarayonini shaxsning ichki imkoniyatlari va ularni ro'yobga chiqarishga yo'naltirish O'quvchilar faoliyatini turli sohalarga yo'naltirish Differen tsiallashgan ta'lim O'quvchilarning layoqati, qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash uchun qulay sharoitlarni yaratish Turli o'zlashtirish darajalari bo'yicha majburiy me'yor (standart)dan kam bo'lmagan hajmdagi dastur materialini o'zlashtirish Individual ta'lim metodlari Faol o'qitish (majmuaviy ta'lim) O'quvchilar faolligini yuzaga keltirish.

Bo'lajak kasbiy faoliyatning predmetli va ijtimoiy mazmunini modellashtirish Faol o'qitish metodlari O'yin texnologiya Lari Bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning shaxsiy faoliyat tavsifida bo'lishini ta'minlash O'quv axborotlarini qayta ishlash va o'zlashtirishga yo'naltirilgan mustaqil bilish faoliyati O'quvchilarni ijodiy faoliyatga jalb etishning o'yin metodlari SHunday qilib, avvaldan loyihalashtirilgan ta'lim-tarbiya jarayonining pedagogik texnologiyasi o'zida metodlar tizimi, ta'lim metodik usullari, maqsad, vositalari, o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikda faoliyat 40 ko'rsatish imkoniyatlari hamda yakuniy natijalarga erishish borasidagi majmuani mujassamlashtiradi. Ta'lim jarayoni yaxlit tizim sifatida. Ta'lim jarayoni ta'lim texnologiyasining asosini, yadrosini tashkil etadi hamda ta'lim maqsadi, ta'lim mazmuni, o'quvchi, ta'lim shakli, metod, vositalari va ta'lim beruvchi kabi unsurlardan iborat tizim sifatida namoyon bo'ladi. Tarkibiy unsurlar o'zaro birlik va aloqadorlikda ta'lim jarayonining

umumiy mohiyatini yoritishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayoni bir nechta shartlarga muvofiq tashkil etiladi. Ular quyidagilardir:

1) ta'lim olish, muayyan nazariy hamda amaliy bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan ijtimoiy (yoki shaxsiy) ehtiyojlarning yuzaga kelishi.

2) ta'lim olish, muayyan nazariy hamda amaliy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan rag'batning uyg'onishi;

3) o'quvchining o'quv-bilish faoliyati mazmunini belgilash;

4) o'quvchining o'quv-bilish faoliyatini boshqarishni yo'lga qo'yish omillarining mavjudligi Ta'lim texnologiyasining funktsional tuzilmasi bevosita ta'lim jarayonining mohiyatini to'laqonli yoritishga xizmat qiladi. Ya'ni, ushbu tuzilma o'zida ta'lim jarayonining umumiy ko'rinishi (tashkiliy shakli va ichki mohiyati), obrazini ifoda etadi.

Ta'lim texnologiyasining funktsional tuzilmasini tasvir orqali quyidagicha aks ettirishga harakat qildik. Bozor munosabatlariga asoslangan ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlaridan biri - ijtimoiy raqobatning paydo bo'lishidir. Ijtimoiy raqobat mavjud bo'lgan sharoitda mo'tadil faoliyat yurtish, raqobatga nisbatan ishchanlik immunitetini hosil qilish manfaatlar to'qnashuvida «omon» qolish, yuqori mavqeiga ega bo'lish uchun imkoniyat yaratadi. SHu bois fuqarolarda ta'lim olish, nazariy va amaliy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ongli yondashuv hissi qaror topmoqda. Bu esa ularda ta'lim olishga bo'lgan rag'batni hosil qilmoqda. Endilikda ta'lim olish, muayyan kasb-hunar yoki mutaxassislik ma'lumotlarini egallash, bu borada ma'lum ko'nikma va malakalarni shakllantirish hayotiy ehtiyojga aylanmoqda. Ta'lim olishga bo'lgan rag'bat va uning mazmuni ta'lim jarayonining muvaffaqiyatining garovi, kafolati bo'la oladi.

Ta'lim olishga bo'lgan rag'bat o'quvchi hamda o'qituvchi ishtirokidagi o'quv-bilish faoliyati asosining shakllanishida ham muhim Loyiha Maqsad Tashqi (obyektiv) omillar Ta'lim jarayoni (ta'lim maqsadi, mazmuni, shakl metod va vositalari) Ichki (subyektiv) omillar Ichki to'siq (ziddiyatlar) O'quvchi faoliyati Ichki to'siq (ziddiyatlar) Boshqarish Yo'nalish berish Maslahat berish Nazorat qilish Baholash O'qituvchi faoliyati Kutilayotgan natija Natijani kafolatlovchi

omillar Ta'lim texnologiyasining funktsional tuzilmasi ahamiyat kasb etadi. Yaqin o'tmishda o'quvchining ta'lim jarayonidagi ishtiroki nazariy bilimlarni qabul qilib oluvchi va o'zlashtirilgan nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalarni namoyish etuvchi subyekt sifatidagi roli bilan kifoyalangan bo'lsa, ta'lim texnologiyasi talablariga ko'ra o'quvchi ta'lim jarayonining yetakchi subyeksi, asosiy ijrochisi sifatida ko'rinadi.

Endilikda o'quvchi o'qituvchi tomonidan uzatilayotgan axborot (bilim)larni qabul qilmaydi. Balki ta'lim beruvchining yo'llanmasi, ko'rsatmasiga muvofiq tavsiya etilgan o'quv manbalari bilan mustaqil ravishda tanishish orqali nazariy bilimlarni o'zlashtiradi, o'qituvchining nazorati ostida amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qiladi. O'quvchi mustaqil faoliyat yuritish, nazariy bilimlarni o'zlashtirish asosida o'zida fikrini ilgari surish, dalillar keltirish, o'z fikrini himoya qilish layoqatini tarbiyalay olishi, o'z-o'zini tanqid qilish, o'z-o'zini baholash sifatlarini qaror toptira olishi talab etiladi. Davr talabi o'quvchini ta'lim jarayonining sust tinglovchisi bo'lishdan faol ishtirokchisiga aylantirishni taqozo etmoqda. O'quvchining faoliyat mazmunini to'laqonli yoritilishida ta'lim shakli, metod va vositalarining ahamiyati katta.

Zero, ular o'quvchining imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, bilim, ko'nikma va malakalarini aslidek, mavjud darajasida yoritib berish uchun qulay shart-sharoit yaratib beradi. O'z navbatida o'quvchilarning yosh, psixologik, fiziologik xususiyatlari, bilim darajasi, dunyoqarashining ko'lami hamda ularning faolligi samarali, ilg'or, noan'anaviy ta'lim shakli, metod va vositalarini tanlash, ulardan maqsadga muvofiq foydalanish uchun turtki bo'ladi. Ta'lim jarayonining maqsadi DTS, o'quv rejasi dasturi, shuningdek, darslik, qo'llanmalarda belgilab berilgan muayyan mavzu hamda fan (yoki kurs)ning o'ziga xos jihatlari, mavjud pedagogik shart-sharoitlar, o'quvchilarning yosh, psixologik xususiyatlari, ularning hayotiy ehtiyoji va qiziqishlari, ta'lim beruvchining bilim va malaka darajasi, dunyoqarashi, ijodkorligi, vaziyatni baholay hamda unga muvofiq tezkor harakat qila olish layoqati va hakozi omillarni inobatga olish asosida belgilanadi.

O'quv jarayonining maqsadi tashhisli ravishda aniq va ravshan belgilanmog'i lozim. Ta'lim maqsadining bunday belgilanishi ma'lum va amal qilingan vaqtda didaktik jarayonni tashkil qilish va amlga oshirilish darajasi yuzasidan xulosa chiqarish imkoniyatini yaratadi. Ta'lim jarayonining maqsadi ijtimoiy buyurtma mazmuni hamda hamda o'quvchi shaxsi modellarining o'zaro muvofiqligi asosida kechadi. Bosqichli darajada ta'lim masadini shakllantirish dolzarb darajadagi maqsad muayyan ta'limiy tayyorganlik bosqichlari bo'yicha taqsimlab chiqiladi. Ta'lim tizimining yaxlit holda kasbga yo'naltirilganligi sababli o'quvchi shaxsining modeli uning obyekti bo'lib qoladi. Ta'lim jarayonida shaxsning yosh ko'rsatgichlari tabiiy uning shakllanish bosqichlariga mos ravishda asosiy maqsaddan kelib chiqib darajalanadi.

Tezkor daraja ta'lim maqsadini shakllantirish mazmuni, ta'lim jarayonini tashkil etuvchi alohida fanlarni o'rganishdan iboratdir. Ta'lim jarayonining mazmuni shaxsga ta'lim berish, uni tarbiyalash va rivojlantirish kabi vazifalarning ijobiy hal etilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Ta'lim muassasalari oldida turgan vazifalarni hal etish mashg'ulot (ta'lim jarayoni) mazmuni, ta'lim shakli, metodlari hamda vositalarining samaradorligiga bog'liq bo'ladi. Ta'lim shakli, metodlari va vositalari o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda chuqur bilim va dunyoqarashni hosil qilishga xizmat qiladi.

Ta'lim shakli o'qituvchi va o'quvchining belgilangan tartibda, muayyan maqsadga muvofiq ma'lum rejimda tashkil etiladigan faoliyatlarining tashqi ifodasidir. Qadim zamonlardan oq jamiyatning yetuk kishilari o'qitish ishini tashkil qilishning ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojlariga javob beradigan shakllarini topishga uringanlar. Hozirgi vaqtda Respublika ta'lim muassasalarida o'qitishning quyidagi shakllaridan foydalanilmoqda. Dars-o'quv ishlarining asosiy tashkiliy shakli hisoblanadi. Sinf-dars tizimi quyidagi mazmunga egadir:

1. Har qaysi sinf yoshi va bilim darajasiga ko'ra bir xil bo'lgan o'quvchilarning doimiy guruhiga ega bo'ladi.

2. Dars jarayoni asosan 45 daqiqa (yoki bir akademik soat 80 daqiqa) davom etib, qat'iy jadval asosida olib boriladi.

3. Dars o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyat birligiga asoslangan bo'lib, bevosita o'qituvchi rahbarligida jamoa, guruhli va yakka tartibda olib boriladi.

4. Dars mashg'uloti o'tilayotgan va o'zlashtirilayotgan materialning mazmuniga qarab turli xil metodlar yordamida olib boriladi hamda umumiy ta'lim tizimining bir qismi sifatida, albatta, tugallangan bilim beradi va navbatdagi bilimlarni o'zlashtirish uchun zamin yaratishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda ta'limni tashkil etish tizimida yakka tartibda ta'lim olish o'ziga xos o'ringa ega bo'lib bormoqda. Yakka tartibdagi ta'lim o'quvchining qiziqishi, ehtiyoji, xohishiga ko'ra muayyan fan, predmet yuzasidan chuqur bilim olish; ma'lum fan yoki predmet bo'yicha yuzaga kelgan o'zlashtirmovchilik holatini bartaraf etish, shuningdek, uzoq vaqt sog'liqni saqlash muassasalarida davolangan yoki tibbiyot xodimlari nazoratida bo'lgan o'quvchilarning o'quv dasturi talablarini bajarishlariga ko'maklashish maqsadida tashkil etiladi.

Yakka tartibda ta'lim olishning asosiy ko'rinishlaridan biri sifatida repititorlik ta'limi keng ommalashib bormoqda. Ayni vaqtda umumiy o'rta ta'lim maktablari hamda yangi turdagi o'quv muassasalari faoliyatida o'qitishning noan'anaviy Ta'limning shakl, metod va vositalari ta'lim jarayonining mazmuni asosida belgilanadi 44 shakllarining asosiysi sifatida ma'ruzadan keng foydalanilmoqda. O'rta ta'lim maktablarida ma'ruza umumiy 45 daqiqalik bir akademik soatdan iborat bo'ladi. Umumiy qoidaga muvofiq ma'ruza bir dars davomida oxiriga yetkazilmay qolgan bo'lsa, u yangi mashg'ulotda davom ettiriladi. Har bir mavzu bo'yicha ma'ruza materiallari tushuntirib bo'lingach, o'quvchilar bilan savol-javob o'tkaziladi. Har bir mavzu yuzasidan foydalanish lozim bo'lgan adabiyotlar ro'yxati taqdim etiladi.

№ Sinflar O'quvchilar tomonidan qabul qilinuvchi material hajmi

1. I sinf 20-25 ta so'z

2. II sinf 25-30 ta so'z

3. III sinf 30-35 ta so'z

4. IV-V sinf 35-50 ta so'z

5. Yangi turdagi o'quv muassasalarda 40-45 ta so'z.

Maktab ma'muriyati hamda pedagogik jamoa oldiga har bir o'quvchining fakultativlardan birini tanlash imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlash vazifasi qo'yiladi, bu keyinchalik uning uchun majburiy bo'lib qoladi. Fakultativ mashg'ulotlar o'quvchilarning mustaqilligi hamda faolligini oshirishga, ularning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan maxsus dastur asosida o'tkaziladi. Fakultativ mashg'ulotlarda o'qiladigan ma'ruzalar amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashib ketadi. Bunda o'quvchilar adabiyotlar bilan ishlash malakasini, mustaqil faoliyat yuritish ko'nikmasini egallaydilar, murakkab bo'lmagan tajribalar va tadqiqotlar o'tkazish metodikasini o'zlashtiradilar, tajriba qurilmalari va texnikani ishlatish malakasini hosil qiladilar. Fakultativ mashg'ulotlar majburiy fanlar yuzasidan bo'lgan mashg'ulotlar bilan mustahkam aloqadorlikda tashkil etilishi kerak. Keyingi yillarda umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinflarida ijtimoiy va gumanitar predmetlar bo'yicha seminar mashg'ulotlarini takil etish keng qo'llanilmoqda.

Ta'limda ko'rsatmalilik metodining quyidagi turlaridan foydalaniladi:

-Ko'rsatmalilik metodining turlari (tasvirlash, namoyish etish, ekskursiya);

Ko'rsatmalilik metodining turlari namoyish etish hamda ekskursiya o'quvchilarining o'quv materiallarini aniq obrazlar vositasida bevosita idrok qilishlarini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Namoyish etish metodi o'qituvchi tomonidan bayon qilinayotgan ilmiy-nazariy bilimlarni o'quvchilar tomonidan puxta o'zlashtilishi uchun ularning sezgi organlari - eshitish, ko'rish, hid va ta'm bilish, teri sezgilarining bir obyektga alohidaalohida yoki bir necha sezgi a'zolarini bir yo'la safarbar qilishga imkon beradi. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan vositalar ta'lim samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonida o'qitish vositalaridan foydalanish - dars jarayonida tabiiy yoki tasviriy ko'rgazmali materiallar (predmet, sxema, diagramma, surat va boshqalar; laboratoriya yoki namoyish etishga asoslanuvchi mashg'ulotlar jarayonida qo'llaniladigan asbob-uskunalar, o'quv qurollari, mikroskop va boshqa apparatlar, shuningdek, mavzuga oid dalillar (tsitata, ta'rif, qoida, formula va boshqalar)ning qo'llanilishini anglatadi.

Hozirga kunda jahon pedagogikasida «pedagogik texnologiya» tushunchasiga 12 xil ta'rif berilganligi ma'lum. Pedagogik texnologiya. Bu borada mutaxassis olimlarimiz qanday fikrdalar? 1. Ped.texnologiya bu...ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning o'zaro ta'sirini inobatga olib o'qitish va bilim o'zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo'llashning tizimli metodidir. (YuNeSKO) 2. Ped.texnologiya bu pedagogning amaliyotga joriy etishi mumkin bo'lgan pedagogik tizim loyihasidir. (V.Bespalko) Ikkinchi ta'rifda nimaga e'tibor berilyapti? (amaliyotga) Darhaqiqat, amaliyotga e'tibor berish kerak, quruq gap bilan hech narsaga erishib bo'lmaydi. Bilim berish butun bir sistema. Xuddi bizning Vosita muayyan o'qitish metodi yoki usullardan muvaffaqiyatli foydalanish uchun zarur bo'lgan yordamchi o'quv materialidir.

Ta'lim vositalari asbob-uskunalar, laboratoriya jihozlari, axborot va texnik vositalar (qurilmalar), ko'rsatmali qurollar, ramziy belgilar, darslik, o'quv qo'llanmalari, radio, televidenie va kompyuter va xokazolardan iborat tanamiz bir sistema bo'lganidek. Moboda charchab qolsam, o'tirib dam olaman va tanam bir birini to'ldiradi. Endi tasavvur qiling, shu sistemamda bitta tishim og'rib qoldi. Nima bo'ladi? (Butun sistemani ishdan chiqaradi). Xuddi shunday, pedagogikada biror biror bir xatolikka yo'l qo'ysak, oxirida albatta natija biz kutgandek bo'lmaydi. 3. Texnologiya-biror ishda, mahoratda, san'atda qo'llaniladigan usullar, yo'llar yig'indisi. (Izohli lug'at) (Bu ta'rifni izohlash uchun arafa kuni osh tarqatish udumi eslatiladi.) Xuddi oshlar har xil bo'lganidek, texnologiyalar ham har xil.

To maqsadga yetgunga qadar usullarim yig'indisi mening texnologiyamdir. Men texnologiyamda biror bir kamchilikka yo'l qo'ysam, oxirida men kutgan natijaga erisha olmayman. Buning uchun men qo'l ostimdagi bolalarga e'tibor berishim kerak. Uning uchun inson toifasini bilishim kerak. «... avvaldan rejalashtirilgan natijalarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo'lgan tartibli amallar tizimidir»

- V. Monaxov «... o'qituvchining o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir»

- N. Sayidahmedov va M. Ochilov «... ta'lim jarayoniga yangicha yondashuv bo'lib, pedagogikada ijtimoiy-muhandislik ongi ifodasidir; u pedagogik jarayonni texnika imkoniyatlari va insonning texnikaviy tafakkuri asosida standart holga solib, uning optimal loyihasini tuzib chiqish bilan bog'liq ijtimoiy xodisadir» - B. Farberman. Masalan: «Ta'lim texnologiyasi ilmiy va boshqa bilimlarning amaliy masalalarni hal etishda tizimli ravishda qo'llashdan iborat». (Golbrayt). «Pedagogik texnologiya ta'limini tizimlashtirish yoki sinfda o'qitishni tizimlashtirish g'oyalarini pedagogikaga tadbiq etishdan iborat». (T.Sakomoto). «Pedagogik maqsadlarga erishishda foydalaniladigan barcha shaxs, amaliy va uslubiy vositalarning tizimlashgan majmui va ularni faoliyat ko'rsatish tartibi». (Klarin M.V.). Xalqaro YuNESKO tashkiloti tomonidan pedagogik texnologiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: «Pedagogik texnologiya -ta'lim shakllarini maqbullashtirish uchun inson va texnik resurslarni hamda ularning o'zaro ta'sirini e'tiborga olgan holda, o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimiy uslubidir». Yuqoridagi ta'riflarda pedagogik texnologiyaning tub mohiyati o'quv jarayoniga tizimli yondashishdan iborat ekanligi yaqqol ko'zga tashlanadi. 47 Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, pedagogik texnologiyaning eng qadimgi manbai bu - nuqsonsiz mehnat kontsepsiyasi ekan.

Nuqsonsiz mehnatni ta'minlovchi shartlardan biri mehnat qilayotgan sub'ektning psixologik shaxsiy xarakteristikalarini hisobga olishdir. Bunday mehnatning eng muhim omillari quyidagilar:

- kasbga qiziqish; - kasbiy tayyorgarlik sifati;

- o'z mehnatini muntazam nazorat qilib borish. Nuqsonsiz mehnat g'oyasini to'g'ridan-to'g'ri pedagogik faoliyatga ko'chirish mumkin emas. Chunki, unda omillar ancha ko'proq. Pedagogik texnologiyaning metodologik sifatlari

quyidagilardan iborat: texnologik sxema, ilmiy asos, tizimlilik, boshqaruvchanlik, samaradorlik, takrorlanuvchanlik.

Texnologik sxema- texnologik jarayonning shartli ifodalanishi. U alohida funksional elementlarga bo'linadi va ular orasidagi mantiqiy aloqalar belgilanadi.

Ilmiy asos- har bir pedagogik texnologiya birorta ilmiy ta'limotga tayanishi kerak.

Ilmiy ta'limot bu ta'limiy maqsadlarga erishishining ilmiy jihatdan asoslanishidir.

Tizimlilik - pedagogik texnologiya tizimga xos bo'lgan barcha belgilarga ega bo'lishi kerak:

- jarayonning mantiq'i;
- uning barcha qismlarining o'zaro bog'liqligi;
- yaxlitligi;

Boshqaruvchanlik deyilganda quyidagilar nazarda tutiladi:

- maqsadlarni qo'yish; - rejalashtirish; - o'qitish jarayonini loyixalash; - qadamba-qadam tashhis qo'yish;

- natijaga tuzatish kiritish maqsadida vosita va metodlarni o'zgartirish.

Samaradorlik - zamonaviy pedagogik texnologiyalar aniq sharoitlarda mavjud bo'ladi va ma'lum o'qitish standartlariga erishishini kafolatlaydi, natija bo'yicha samarador, xarajatlar bo'yicha optimal bo'ladi. Takrorlanuvchanlik - pedagogik texnologiyani boshqa subyektlar boshqa ta'lim muassasalarida qo'llashi mumkinligi (natija esa bir xil bo'ladi).

Xaqiqatan ham, agar o'quv jarayoni to'la takrorlanuvchan, alohida ko'rinishlarga bo'linsa, o'qituvchining vazifasi oldindan tuzilgan (o'zi tuzgan bo'lishi shart emas) material bilan o'qishni tashkil etishda tashkilotchi va maslahatchi rolini ijro etishdan iborat bo'lib qoladi.

5-§. Boshlang'ich sinfda aniq va tabiiy fanlar darsi va o'qitishning turli formalari

Reja:

1. Dars tushunchasi.
2. Boshlang'ich sinfda aniq va tabiiy fanlar darsi va o'qitishning turli formalari.
3. O'quv ishini tashkil etishning darsdan tashqari formalari.
4. Ixtisoslashgan sinflarda matematik va tabiiy fanlarni o'qitish.

Mashg'ulot maqsadi: Har bir pedagogning bosh maqsadi - pedagogik mahorati bilan o'z individualligini yorqin namoyon etish, interfaol ta'lim vositasida mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirish, uning sifatida oldindan o'quvchilarni ta'lim-tarbiya samaradorligini ko'ra bilish.

Hozir o'quv yurtlarimizda qo'llanilayotgan sinf - dars tizimi quyidagi tashkiliy shakllarda olib boriladi:


- 1). Har qaysi sinf yoshi va bilimiga ko'ra bir xil darajadagi bolalarning doimiy guruhiga ega bo'ladi.
- 2). Dars mashg'uloti asosan 45 minutga mo'ljallangan bo'lib, qat'iy jadval orqali olib boriladi.
- 3). Dars bevosita o'qituvchining rahbarligida jamoa va yakka shaklda olib boriladi.
- 4). Dars o'tilayotgan materialning mazmuniga qarab xilma-xil usul bilan olib boriladi, ta'lim tizimining bir qismi sifatida, albatta, tugallangan bilim beradi va navbatdagi bilimlarni o'zlashtirish uchun zamin yaratadigan qilib uyushtiriladi.

Dars ta'riflari



I-Topshiriq:

1. Dars tushunchasiga ta'rif bering
2. Dars shakllariga nimalar kiradi?
3. Darsning turlari va uning tuzilishi haqida tushuncha bering. (aralash dars turi)




4. Darsga qo'yiladigan talablarni sanab bering

II – topshiriq: aniq va tabiiy fan mavzularini o'qitishda fanlar aro uzviy bog'liklikni sxemada ifodalang va izohlang

III – Topshiriq: Mahoratli o'qituvchining tizimli strukturasi keltiring va izohlang.

IV-topshiriq

VI – topshiriq: “Tabiiy vaq” mavzusi misolida “o`qitishning to`rt pog`onali usuli” ni qo`llagan holda mavzuni tushunbring.



6-§. Boshlang'ich sinflarda og'zaki hisoblash va tabiiy jarayonlarni o'rganishni rivojlantirish texnologiyalari

Reja:

1. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar og'zaki hisoblash bilimini shakllantirish.
2. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar tabiiy jarayonlarni o'rganish bilimini shakllantirish.
3. Matematika boshlang'ich kursida algebra elementlarini kiritishning o'ziga xosligi.

Og'zaki va yozma hisobning o'rin almashtirish, guruhlash va taqsimot qonunlarini qo'llash usullari.

Boshlang'ich maktabning matematika dasturiga kiritilgan nazariy masalalarning ichida arifmetik amallarning qonunlari to'g'risidagi masala ham bor. Dasturga bu qonunlardan faqat ko'paytirishning o'rin almashtirish xossasi kiritilgan.

IV sinflarda o'qish yilining I choragida o'qitiladi. Yig'indi va ko'paytmaning guruhlash va taqsimot qonunlari esa dasturga to'g'ridan-to'g'ri kirgizilmagan, lekin ular to'g'risida faqat IV sinfning 2-choragida bu xossalarga taaluqli ko'rsatma bor.

Ko'paytmani bir songa va aksincha, bir sonni ko'paytmaga ko'paytirish. Bu qonunlar IV sinf o'quvchilariga eng sodda (elementar) shaklda, (konkret) aniq material ustida, induksiya metodi bilan berilishi kerak. O'qituvchi ttegishli ravishda sonli misollarni tanlab oladi, ularning har birini o'quvchilar bilan sinfda tekshirib chiqadi, ayrim misollarni tekshirishdan xususiy xulosalar chiqariladi, xususiy xulosalar esa qonunning umumiy shaklini chiqarish bilan tamomlanadi, bu tekshirilgan xususiy hollarni umumlashtirishdan iborat bo'ladi. Bu xulosa muvofiq ravishda tanlab olingan misol va masalalarni yechish bilan mustahkamlanadi.


Buni misollarda ko'rib chiqamiz.

Ko'paytirishning o'rin almashtirish qonuni. Kvadratlarga bo'lingan to'g'ri to'rtburchakdan ko'rgazmali qurol sifatida foydalanamiz.

Zinapoya

O'qituvchi doskaga zinapoya rasmini chizadi va unga pastdan yuqori tomonga qiyinligi ortib boradigan tartibda sonlar yozadi,

Masalan:



O'qituvchi: – Bolalar, kim birinchi zinaga chiqadi?

Juda ko'p bolalar qo'l ko'tarishadi. O'qituvchi bir o'quvchidan so'raydi:

– Ikkinchi zinaga kim chiqadi?

Yana bir o'quvchidan so'raydi va hokazo.

Oxirgi zinaga yetib borgan o'quvchini o'qituvchi g'olib deb hisoblaydi va baho bilan rag'batlantiradi.

8. Zanjirband hisob

O'qituvchi doskaga o'zun bir misolni, har bir yangi amal oldida sal to'xtab yozadi:

$$(5 \times 7 + 46) : 9 \times 7 =$$

O'qituvchi tenglik ishorasi qo'ygan vaqtda o'quvchilarning ko'pchilida javob tayyor bo'lishi kerak.

9. To'ldirish usuli.

O'quvchi doskaga 100 sonini qo'yadi va bundan keyin birin ketin bir necha sonni aytadi o'quvchilar 100 ga to'ldiruvchi sonlarni aytib berishlari kerak.


12. Kvadratni to'ldirish.

Kvadrat ichidagi va u kataklarga bo'linadi. Bir qator sonlar beriladi.

Masakan:

1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, bu sonlar kvadratning kataklariga bittadan shunday joylashtirish kerakki, ham garezantal ,ham vertikal qatorlardagi sonlarning 15-bo'lsin.

O'qituvchi doskaga doir chizib ichiga son bilan amal ishorasi, tashqarisiga esa sonlar yozadi.



Chizg'ich bilan har qaysi sonni ko'rsatadi, bolalar esa ko'rsatilgan amalni yoddan bajaradilar.

O'qituvchi tomonidan boshqa jadvallar bo'yicha ham tez hisobni amalga oshirish mumkin.

Tez hisobla

$$(3+4-5) \times 2 + 8 =$$

$$(7 \times 6 - 2) : 4 + 9 =$$

Fanni o'qitish metodikasi ko'plab fanlar va birinchi navbatda yuqorida aytib o'tilgan tabiatshunoslik bilan chambarchas bog'liq. Tabiiy fanlar metodistga

nafaqat maktab fan kursini qurish uchun ilmiy materiallar, balki tabiatni o'rganish usullarini ham taqdim etadi.

Bilishning dialektik nazariyasi asosida tabiiy fan tushunchalarini shakllantirish va rivojlantirish metodologiyasi ishlab chiqilmoqda. "O'qitish mazmuni", "o'qitish shakllari", "o'qitish usullari" kabi metodikaning asosiy tushunchalarini aniqlashda ularning falsafiy kelib chiqishini osongina aniqlash mumkin.

O'quv jarayoni asosiy dialektik qonunlarga bo'ysunadi:

-miqdorning sifatga o'tish qonuni; qarama-qarshiliklarning birligi va kurash qonuni;

-rad etish qonuni.

Har qanday usul uchun asosiy talablar obyektivdir, ya'ni buzilishlardan, subyektiv talqinlardan va erta xulosalardan xoli bo'lgan ishonchli, ishonchli turmush o'rtog'ini berish qobiliyati. Ikkinchi talab-ishonchlilik, ya'ni takroriy dalillarni o'tkazishda natijalarning bir xilligi va turli tadqiqotchilar uchun natijalarning bir xilligi. Uchinchi talab-haqiqiyli (asoslilik) – tanlangan usulning aniq xususiyatlarini o'rganish usuli-tadqiqotchini qiziqtiradigan o'quv mashg'ulotlari. Oxirgi talab-ma'lumotlarning aniqligi-aniq farqlash, individual yondashuv bilan belgilanadi.

Pedagogik tadqiqotning barcha usullarini bir necha guruhlarga bo'lish mumkin.

Nazariy usullar fikr operatsiyalarini qo'llashga asoslangan: taqqoslash, tahlil va sintez, umumlashtirish va konkretlashtirish. Nazariy usullarga adabiy manbalarni, maktab hujjatlarini taqqoslash va tarixiy tahlil qilish, o'qituvchilarning ommaviy tajribasini o'rganish va boshqalar kiradi.

Empirik usullar obyektlarning hissiy idrokiga asoslanadi va haqiqiy materialni to'plashga xizmat qiladi. Bu o'quv jarayonini pedagogik kuzatish, shaxsiy o'qitish, eksperiment o'tkazish.

Sotsiologik usullar tadqiqotda ishtirok etadigan bolalar va o'qituvchilarning shaxsiy xususiyatlarini o'rganish uchun ishlatiladi. Bu o'qituvchilar va talabalar

o'rtasida so'rov va intervyu, so'rovnomal, testlar, talabalarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirish darajasini tahlil qilish.

Matematik usullar (tavsiflovchi statistika usullari va statistik xulosa nazariyasi). Ular olingan natijalarni matematik tahlil usullari bilan qayta ishlashga asoslangan. Bularga quyidagilar kiradi:

□ ro'yxatdan o'tish, ya'ni. tadqiqot parametrining mavjudligi yoki yo'qligi to'g'risida miqdoriy ma'lumotlarni hisobga olish va tizimlashtirish uchun yozuv (masalan, o'qishni to'g'ri va noto'g'ri bajargan talabalar soni);

□ reyting – olingan ma'lumotlarning har qanday ko'rsatkichning pasayishi yoki o'sishi tartibida joylashishi va ushbu qatorda har bir o'rganilayotgan parametring o'rmini aniqlash (masalan, qiyin tushunchalar ro'yxatini tuzish);

□ o'lchov-subyektlar o'rtasida so'rov o'tkazish orqali pedagogik faoliyatni baholashga raqamli ko'rsatkichlarni kiritish (masalan, kursning ayrim mavzularini o'rganish qiyinligi to'g'risida);

□ o'rtacha qiymatlarni aniqlash – arifmetik o'rtacha, median (qatorning o'rtasi ko'rsatkichi), dispersiya (o'rtacha ko'rsatkich atrofida tarqalish darajasi), va-riatsiya koeffitsienti va boshqalar.;

□ olingan natijalarni norma bilan taqqoslash, ko-torus bilan berilgan ko'rsatkichlardan og'ishlar aniqlanadi.

Ushbu usullar tadqiqot jarayonida olingan ma'lumotlarning ishonchligini aniqlashga imkon beradi. Statistik hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun matematik formulalar mavjud. Hozirgi vaqtda statistik ishlov berishga imkon beradigan kompyuter dasturlari mavjud, shundan so'ng to'plangan materiallar fanning mulkiga aylanishi mumkin.

Pedagogik tadqiqotlarning asosiy usullarini ularni guruhlamasdan ko'rib chiqing.

1. Ko'rib chiqilayotgan muammo nuqtai nazaridan adabiy manbalar, arxiv materiallari, hujjatlar, dasturlar va darsliklarning qiyosiy tarixiy tahlili o'tgan yillardagi uslubiy meros va tadqiqot muammosining vaqtinchalik holati bilan

tanishish imkonini beradi. Shu bilan birga, erishilgan narsalar tahlil qilinadi, qimmatli narsalar tanlanadi va o'zini oqlamagan pedagogik g'oyalar qayd etiladi.

Topshiriq- Siz tanlagan uslubiy muammo bo'yicha pedagogik tadqiqot bosqichlarini aniqlang va yozing.

7-§. Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish texnologiyasi

Reja:

1. Sinfdan tashqari ishlarning mazmuni va mohiyati.
2. Matematika va tabiiy fanlardan sinfdan tashqari tadbirlar.
3. To'garak mashg'ulotlari, konkurslar va ekskursiyalar

Maktabda bolalar bilan darsdan tashqari vaqtlarda har xil mashg'ulotlar: ekskursiyalar, to'garak ishlari, ertaliklar, sinfdan tashqari ishlar, qiziqishlar bo'yicha klublar va boshqa ishlar o'tkaziladi. Bu ishlar o'quvchilarning o'qituvchi rahbarligida ularning bilishga qiziqishlarini uyg'otish va shuningdek maktab dasturini kengaytirish hamda to'ldirish maqsadida amalga oshiriladigan darsdan tashqari ko'pchilik faoliyat shakli bo'lgan sinfdan tashqari ishlar nomini oladi.

Tabiatshunoslik bo'yicha sinfdan tashqari ishlar darslarda olingan bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va aniqlashtirish, tabiatni o'rganishga qiziqish uyg'otish, o'quvchilar faolligi va mustaqilligini rivojlantirish, bu vaqtdan umumli foydalanish, imkoniyatini beradi. Sinfdan tashqari tabiatshunoslik ishlari tarbiyaviy ahamiyatga ham ega, chunki o'quvchilarning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi. Ular moddiy dunyoga qarashni va mehnat madaniyatini shakllantiradi, bilishga qiziqishni va mustaqil kuzatish ko'nikmalarini rivojlantiradi, jamoatchilik hissini va tabiatga muhabbatni tarbiyalaydi. Tabiatshunoslik bo'yicha yo'lga qoyilgan sinfdan tashqari ishlar o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish vositalaridan biridir.

Uzoq muddatli tajribalar qoyish, gerbariy va kolleksiyalar uchun material yig'ish, model, maket va boshqa ko'rgazmali qurollar tayyorlash, tirik tabiat

burchagi va o'quv-tajriba maydonchasidagi ishlar kabi sinfdan tashqari ishlarining shakllari tabiatni o'rganishni hayot bilan bog'lash va o'quvchilarni politexnik tayyorgarlik uchun ahamiyatli bo'lgan amaliy o'quv va ko'nikmalar bilan qurollantirish imkoniyatini beradi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarning barcha turlari bir-biriga bog'liq bo'lishi, biri ikkinchisini to'ldirishi kerak. O'simlik va hayvonlar bilan ishlashga darslarda vujudga kelgan qiziqish sinfdan tashqari mashg'ulotlarda rivojlanishi mumkin, ayniqsa tabiatshunoslik bilan qiziqqan o'quvchilar esa yosh tabiatshunoslar to'garagiga birlashtirilishi mumkin. O'quvchilarda tabiiy obyektlarni kolleksiyalashtirishga moyillikni, hayvonlarga muhabbatni payqagan o'qituvchi ularning qiziqishlariga qarab mashg'ulotlar topishi, tabiat to'g'risidagi fanni chuqurroq o'rganish istagini rivojlantirish zarur.

Tabiatshunoslik bo'yicha sinfdan tashqari ishlarga tabiatni o'rganish va muhofaza qilish, o'simliklarni o'stirish, hayvonlarni parvarish qilish bilan bog'liq bo'lgan xilma-xil mashg'ulotlar kiradi. Bu mashg'ulotlar darslarni takrorlamasligi va faqat darslarda olingan bilimlarga asoslanishi kerak. Tabiatdagi amaliy ishlar kuzatishlar va tegishli kitoblar o'qish bilan birga olib borilishi kerak.

Tabiatshunoslikda sinfdan tashqari to'garak ishlari o'qituvchi rahbarligida olib boriladi.

Avvalo to'garakning ish rejasi tuzib olinadi. Rejani tuzishda mashg'ulotlar mavzusi dars mashg'ulotlari mavzusini takrorlamasdan, ularga asoslangan holda bir-birini to'ldirishi kerak. To'garak ishlari ham darsda olgan nazariy va amaliy bilimlarni yanada mustahkamlash uchun xizmat qiladi.

“Nonni e'zozlang” kechasi uchun reja:

1. Kirish. Kechani olib boruvchilarning tabrigi.
2. Non tayyorlashning tarixi haqida ma'ruza.
3. Non ishlab chiqarish haqida, bug'doy navlari haqida ma'ruzalar.
4. Tanaffus vaqtida o'quvchilar tomonidan tayyorlangan non haqidagi she'r va qo'shiqlarning ijro etilishi, maqollarning yoddan aytilishi.

Zero, mustaqil, ongli faoliyat yuritadigan insongina o'z xalqi, Vatani, ota-onasi oldidagi burchini uddalay oladi va har qanaqa yot ta'sirlarga berilib ketmaydi, inson degan ulug' nomga munosib ish ko'radi.

Shuningdek, mustaqil fikr yuritadigan inson o'z-o'zini anglaydi, o'zining xatti-harakati va odamlar bilan munosabatiga tanqidiy baho bera oladi, umuminsoniy axloq normalariga rioya etadi, mustahkam e'tiqodga ega bo'ladi.

M.N. Skatkin tabiiyot metodikasi bo'yicha XX asrning 50-yillarida nashr etgan ilmiy ishlarida kichik yoshdagi o'quvchilarning tabiatshunoslikka oid bilimlarni o'zlashtirishlariga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa metodlar bilan bir qatorda kuzatish metodiga alohida urg'u berdi, uning yordamida tabiat to'g'risida aniq tasavvur va tushunchalar shakllanishini ta'kidladi. U o'quvchilarning o'qituvchi rahbarligidagi kuzatishlaridan keyin jonli tabiat burchagida yoki bevosita tabiatda mustaqil kuzatishlar olib borishlarini taklif qildi. Uning fikricha, mustaqil kuzatishlar o'tkazish oldidan o'qituvchi kuzatishning maqsadi, mazmuni va metodikasini tushuntirib berishi kerak.

M.N. Skatkin o'z tadqiqotlarida tabiatshunoslik bo'yicha sinfdan tashqari ishlar tashkil qilish metodikasi hamda tabiatni o'rganishga oid mashg'ulotlarda bolalarning bilish faoliyatini faollashtirish masalalariga katta e'tibor berdi. Tabiatda, o'quv-tajriba maydonida va sinfdan kuzatish hamda tajribalar o'tkazish zararliligi to'g'risida P.A.Zavitayevning "Boshlang'ich maktabda tabiiyot bo'yicha kuzatish va tajribalar" nomli kitobida ham shunday fikr yuritiladi.

Unda o'rganilayotgan har qanday hodisa haqidagi tasavvurlarni kitoblardan material o'qish bilan to'ldirish hamda mustahkamlashni talab qiluvchi kuzatish va tajribalarning aniq metodikasi bayon qilinadi.

Ekskursiyalar, predmetli darslar va kuzatishlar o'tkazish metodikasini yorituvchi boshqa nashrlar ham vujudga keldi. Jumladan, A.K.Verzinaning ishi nashr qilindi, unda 1-4- sinflarda ob-havoni kuzatish tizimi taklif qilingan, kuzatish natijalaridan ona tili va rus tili, arifmetika, geografiya va tabiiyot darslarida,

maktab o'quv-tajriba maydonidagi amaliy mashg'ulotlar jarayonida foydalanish uslublari keltirilgan.

1-4- sinf o'quvchilari uchun "Kuzatish kundaliklari" 1959-yildan nashr qilina boshlandi, uning muallifi V.A.Valerianova kundaliklarga o'quvchilarning ob-havoni, o'simlik va hayvonlar hayotidagi o'zgarishlarni, qishloq xo'jaligida odamlarning mehnat faoliyatini muntazam ravishda kuzatishlarni tahlil qilishda o'qituvchiga yordam beruvchi qo'shimcha material vazifasini qo'ydi.

Boshlang'ich sinf tabiatshunoslikdan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda quyidagi amaliy uslublardan foydalanish samarali natijalarni beradi:

1. O'quvchilarning tarqatma didaktik material bilan turli narsalar yasashi;
2. Rasm chizishi;
3. Tabiat obyektlarini tanib olish va aniqlash bo'yicha ishlari;
4. Hodisalarni kuzatish va qayd qilishlari;

Tajriba o'tkazishlari (tajriba vositasida masalalarni hal qilish) kiradi

Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda qo'yiladigan pedagogik-psixologik talablar. Darsdan tashqari ishlar uy ishlari (vazifalar)ga qaraganda murakkabroqdir. Ularni amalga oshirish uchun tegishli o'simliklar, maxsus asboblardan va boshqa jihozlar talab qilinadi. Darsdan tashqari ishlariga: tirik tabiat burchagidagi, o'quv-tajriba maydonchasidagi va tabiatda yozgi topshiriqlar bo'yicha bajariladigan ishlar kiradi. Bu ishlar o'quvchilarning o'qituvchi rahbarligida ularning bilishga qiziqishlarini uyg'otish, shuningdek, maktab dasturini kengaytirish hamda to'ldirish maqsadida amalga oshiriladigan darsdan chetdagi ko'pchilik faoliyat shakli bo'lgan sinfdan tashqari ishlar nomini oladi.

Tabiatshunoslik xonalarida va tirik tabiat burchagida o'tkaziladigan ishlar uchun o'quvchilarga topshiriqlar darslarda kursning barcha mavzulari uchun o'quv yili davomida berib boriladi. Tabiatshunoslik fanlarining o'qitilishida o'quvchilar bilan olib boriladigan sinfdan tashqari mashg'ulotlarning majburiy bo'lmagan ko'ngilli shakllari: indiviudal ishlar, sinfdan tashqari, "Yosh tabiatshunoslar" to'garagining ishi, ommaviy kechalar, ijtimoiy foydali ishlar keng qo'llaniladi. Sinfdan tashqari ish o'quv materiali asosida va unga bog'liq holda uyushtiriladi.

Biroq uning mazmuni darsni takrorlamaydi. Dastur doirasi bilan cheklanmaydi, ammo uni to'ldiradi va tabiat haqidagi fanning qiziqarli hamda kerakli tomonlarini ochib beradi.

Tabiatshunoslik bo'yicha sinfdan tashqari ishlar darslarda olingan bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va konkretlashtirish, tabiatni o'rganishga qiziqish uyg'otish, o'quvchilar faolligi hamda mustaqilligini rivojlantirish, vaqtni rejalashtirish imkoniyatini beradi. Sinfdan tashqari tabiatshunoslik ishlari tarbiyaviy ahamiyatga ham ega, chunki bu ishlar o'quvchilarning xulq-atvoriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ularning moddiy dunyoga qarashi va mehnat madaniyati shakllanadi, bilishga qiziqishi, mustaqil kuzatish ko'nikmalari rivojlanadi, jamoatchilik hissini va tabiatga muhabbatni teranlashtiradi. Tabiatshunoslik bo'yicha yo'lga qo'yilgan sinfdan tashqari ishlar o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish vositalaridan biridir.

Uzoq muddatli tajribalar o'tkazish, gerbariy va kolleksiyalar uchun material yig'ish, model, maket va boshqa ko'rgazmali qurollar tayyorlash, jonli tabiat burchagi va o'quv-tajriba maydonchasidagi ishlar kabi sinfdan tashqari ishlarining shakllari tabiatni o'rganishni hayot bilan bog'lash va o'quvchilarni politexnik tayyorgarlik uchun ahamiyatli bo'lgan amaliy o'quv va ko'nikmalar bilan qurollantirish imkoniyatini beradi.

Bolalarning kuzatishlari va o'qituvchining tushuntirishlari bilan olib boriladigan qishloq xo'jaligi bo'yicha amaliy ishlari tabiatni boshqarish, uni inson manfaati uchun o'zgartirish to'g'risidagi ta'limot asoslarini tushunib olishlariga yordam beradi. Bolalarning ijtimoiy-foydali faoliyatlari ularni mehnatga o'rgatadi va vatanparvarlik tarbiyasiga ko'maklashadi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarning barcha turlari bir-biriga bog'liq bo'lishi, biri ikkinchisini to'ldirishi kerak. O'simlik va hayvonlar bilan ishlashga darslarda vujudga kelgan qiziqish sinfdan tashqari mashg'ulotlarda rivojlanishi mumkin, ayniqsa, tabiatshunoslik bilan qiziqqan o'quvchilar yosh tabiatshunoslar to'garagi mashg'ulotlariga qatnashishlari mumkin. O'quvchilarda tabiiy obyektlarni kolleksiyalashtirishga moyillikni, hayvonlarga mehri payqagan o'qituvchi ularning qiziqishlariga qarab

mashg'ulotlar topishi, tabiat to'g'risidagi fanni chuqurroq o'rganish istagini rivojlantirishi zarur.

Sinfдан tashqari ishlarning mazmuni alohida Tabiatshunoslik bo'yicha sinfdan tashqari ishlarga tabiatni o'rganish va muhofaza qilish, o'simliklarni o'stirish, hayvonlarni parvarish qilish bilan bog'liq bo'lgan xilma-xil mashg'ulotlar kiradi. Bu mashg'ulotlar darslarni takrorlamasligi va faqat darslarda olingan bilimlarga asoslanishi kerak. Bolalar e'tiborini tabiat, shuningdek, maktab jonli burchagi va o'quv-tajriba maydonidagi kuzatishlarga qaratmoq; ko'cha va maktabni ko'kalamzorlashtirish, qushlarni muhofaza qilish va qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi kurash bo'yicha ijtimoiy-foydali mehnatni tashkil qilmoq lozim. Tabiatdagi amaliy ishlar kuzatishlar va tegishli kitoblarni o'qish bilan birga olib borilishi kerak.

Sinfдан tashqari ishning jadal borishi uchun uni tashkil etish shakllarini puxta o'ylab chiqish zarur. Sinfдан tashqari ishlarni uch guruhga bo'lish mumkin:

- 1-guruhga ko'plab o'quvchilarni qamrab oluvchi ommaviy ishlar, tadbirlar;
- 2-guruhga cheklangan o'quvchilar doirasida olib boriladigan to'garak ishlari;
- 3-guruhga tabiatni o'rganishga qiziqqan ayrim o'quvchilar bilan olib boriladigan ishlar kiradi.

Ommaviy mashg'ulotlar kinofilmlarni namoyish qilishni, tabiatga ekskursiya va yurishlar o'tkazishni, ertaliklar, o'quvchilar ishlarining ko'rgazmasini tashkil qilishni, shuningdek, ommaviy tadbirlar (hosil kuni, bog' haftaligi, daraxtlar o'tqazish haftaligi, qushlar kuni va boshqalar)ni o'tkazishni nazarda tutadi.

Guruh mashg'ulotlariga yosh geograflar, yosh tabiatshunoslar kabi klub ishlari kiradi.

Individual mashg'ulotlar devoriy gazetalar, albomlar chiqarishni; jonli tabiat burchagi va maktaboldi o'quv-tajriba maydonidagi, tabiatdagi ishlarni; darsdan tashqari o'qish va axborot burchagi uchun tabiatshunoslik mazmunidagi materiallar tanlashni, bolalar ilmiy-ommabop kitoblariga taqriz yozishni o'z ichiga oladi.

Individual ishlar. Tabiatni bilishga moyillik yoki hech bo'lmaganda qiziqishga ega bo'lgan o'quvchilar bilan tabiatshunoslik bo'yicha individual ishlar olib boriladi. Bolalarda tabiatga qiziqish vujudga kelishida o'qituvchining shaxsi, uning tabiatga muhabbati va munosabati, o'quvchilarni ergashtira va qiziqitira olish uquvi katta rol o'ynaydi. Uning 1- sinfdan kuzatishlarni qanday tashkil qilishiga, bu ishning zararlari va muhimligini qanchalik asoslashiga, tabiatshunoslikni o'qitishni qanday yo'lga qo'yishiga o'quvchilarning bilim sifatigina emas, balki darsdan tashqari vaqtlarda tabiatshunoslik ishlari bilan ishlashga istaklari ham bog'liqdir.

Individual topshiriqlarni bajarish tadqiqiy ish ko'nikmalarini shakllantiradi, bolalarning bo'sh vaqtlarini foydali va qiziqarli ishlar bilan to'ldiradi. Individual topshiriqlarning mazmuni o'quvchilarning qiziqishlari bilan belgilanadi. O'quvchini nimaiki qiziqitmasin - xona o'simliklarini parvarish qilishmi, hayvon va o'simliklar tasvirlangan marka yoki otkritkalarini to'plashmi, gerbariy tuzishmi, tabiatda tajribalar va kuzatishlar o'tkazishmi-u o'qituvchi tomonidan ma'qullanishi va quvvatlanishi lozim. Individual topshiriqlar o'quvchilarning qiziqishlariga qarab tanlanadi, ammo topshiriqlarning mazmuni ularning bajarilishini tashkil qilishi va metodikasi o'qituvchi tomonidan sinchiklab o'ylangan bo'lishi kerak (o'rganish obyekti, kuzatish yoki ish joyi belgilanadi, reja tuziladi). Ishning oxiriga yetkazilishi va unga qiziqishni yo'qotmasligi uchun individual topshiriqlar bajarilishida o'qituvchi o'quvchilarga muntazam yordam ko'rsatib borishi zarur.

Gerbariy yoki kolleksiyalar tuzish kabi shunday topshiriqlarning bajarilishi faqat o'qituvchi o'quvchilarni oldindan o'sirrdik, hasharot va boshqa tabiat obyektlarini yig'ish, o'simliklarni kuzatish, to'plangan materiallarni montaj qilish va shu kabilarning qoidalariga o'rgatgandagina muvaffaqiyatli bo'ladi. Shu maqsadda tabiatga o'quv ekskursiyasi va mehnat ta'limi darslaridan foydalaniladi. Tabiiy material to'plash qoidalari haqida hikoya qila borib, o'quvchilarga tabiatni muhofaza qilish zarurligini eslatish kerak. Individual topshiriqlarning bajarilishini tekshirib borish kerak, ish oxirida uning natijalari bilan o'quvchilarni tanishtirish zarur.

Individual ishlarning amaliy ahamiyati faqat o'quvchilar uni amalga oshirish zarurligini tushunganlaridagina ta'minlanadi. Shunga ko'ra bajarilgan ish to'g'risida vaqt-vaqti bilan (tabiatshunoslik darslarida yoki sinfdan tashqari mashg'ulotlarda) hisobot tinglab borish foydalidir. Bunda har bir individual ishning natijalari barcha o'quvchilarning boyligi bo'lib qoladi. Bunday hisobotlar sinfdan tashqari ishlarga qiziqishni rag'batlantiradi, o'qituvchining tabiatga oid bilimini to'ldiradi va kengaytiradi, ularni sinfdan tashqari ishlarning barcha shakllarida faol qatnashishlariga olib keladi.

Guruh mashg'ulotlari. Tabiatshunoslik bo'yicha sinfdan tashqari ishlarning guruh bo'lib o'tkaziladigan shakllaridan biri to'garak ishidir. U muayyan ishtirokchilar doirasini qamrab oladi va tabiatni chuqurroq o'rganish imkoniyatini beradi. To'garakka a'zo bo'lish ixtiyoriydir, ammo unga kiruvchi o'z zimmasiga aniq reja bo'yicha ishlash va boshlagan ishini oxiriga yetkazish majburiyatini oladi. Rejaga o'quvchilar bajarishga kuchi yetadigan ishlar kiritilishi lozim. O'qituvchining asosiy vazifasi - amaliy natijalar beruvchi faol ishlarni ta'minlashdir. Ishda har xil: o'qituvchi va o'quvchilarning tabiiy yoki tasviriy ko'rgazmali qurollarni namoyish qilish bilan og'zaki bayon qilishi, amaliy o'quv va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'quvchilarning ijtimoiy-foydali mehnati va boshqa metodlar to'g'ri uyg'unlashtirilishi lozim.

To'garakni muvaffaqiyatli ishlashida mashg'ulotlar o'tkazishga tayyorlanish katta ahamiyatga ega. Birinchi mashg'ulot oldidan uni o'tkazish vaqti to'g'risida eslatish, to'garak vazifalari bilan o'quvchilarni tanishtiruvchi, kirish suhbatining mazmunini barcha tafsilotlari bo'yicha o'ylab chiqish zarur. To'garakning ish rejasini tuza turib, mo'ljallangan mavzuni o'quvchilar bilan muhokama qilish va ularning taklif-istaklarini hisobga olish kerak. To'garakning birinchi mashg'ulotida uning faollari yoki kengashi (sardori, uning muovuni, muharririyat a'zolari) saylanadi va nomi ("Hamma narsani bilishni istayman", "Biz va tabiat", "Yosh tabiat- shunoslar", "Tabiatni sevuvchilar" va boshqalar) tasdiqlanadi. Eng yaxshi nom uchun tanlov e'lon qilinishi mumkin. Shuningdek, to'garakda qatnashuvchilarning xulq-atvori qoidalarini ishlab chiqish va tasdiqlash zarur.

Qoidalar quyidagicha:

- 1) ishda faol qatnashish;
- 2) barcha topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish;
- 3) har bir ishni nihoyasiga yetkazish;
- 4) kuzatishlar va bajarilgan ishlar kundaligini yuritish;
- 5) o'rtoqlariga yordam berish;
- 6) mashg'ulotlarga muntazam qatnashish

To'garak ishiga o'qituvchi rahbarlik qiladi. Davomatni sardor yoki uning muovini maxsus jurnalda olib boradi. Mashg'ulotlar ikki haftada bir marta muayyan kun va soatlarda o'tkaziladi.

Birinchi mashg'ulotda faqat tashkiliy masalalar bilan cheklanmaslik kerak. O'quvchilarga kichikroq, lekin qiziqarli kirish materialini berish kerak, toki ular to'garak ishiga qiziqsinlar va nima bilan shug'ullanishlari haqida dastlabki (taxminiy) tasavvurlarga ega bo'lsinlar. Ishni diafilm, diapozitiv ko'rish, tabiatshunoslik mazmunidagi ilmiy-ommabop adabiyot o'qish bilan boshlash ma'qul.

Har bir yosh tabiatshunos yoki uch-to'rt o'quvchidan iborat kichik guruh o'qituvchi yordamida o'zlari uchun muayyan mavzuni tanlaydilar. To'garak rahbarining vazifasi har bir ishtirokchini u uddalaydigan foydali mavzu bilan qiziqtirishdir. To'garakda o'tkaziladigan ish xilma-xil bo'lishi, lekin umumiy maqsadga - jonajon tabiatni o'rganishga birlashtirilishi zarur. "Hamma narsani bilishni istayman" to'garagining (3-4- sinflar) ishini quyidagi reja bo'yicha tashkil qilish mumkin:

- 1) kirish mashg'uloti;
- 2) tabiatga ekskursiya ("Kuz in'omlari") mavzusi;
- 3). "Jonajon o'lkani qushlari", "Yilning har xil fasllarida o'simliklar", "Yilning har xil fasllarida hayvonlar" diafilmlarini ko'rish;
- 4) "Tabiat ustaxonasi", "Soat gullar", "Ularni muhofaza qilish kerak" kabi otkritkalar turkumi bilan ishlash;
- 5) "Oltin kuz" ertaligi;

- 6) “Qanotli do‘stlarga yordam” operatsiyasi;
- 7) tabiat (o‘lkashunoslik) muzeyiga ekskursiya;
- 8) “Qizil kitoblarni” to‘g‘risida suhbat; bu kitoblarga kiritilgan o‘simlik va hayvonlarni tomosha qilish;
- 9) tabiatga ekskursiya (mavzu “Sehrli dorixona”);
- 10) to‘garak ishlarini yakunlash.

Mashg‘ulotlarda xilma-xil: o‘qituvchi va o‘quvchilar hikoyasi, suhbat, amaliy ishlar bajarish (kolleksiya va gerbariyalar yasash, tajribalarga tayyorlanish va o‘tkazish), tabiatda o‘tkazilgan kuzatishlarni muhokama qilish uslublaridan foydalaniladi.

O‘qitishning texnika vositalari hamda qiziqarli material to‘garak ishlarining majburiy elementidir.

Klub ishi. Tabiatshunoslik bo‘yicha sinfdan tashqari ishlarda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari klub ishlaridan keng foydalanadilar, ularni boshqa ish shakllaridan farqi shundaki, klubda bolalar erkinroq faoliyat yuritishlari mumkin, o‘zaro munosabatlar uchun erkin vaziyat yaratiladi, o‘yinlarga ehtiyoj va qiziqish qanoatlantiriladi.

Klub majlislarida o‘quvchilar o‘zlarini qiziqtirgan: Bu nima? Nima uchun bu yuz beradi? Qayerda buni ko‘rish, bilish, o‘qish mumkin? kabi savollarga mustaqil javoblar olishga o‘rganadilar. Klub majlisining zarur elementlari o‘quvchilarning savollari va javoblaridir, javoblar topilgan manbalarning albatta ko‘rsatilishidir. Bu ish bilan barcha o‘quvchilarni qiziqtirish uchun sinfga “So‘rang, javob beramiz” yoki “Nimachining savollari” yozilgan quti qo‘yiladi, unga savollar yozilgan varaqchalar solinadi.

Klubning navbatdagi majlisidan bir hafta oldin o‘qituvchi savollarni mazmuniga qarab guruhlashtiradi, klub a‘zolari orasida taqsimlaydi va javob topishni taklif qiladi. Javoblar tayyorlash uchun o‘qituvchi klub a‘zolariga ma‘lumotnoma va ilmiy-ommabop adabiyotga murojaat qilishni, agar kerak bo‘lsa, tabiatda yoki jonli tabiat burchagida kuzatishlar, oddiy tajribalar o‘tkazishni tavsiya qiladi. Savollarga javob berishni jism va hodisalar (o‘simliklar gerbariyasi,

hayvonlar chuchelasi yoki ularning rasmlari, diapozitiv, diafilm, tajriba va hokazolar)ni ko'rsatish bilan olib borgan ma'qul.

Klub mashg'ulotlarini o'tkazishga bunday tayyorgarlik bolalarda faqat kuzatuvchanlikni, qo'shimcha adabiyot bilan ishlash va savollarga to'g'ri javob berish uquvinigina emas, balki ko'rsatish uchun material tanlash uquvlarini ham rivojlantiradi, javoblarni ancha isbotli va esda qoluvchi bo'lishini ta'minlaydi, boshqa klub a'zolarida ham savollarni chuqur va qiziqarli yoritishga intilishni vujudga keltiradi.

Klub yig'ilishi o'tkazilayotgan sinfda burchak yoki axborot stendi (taxtasi)ni jihozlash kerak, ularda bo'lajak yig'ilishlar, ularning mavzusi, adabiyotni tavsiya qiluvchi ro'yxat to'g'risida bildirish joylashtiriladi. Bu yerda kitoblar, ko'rgazmali qurollar, tabiiy materiallardan tayyorlangan ko'rgazmalar ham qo'yiladi.

Ommaviy ishlar. Tabiatshunoslik bo'yicha sinfdan tashqari ommaviy ishlar ekskursiyalar, tanlovlar, diapozitiv va kino-filmlarni ko'rsatish bilan birga tematik kechalar, har xil tadbirlar (qushlar kuni, gullar, daraxtlar o'tqazish, Hosil bayramlari va boshqalar)ni ham o'z ichiga oladi. Ulardan maqsad - sinfdan tashqari ishlarga iloji boricha ko'proq o'quvchilarni jalb etish, ularda qatnashishga ishtiyoq va xohishni uyg'otish, bolalar faolligini yo'lga qo'yish, ularni ijtimoiyfoydali ishlarga yo'naltirish, bolalarda tashkilotchilik qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishdir.

Ommaviy ishlar uzoq va puxta tayyorgarlikni talab qiladi. U yoki bu tadbirni o'tkazish uchun oldindan uncha katta bo'lmagan tashabbuskorlar guruhini tanlash va reja ishlab chiqish, topshiriqlarni hamma qatnashchilarga taqsimlash kerak. Guruhning har bir a'zosi o'z zimmasiga rejaning muayyan bo'limini bajarish mas'uliyatini oladi. Chunonchi, "Bahor keldi" nomli bayram tadbiriga tayyorlanishda o'quvchilardan biri bahor to'g'risida axborot beradi, boshqasi-otaliqqa olingan sinf bilan badiiy havaskorlikni uyushtiradi, uchinchi - ijrochilar uchun kiyim-kechak, to'rtinchi - devoriy gazeta tayyorlaydi va hokazo.

Tadbirga tayyorlanish tabiat to'g'risidagi o'z bilimlarini kuzatishlar yoki kitoblarni o'qish yordamida to'ldirish zarurati bilan bog'liq bo'lishi lozim.

Chunonchi, bahor (ochiq kunlar, o'simlik va hayvonlarning uyg'onishi, qushlarning uchib kelishi) to'g'risidagi bayon (axborot) ni tayyorlash kuzatishlar va tabiatdagi bahorgi o'zgarishlar to'g'risidagi adabiyot o'qish bilan bog'liqdir. Tadbir rejada belgilangan vaqtda barcha o'quvchilarning faol ishtirokida o'tkazilishi kerak. (Ota-onalar ham taklif qilinishi mumkin). Uyushqoqlik, chiroyli rasmiylashtirish (bezatish), yorqin chiqishlar shunday tadbirlarning uzviy qismlaridir. Ular ishtirokchilar xotirasida kechinmalarni saqlovchi va tabiatni o'rganish hamda muhofaza qilish bo'yicha ishlarni chuqurlashtirish uchun rag'bat bo'lib xizmat qiluvchi hissiy ko'tarinkilikni vujudga keltiradi.

Mazkur muammolarning ijobiy hal etilishi ta'lim –tarbiya jarayonida muayyan samaradorlikka erishish bilan bir qatorda barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalashga imkon beradi. Ushbu muammolarni ijobiy hal etishda psixologik xususiyatlarni ham inobatga olish zarur.

Boshlang'ich sinfda bola idrokining o'tkirligi, ravshanligi, sofligi, aniqligi, o'zining qiziquvchanligi, ishonuvchanligi, xayolining yorqinligiga, xotirasining kuchliligiga, tafakkurining yaqqolliigi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Ularda idrok. diqqat, xotira, tafakkur va nutq to'liq shakllanib bo'lgani uchun ham ta'lim berishda kattalarga qo'llaniladigan uslublardan foydalanish mumkin. Tafakkurning rivojlanishini bu yoshdagi bola psixikasining sog'lomligida, uning bilish faolligida ko'rish mumkin. Masalan, bola o'zi mustaqil ravishda qanday predmetlar suvda cho'kishi, qaysilari cho'kmasligini tadqiq qila oladi. Ayniqsa, bolaning „Men shuni xohlayman“ motividan „Men shuni bajarishim kerak“ motivi ustunlik qila boshlaydi. Biroq bu yosh davri o'quvchilarning psixologik xususiyatlari ular tomonidan murakkab o'quv materiallari mohiyatini chuqur anglashga imkon bermaydi. Shuningdek, ma'lumotlarning ular tasavvur eta olmaydigan dalillar yordamida berilishi bilimlarning pasayishiga olib keladi. Bunday holatning oldini olish uchun soddah tushuntirishlar bilan birga ruhshunos A. Mallaboyev aytganidek, har bir bolaga individual yondashish muhim ahamiyatga ega.

Bolani qor, yomg'ir qanday yog'ishi, quyosh kechasi qayerda bo'lishi, mashina qanday qilib yurishi, yerdan osmongacha bo'lgan masofani bilish juda qiziqtiradi. Bu ularning „Nima uchun”, „Qanday qilib”, „Nima orqali” kabi savollarga javob olishiga qaratilgan bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar, asosan, o'zlari ko'rib turgan narsa haqida chuqurroq fikr yurita oladi. Shu sababli nafaqat, tabiatshunoslik. darslarida balki sinfdan tashqari ishlarda ishlarda ham ko'rgazmali vositalardan foydalanish lozim.

Tabiatshunoslik fanini o'rganishda kuzatish, ekskursiya, tajriba, amaliy ishlar yetakchi o'rin tutadi. Bolalarni kuzatish usullariga o'rgatish, ularning natijalarini kundalik daftarga belgilash, ular asosida xulosalar chiqarish davom ettiriladi. Ekskursiyalar o'tkazishga, tabiat ashyolari va voqeligini tabiiy holatda o'rganishga katta e'tibor beriladi. Bu ko'rgazma asosida sinfdan o'tkaziladigan sinfdan tashqari ishlarga ham tegishli. "O'zbekiston tabiatini asrash" mavzusini o'rganishda o'quvchilar Respublikamiz ekologik muammolari va tabiatni asrash ishlari bilan tanishadilar.

1986-yildan boshlab maktablarda 4 yillik boshlang'ich ta'limga o'tish munosabati bilan boshlang'ich sinf uchun atrof olam bilan tanishtirish bo'yicha dastur hamda "Atrof olam bilan tanishtirish" kursi bo'yicha o'quv - metodik komplekslar (darsliklar, metodik qo'llanmalar, kuzatishlar kundaligi) nashr qilindi. Ushbu dastur va darsliklar Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng uning dastlabki yillariga qadar amalda bo'ldi.

O'zbekiston respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablari asosida ta'limning maqsadi, vazifalari, mazmuni, shakli, vositalari birinchi darajali ehtiyojga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan "Uzluksiz ta'lim tizimida davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida"gi 1998 yil 5 yanvar qarori chiqdi va ushbu qarorga binoan "Davlat ta'lim standarti to'g'risidagi Nizom" tasdiqlandi. Unda boshlang'ich ta'lim 4 yillik deb qabul qilindi va 1-2 sinflarda "Atrofimizdagi olam" va

3-4 sinflarda “Tabiatshunoslik” fanlarining o‘qitilishi ko‘rsatib o‘tildi.

Tabiatshunoslik bo‘yicha daftar tutish. 1- sinfdan boshlab o‘quvchilar atrof olam bilan tanishishlar bilan bog‘liq ijodiy ishlar uchun daftar tutishlari kerak. Bu ularga kuzatuvchanlikni rivojlantirish va tabiat to‘g‘risidagi bilimlarni umumiy lashtirishga yaqindan yordam beradi. Daftarlarda asosiy o‘rinni ko‘pincha o‘quvchilarning uy vazifasi sifatida mustaqil chizgan rasmlari egallaydi.

Rasm chizish yoki savollarga javob tarzida yozuvlar yuritish uchun o‘quvchilar materialni oldindan o‘zlashtirgan bo‘lishlari kerak. Birinchi yarim yillikda o‘quvchilar daftarga hech narsa yozmaydilar, faqat rasmlar chizadilar, o‘quv yilining ikkinchi yarmida ular shu rasmlar ostiga qisqacha izoh — so‘zlar yozadilar.

Xat-savodga o‘rgatishning alifbe davrida o‘quvchilar bog‘ va xiyobonlarning daraxtlari bilan tanishish maqsadida o‘tkazilgan ekskursiyadan keyin har xil shakldagi barg plastinkalarini qog‘oz varag‘iga qo‘yib, uning atrofidan chizib chiqadilar. Keyin ular bargni kuzatadilar va uning ovalsimon, kesik, tishli qirg‘oqlarini, tomirlarini hamda bandini chizadilar, chizilgan barg shakliga bo‘yoq beradilar. Mustaqil rasm chiza oladigan o‘quvchilar bargni qog‘oz varag‘iga qo‘ymasdan chizadilar. Chizilgan rasm yoniga bargning o‘zi yelimplab qo‘yilsa ham bo‘ladi. O‘quv yilining ikkinchi yarmida o‘quvchilar rasmlar tagiga “Chinor bargi”, “Terak bargi” kabi yozuvlarni yozadilar. Yil fasllari haqidagi hikoyalar o‘qilgandan keyin o‘quvchilar sujetli suratlarini chizishlari mumkin. Biror o‘simlikni kuzatish paytida o‘quvchilar e‘tiborini o‘simliklarning rivojlanishi bilan bog‘liq jarayonga qaratish va kuzatish holatini kunlar bo‘yicha yozdirib borish kerak. Masalan, “20-fevralda o‘rik daraxtida kurtaklar paydo bo‘ladi”, “25-fevralda o‘rik gulladi”, “Gullash 5 kun davom etdi” tarzida. Ishni osonlashtirish maqsadida 1- sinf o‘quvchilariga qator topshiriqlar beriladi, topshiriqlarga ko‘ra ular faqat o‘simlikning rivojlanishini xarakterlovchi kunlarni daftarga belgilab boradilar.

2- sinfda o‘quvchilar “Kuzatishlar kundaligi” va ijodiy daftarlar bilan ish olib boradilar. 3- sinfdan boshlab tabiatshunoslik sistematik kursini o‘rganish bilan

bog'liq holda daftarlarida ancha murakkab ishlarni yuritadilar. Tabiatshunoslik bo'yicha daftar yuritishning mazmuni quyidagilar bo'lishi mumkin:

-tushuntiravchi yozuvli rasm. Asliga qarab chizish yaxshi. Masalan, amaliy mashg'ulotda "G'o'za" mavzusini o'rganishda o'quvchilar g'o'zaning qismlari bilan rasmini chizadilar. Agar darsda vaqt yetarli bo'lmasa, rasm chizish uyda tugallanadi. O'qituvchining doskaga chizganlarini daftarga chizish mumkin. Har bir rasm odatda uning ayrim qismlarini ifodalaydigan tegishli yozuvlar ko'rinishidagi tushuntiravchi matnga ega bo'lishi kerak (masalan, ildiz, poya, barg, gul, meva);

-o'qitish oxirida olingan qisqacha ta'riflar, umumlashtirishlar, tavsiyalar. Masalan, "plan", "masshtab", "kompas" tushunchalarining ta'rifini yozish, u yoki bu tabiiy zona uchun "Qazilma boyliklarning xususiyatlari" jadvalini tuzish mumkin;

-yangi qiyin atamalar;

-uy vazifasini tayyorlash rejasi, javoblar tayyorlash kerak bo'lgan savollar; -beriladigan savollargayozmajavoblar;

-yozma ishlar, uyda yoki jonli tabiat burchagidagi tajribalarning natijalari. Masalan, o'quvchiga uyda biror o'simlikni qalamchasidan o'stirish topshirig'i berilgan. U daftariga qalamchanning qachon kesilgani va suvga solinganini, qachon ildizchalar hosil bo'lganini yozib borishi, shuningdek, rivojlanishning har xil davridagi qalamcha rasmini chizishi kerak.

Daftarlarda shu kabi xilma-xil va qiziqarli material to'planib boradi, u tabiatshunoslikni o'rganishni osonlashtiradi. O'quvchilarning daftarlaridagi barcha yozuv va rasmlar muntazam, o'z vaqtida va batartib bajarilishi lozim. Ishning bajarilmasligi javobning bahosini pasayishiga olib keladi. Daftarlarda muntazam va sinchiklab tekshirib borilishi, biroq o'quvchilar javob berayotganlarida ularga birrov qarab chiqilishi lozim. Tekshirishda yozuv va rasmlarning to'g'ri bajarilganligi aniqlanadi. O'quvchilarning daftardagi ishlari albatta baholanadi.

Kundalik kuzatish daftari va tabiat hamda mehnat kalendari (taqvim). Birinchi sinfda kuzatishlar o'quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab olib boriladi.

Ob-havoning o'zgarishlarini kuzatish g'oyat muhimdir. Osmonning holatlarini kuzatish jarayonida "ochiq", "bulutli", "kam bulutli" tushunchalari; Quyoshni kuzatishda - "sovuq", "juda sovuq" ("ayoz"), "iliq", "issiq"; shamolni kuzatganda - "kuchli", "kuchsiz" tushunchalari shakllanadi. Shu vaqtning o'zida bolalar yog'inning har xil turlari - yomg'ir, qor, do'l, tuman, qirov, buldurug' haqida tasavvurga ega bo'ladilar.

Bolalar asta-sekin ob-havoni kuzatish natijalarini kundaliklari va sinf tabiat kalendarida har kuni belgilab borishga odatlanadilar. Ob-havo va shamolning kuchi, sekundiga necha metr tezlikda esgani darslikda keltirilgan shartli belgilar bilan belgilanadi.

Ob-havoni kuzatishdan tashqari o'quvchilar o'simlik va hayvonlar hayotidagi mavsumiy hodisalarni payqashga o'rganib boradilar. Bolalar o'simliklar faqat tabiatni bezatib qolmasdan, balki odamlar va hayvonlar uchun zarur ekaniyini bilib oladilar: ular oziq beradi, havoni hayot uchun zararli gaz va changlardan tozalaydi.

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilari turg'un, ixtiyoriy diqqatga ega emaslar, shuning uchun ular kuzatishga birdaniga bir necha obyektini qamrab ololmaydilar.

O'quvchilarni kuzatuvchanlikka o'rgatish uchun ularda turg'un diqqatni rivojlantirish kerak. Shu maqsadda "Kundalik kuzatish daftari"ni yuritish g'oyat foydalidir. Daftarni muntazam tekshirib va baholab borish lozim. Ayniqsa, sinchkov kuzatuvchanlikni namoyon etgan bolalarni rag'batlantirish kerak.

Bolalarda turg'un e'tibor va mustaqil kuzatishlar olib borish xohishi rivojlanishi uchun ularni tabiatdagi qiziqarli narsalarni ko'ra olishga o'rgatish lozim.

Buning uchun kuzatishlarning aniq maqsadlarini qo'yish, ularni o'tkazish rejasini belgilash va bajariladigan ishning ahamiyatini o'quvchilar ongiga yetkazish zarur. Ekskursiyada faqat u yoki bu narsani topish, u yoki bu hodisani qarab chiqish topshirilmasdan, balki to'plangan eksponatlarni maktabga olib kelish, ulardan ko'rgazmali qurol, tarqatma material tayyorlash topshirig'i ham berilishi kerak.

3-4- sinflarda o'z joyi tabiati va odamlar mehnatini muntazam kuzatish davom ettiriladi. Ularning natijalari tabiat va mehnat kundaligida qayd qilib boriladi. Kuzatishlar kalendar jonli, hujjatli xarakterga ega bo'lishi uchun unga sarg'aygan yoki hali yashil bo'lgan bargchalarni, shuningdek, yilning hozirgi vaqtini va odamlar mehnatini xarakterlovchi suratlar (o'quvchilar topgan)ni yopishtirish lozim. O'qitish jarayonida tabiat va mehnat kalendarining roli, agar o'qituvchi u bilan ishni har kuni to'g'ri tashkil etib borsa, ancha ortadi. Kalendarga maxsus ajratilgan vaqtda (3-5 daqiqa) har kuni kuzatishlarning natijalarini kiritib borish ishning bu turiga turg'un qiziqishning paydo bo'lishiga olib keladi.

Doskaga chaqirilgan o'quvchi ob-havoni batafsil ta'riflaydi, tabiat va odamlar mehnatida ko'rgan qiziqarli narsalar haqida gapirib beradi. Uning javobini o'rtoqlari to'ldiradi va aniqlashtiradi (javob albatta jumalda baholanadi), keyin bu axborotning asosiylari kalendarga yozib qo'yiladi.

Umumlashtirilgan, tabiat va mehnat kalendarida qayd etilgan kuzatishlardan faqat tabiatshunoslik darslaridagina emas, balki matematika (hisoblashlar, masalalar tuzish, diagrammalar chizish), ona tili (insho, tabiatni yoki yil faslini ko'rsatish uchun qiziqarli she'rlar va nasriy asarlardan parchalar tanlash), mehnat ta'limi (o'quv-tajriba maydonida o'simliklarni parvarish qilish, tajribalarni umumlashtirish) darslarida ham foydalanish mumkin.

O'quvchilar bilimini tekshirishga umum metodik talablar. Darsga tayyorlana turib o'qituvchi o'quvchilar bilimlarini hisobga olishning mazmuni, metod va shakllarini yaxshi o'ylashi kerak. O'qituvchi payqagan bilimlardagi xato va kamchiliklar individual topshiriqlarning bajarilishida bartaraf etilishi lozim. Hajman katta bo'lmagan kontrol (nazorat) ishlar o'quvchilarni ortiqcha band qilmasin (orfografik xatolar tekshirish paytida tuzatilib boriladi va ona tili darslarida ishlab chiqiladi). O'quv materialini o'zlashtirilishini tekshirishda bolalar bilimlarini faqat o'tgan dars topshirig'i bo'yicha emas, balki butun mavzu material! bo'yicha aniqlash lozim. O'qituvchi qo'ygan savollar ayrim tabiat obyektlari va hodisalari o'rtasidagi sababiy aloqa hamda o'zaro bog'lanishlarni ochib bermog'i zarur.

Tabiatshunoslik alohida fan sifatida o'qitish 3-sinfdan boshlanadi.

O'quv materiali "Tabiatda suv va havo", "Foydali qazilmalar", "Tuproq", "O'simliklar dunyosi", "Hayvonot dunyosi", "Tabiat va inson salomatligi",

"Tabiat va inson" mavzulariga birlashtirilgan. Tabiatshunoslik bo'yicha dastur kichik yoshdagi maktab o'quvchilariga faqat jonajon tabiat go'zalligi va boyliginigina emas, balki boshqa mamlakatlar xalqlari bilan qardoshlarcha hamkorlikda o'z mamlakatining ahamiyatini ko'rsatishga ham imkon beradi.

O'z Vatanining tabiati va odamlari mehnati to'g'risidagi bilimlarning keng doirasi o'qituvchiga umumiy ta'lim va hunar maktablarini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari qo'ygan eng muhim ta'lim tarbiya vazifalarini amalga oshirishga imkon beradi.

3-sinfdan o'quvchilar ob - havoni muntazam kuzatishni davom ettiradilar: bulutlanishni, shamol kuchini (kuchli, bo'sh, mo'tadil) belgilaydilar. Fenologik kuzatishlar o'tkazishni davom ettiradilar: kunning uzunligini (kalendar bo'yicha), barglarning sarg'ayishini xazonrezgilikni, yil fasllari bo'yicha o'simlik va hayvonlar holatini belgilaydilar. Barcha kuzatishlar "Kuzatishlar kundaligi" va umumsinf tabiat va mehnat kalendariga yozib boriladi.

Har oyning oxirida kuzatishlar umumlashtiriladi va yig'ma jadvalga kiritiladi. Unda shu oyning fenologik xususiyatlari belgilanadi. Kundaliklarga o'simlik va hayvonlar ustida olib borilgan umumlashgan kuzatishlar yoziladi. O'quvchilar jonsiz tabiatdagi o'zgarishlarning o'simlik va hayvonlar hayotidagi o'zgarishlar bilan qanday bog'liq ekanligi haqida xulosa chiqaradilar.

3-sinfdan umumsinf tabiat va mehnat kalendarini yuritish davom etadi, bu ikki yil davomida kuzatilgan hodisalarni taqqoslash imkoniyatini beradi. Har kuni ob-havo, o'simlik va hayvonlar holatini belgilab, o'quvchilar joriy kuzatishlarini o'tgan yili shu kun o'tkazgan kuzatishlari bilan solishtiradilar. Bunday ish kuzatishlarga qiziqishni, ularning sifatini oshiradi, tabiatshunoslik tushunchalarini chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi. "Madaniy o'simliklar", "Uy hayvonlari" mavzularini o'rganishda bolalar kuzatish,

tajriba, ekskursiya, amaliy ishlar o'tkazish yo'li bilan o'simlik va hayvonot dunyosining mahalliy vakillari bilan, o'z joyi yuzasining shakllari bilan, suv havzalari va suvning xususiyatlari bilan tuproq hamda foydali qazilmalar bilan tanishadilar.

Bolalar uchun "Bizning o'lka" tushunchasi hammadan avval ularning uylari va maktabi joylashgan joydir, chunki ular ayniqsa atrof joyda bevosita kuzatishlari mumkin bo'lgan tuproq, o'simliklar, hayvonlar, yer yuzasining shakllari, suv havzalari, foydali qazilmalar bilan tanishadilar.

„Madaniy o'simliklar“, „Uy hayvonlari“ mavzularini o'tishda o'qituvchi o'quvchilarning tabiat obektlarini kuzatishlariga, ularni kuzatishlar kundaligida va sinf tabiat va mehnat kalendarida qayd qilishlariga, kuzatishlarni umumlashtirishlariga va shuningdek, darslik sahifalaridagi topshiriqlarni bajarishlariga alohida e'tibor qaratish lozim. Bolalar ekskursiyada tuproq bilan tanishadilar, tuproq kesmalarini qarab chiqadilar. O'qituvchi ular e'tiborini yer ostida joylashgan tuproq qatlamlari va tog' jinslarining yotishiga qaratadi. Amaliy ish va tajribalar jarayonida o'quvchilar tuproq takibi to'g'risida bilib oladilar, o'z o'lkalari tuproqlarining xilma - xilligi to'g'risida tasavvur hosil qiladilar. Bu bo'lim birinchi bo'lib o'rganiladi, chunki u o'quvchilarni qishloq xo'jaligi mehnati bo'yicha mashg'ulotlarga (tuproqni kuzda ishlashga, ko'chat qalinligining ildizmevalarning hosiliga, gul manzarali o'simliklarning o'sishiga ta'sirini o'rganish bilan bog'liq bo'lgan tajribalar qo'yishga nazariy jihatdan tayyorlaydi. Tuproq tarkibi to'g'risida tasavvurga ega bo'lmay turib, o'quvchilar madaniy o'simliklarning o'sish va rivojlanishi to'g'risida to'la qimmatli bilimlar ololmaydilar.

Mahalliy o'simlik va hayvonlarning bir necha turlari bilan o'quvchilar tabiat va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga, shuningdek, o'quv tajriba maydonchasida o'tkazilgan ekskursiyalarda tanishadilar. E'ribor jonli tabiat burchagi hamda tabiatning o'zida o'simlik va hayvonlarning o'sishi va rivojlanishini kuzatishga qaratilishi kerak.

„Tabiat va inson“ mavzusi bolalarga o‘z joylarining yuzasi to‘g‘risida aniq va tasviriy tushunchalar berish maqsadiga ega. Bolalar O‘zbekistonning eng muhim daryolari, ularning hosil bo‘lishi, quyilishi, boshlanishi, o‘zani to‘g‘risida dastlabki bilimlar oladilar. Tabiatdagi suv bilan ular mahalliy suv havzalariga ekskursiyaga borganlarida tanishadilar.

“Foydali qazilmalar” mavzusida quruqlik har xil tog‘ jinslarida: granit, qum, loy, kaltsit va boshqalardan iborat ekanligi to‘g‘risida dastlabki tasavvur beradi. Bu mavzuchada foydali qazilmalarning xususiyatlarini o‘rganish markaziy o‘rinni egallaydi. Ularni o‘rganish o‘quv fani sinfdan tashqari ishlarda kuzatishlar o‘tkazish yo‘li bilan olib boriladi. Ekskursiyalar kata tarbiyaviy ahamiyatga ega, ularda bolalar foydali qazilmalarni qazib olish bilan, ishchilar mehnatini mexanizatsiyalash bilan tanishishlari, o‘lkani qanday foydali qazilmalarga boy ekanligini bilib olishlari mumkin. “Tabiat va inson salomatligi” mavzusini o‘rganish bolalar 1-2 sinflarda egallagan sanitariya-gigiyena bilimlari va ko‘nikmalari asosida quriladi. Bolalarning xilma-xil hissiyot va qabul qilishlaridan to‘laroq foydalanish uchun ko‘rgazmali qurollarni namoyish qilish bilan birga ularni gigiyena qoidalarini amaliy jihatdan bajarishga o‘rgatish zarur.

Gigiyena bilimlarining muvaffaqiyatli egallab olinishi o‘qitishning barcha xilma - xil metodlari hamda uslublarini qo‘llanish bilan ta‘minlanadi. Shu maqsadda „Odam organizmi va uning salomatligini muhofaza qilish“ mavzusini o‘rganishda o‘z - o‘zini kuzatishdan keng foydalaniladi, uning yordamida faqat organizmda borayotgan jarayonlarni aniqlabgina qolmasdan, balki o‘zining salomatlik holatini belgilash ham mumkin. Masalan, yurak qisqarishining tezligiga qarab, yurak va o‘pka ishining normadan chekinishi to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Imkoniyat boricha gigiyena qoidalarini muntazam bajarishga intilishni uyg‘otuvchi xilma xil hissiy ta‘sir ko‘rsatish vositalaridan foydalanmoq darkor. Bunday vositalarga qo‘l, yuz va bo‘yin terisini toza yuvishdan, kiyimlarining bashangligidan, tishlarining sog‘lomligidan, xonaning

tozaligidan, harakatning chaqqonligidan vujudga kelgan yoqimli taassurotlarni kiritish mumkin. Ayrim hollarda aksincha, salbiy emotsiyalarni: iflosga, pashshalarga va hokazolarga nafratni vujudga keltirish kerak. O'quvchilarni sanitariya tarbiyasida „Salomatlik burchagi“ni tashkil qilish katta ahamiyatga ega, uni o'qituvchi o'quvchilar bilan birga olib boradi. „Burchak“da bolalarga sanitariya va gigiyena qoidalarini eslatib turuvchi plakatlarni, ishoralar osib qo'yiladi.

“Odam organizmi va uning salomatligini muhofaza qilish” mavzusini o'rganishga bag'ishlangan sinfdan tashqari ishlarda bir necha minutni sanitar o'quvchilarning shaxsiy gigiyena qoidalarining bajarilishi to'g'risidagi qismlarga ajratish ma'qul bo'ladi. Bu bolalarni intizomli qiladi va ularda ma'suliyat his qilishni tarbiyalaydi. Gigiyena bilimlari hamda ko'nikmalarini egallab olishga bolalarni odam tanasining tuzilishi va a'zolarining vazifalari to'g'risidagi oddiy ma'lumotlar bilan tanishtirishga yordam beradi. Bolalar odam organizmining bir butun ekanligini tushunib olishlari kerak. Uchunchi sinf o'quvchilari uchun muskullar bilan qon aylanishning, muskullar bilan ovqatlanishning o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlar to'la tushunarlidir. „Nerv sistemasi“ va „Sezgi organlari“ mavzularini o'rgana borib, o'quvchilar ishlayotgan organlar o'rtasidagi, shuningdek, organizm bilan atrof muhit o'rtasidagi aloqalarning qanday amalga oshishi to'g'risida ma'lumotlar oladilar.

Gigiyena bilimlari va ko'nikmalarini o'qitishni faqat o'qish vaqti bilan cheklanmaslik kerak. Salomatlikni muhofaza qilishga, kun rejimini, shaxsiy ijtimoiy gigiyena qoidalarini bajarishga, o'quvchilar turmushiga jismoniy mashqlar hamda sport o'yinlarini tatbiq qilishga bag'ishlangan o'qishdan tashqari vaqtlardagi suratlar, kinofilmlar namoyish qilish, shu mavzular bilan bog'liq ertaliklar o'tkazish sinfdan tashqari ishlarda olingan gigiyena bilimlari hamda ko'nikmalarini chuqurlashtiradi va mustahkamlaydi.

Tabiatshunoslikni alohida o'quv fani sifatida o'qitish 4-sinfda ham davom etadi. O'quv materiali „Yer – Quyosh sistemasidagi sayyora“, „Yer yuzi

tabiatining xilma –xilligi”, „Vatanimiz bo‘ylab sayohat” mavzulariga birlashtirilgan.

„Yer – Quyosh sistemasidagi sayyora” mavzusini o‘rganishning boshlanishida bolalar yozgi topshiriqlarga yakun yasaydilar, jonajon o‘lka tabiati to‘g‘risidagi materialni takrorlaydilar, keyin „Yulduzlar”, “Quyosh” mavzulari bilan tanishadilar. Amaliy ish va mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilar ayrim narsalarni, sinfni, maktab maydonchasini rejada qanday tasvirlash kerakligi bilan tanishadilar.

„Quyosh” mahalliy belgilar, kompos bo‘yicha orientirlashga o‘rganadilar. Bu mavzucha o‘quvchilarni geografiya xaritasini tushunishga olib kelish uchun zarur asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘z joyini o‘rganishga asoslanib, o‘qituvchi o‘quvchilarda O‘zbekistonning tabiiy xaritasi to‘g‘risida, boshlang‘ich tasavvurlar hosil qiladi. Xarita bilan ishlash butun o‘quv yili davomida davom etadi.

Xaritalarda foydalanilgan shartli belgilar bilan o‘quvchilarni tanishtira borib, ularni o‘z o‘lkasi tabiatining tegishli rasmlari bilan taqqoslash kerak. Shunga intilish kerakki, xarita ham bolalar uchun kitob kabi bilim manbai bo‘lib qolsin. „Yer yuzi tabiatining xilma –xilligi” kichik mavzusi bolalarni mamalakatimiz tabiatining xilma –xilligi to‘g‘risidagi asosiy ma’lumotlar bilan tanishtiradi. „Yer yuzi tabiatining xilma –xilligi” mavzusini muvaffaqiyatli ravishda o‘rganish uchun tabiiy va tabiiy zonalar xaritalaridan, gerbary, devoriy surat, kinofilm, rasm, jurnal va gazetalardagi fotosuratlardan, radio va teleko‘rsatuvlardan keng foydalanish zarur. Xaritani o‘qishda shartli belgilardan foydalanib, o‘quvchilar daftarida yozilgan har bir zonaning tabiiy sharoitlari xarakteristikasi:

- 1-xaritadagi holati;
- 2-daryo va ko‘llar; 3- yil fasllari;
- 4-o‘simliklar;
- 5-hayvonot dunyosi;

6-shahar va qishloqdagi odamlar mehnati kabilarni o'z ichiga olgan rejadan foydalanishga o'rgatish kerak. Ular xaritada har bir zonani, ularning qaysi qismida joylashganligini ko'rsatib bera olishlari kerak.

Tabiiy zonalar rel'efi umumiy doirada, masalan, "asosan tekisliklar va tog'lar va hokazolar bor" tarzida ta'riflanadi. Yil fasllarini xarakterlash qish va yozning xarakterli harorati va yog'inning ko'p ozligini tasvirlash bilan birga olib boriladi. Bunda yil fasllarining xususiyatlarini shu hududda Quyoshning yoz va qish vaqtlarida yoritish xarakteri bilan bog'lash lozim.

Masalan, "Cho'lda Quyosh yozda ufqdan yuqoriga ko'tariladi" va deyarli tik tushuvchi nurlari Yer yuzasini kuchli qizdiradi yoki "Tundrada, hatto yozda ham Quyosh ufq ustida pastda turadi va uning nurlari yer yuzasi bo'ylab qiya holda o'tadi, uni kuchsiz ravishda qizdiradi". O'quvchilar yil fasllari, o'simliklari, hayvonot dunyosi, qishloq xo'jaligidagi odamlar mehnati to'g'risida hikoya qilayotganlarida bunday talqinlarga asoslanishlari kerak. Mantiqiy mulohazaning bunday izchilligi faqat ushbu mavzuninggina emas, balki ilgari mavzuning ham – Yerning sharga o'xshashligi va uning holatini Quyosh atrofida yillik harakati vaqtida o'zgarishi to'g'risidagi materialni ongli o'zlashtirib olinishiga yordam beradi.

Bilimlarni mustahkamlash va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish uchun xarita bo'ylab xayolan sayohat o'tkazish foydalidir, bu sayohat vaqtida bolalar yo'lga nimalar kiyib olishlarini, yo'lda nimalarni ko'rishlarini, qanday o'simlik va hayvonlar uchrashini aytishlari kerak bo'ladi. U yoki bu zonaning tabiiy sharoitlarini ta'riflashda bolalar o'simliklar dunyosini ta'riflashga ko'proq e'tibor berishlari kerak. Bunda o'simliklarga umumiy xarakteristika berish, o'simliklarning tipik turlarini ta'riflash va ularning gerbariy namunalarini ko'rsatish kerak. Shunga ko'ra o'simliklarni o'rganishga bag'ishlangan sinfdan tashqari ishlarni predmetli dars sifatida tuzish maqsadga muvofiqdir, bunda tarqatma material qilib gerbariyatlardan, lanshaft to'g'risida tasavvur shakllantirish uchun esa suratlardan foydalaniladi.

Hayvonot dunyosining ta'rifini bolalarga tanish bo'lgan yovvoyi hamda uy hayvonlarining guruhlari bo'yicha sistematik tasvirlardan iborat bo'lishi kerak. Bunda hayvonning tashqi ko'rinishi, nima bilan oziqlanishi, ovqatni qanday topishi, ba'zi xulq-atvori, odam uchun foydalimi yoki zararlimi ekanligi ko'rsatiladi. O'lkamiz biror qismining tabiiy xususiyatlarini o'rgana turib, o'quvchilar uning uchun xarakterli bo'lgan qishloq xo'jaligi va sanoat ishlab chiqarishining tuzilgan dastur tabiiy zonalarini o'rganishni shimoldan janubga qarab emas, balki janubdan shimolga tomon olib borishni tavsiya qiladi. Bu o'qitishning muhim tamoyili - „Yaqindan uzoqqa borish“ tamoyili bilan taqozo qilinadi. O'z o'lkasini o'rgana turib, avval o'zining tabiiy, ya'ni eng janubiy zona to'g'risidagi bilimlarni umumlashtiriladi, keyin esa bolalarni o'z atrofidan chetdagi boshqa tabiiy zonalarga olib boriladi. Daftarlarda har bir tabiiy zonani xarakterlovchi yozuvlar qilish, bezak tanlash yoki rasm chizish, o'simlik va hayvonlarning nomlarini yozish va shu kabilarni qilish kerak bo'ladi.

“Vatanimiz bo'ylab sayohat” mavzusini o'rgana turib, o'qituvchi tabiat muhofazasi bo'yicha qonuniy hujjatlar, ularni har bir fuqaro tomonidan bajarilishi zarurligi to'g'risida gapirib berishi kerak. Mavzuda alohida e'tibor inson tomonidan tabiat boyliklaridan oqilona foydalanishiga qaratiladi. Tabiat muhofazasiga oid masalalar tabiatshunoslikning deyarli barcha bo'limlariga daxldor. Mavzuning asosiy masalasi - tabiat muhofazasi to'g'risidagi ilgarigi sinfdan tashqari ishlarda bayon qilingan ayrim ma'lumotlarni bildirish, tabiat muhofazasi to'g'risidagi ilgarigi sinfdan tashqari ishlarda bayon qilingan ayrim ma'lumotlarni bildirish, tabiat muhofazasi bo'yicha qanday tadbirlar o'tkazilayotganligina ko'rsatishdir. Tabiat muhofazasining ma'nosi va ahamiyatini o'quvchilarga ocha borib, o'qituvchi bu mavzuning katta tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini e'tiborda tutishi kerak. Tabiat faqat jamiyatning moddiy hayoti uchun boylik olish manbaigina bo'lib qolmasdan, balki xalq ma'naviy boyligining asosi hamdir.

O'qituvchi tabiat muhofazasi va tabiiy boyliklardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish to'g'risida qanday g'amxo'rlik qilayotganligini gapirib berishi, o'quvchilarni O'zbekiston Konstitutsiyasida aks ettirilgan tabiat muhofazasi to'g'risidagi qonunlar bilan, O'zbekiston tabiatini muhofaza qilish jamiyatining Ustavi bilan tanishtirib borishi kerak. Bu kichik yoshdagi maktab o'quvchilarning ma'naviy tarbiyasi sistemasida kata ahamiyatga ega. Tabiat muhofazasi to'g'risida g'amxo'rlik bolalarda kompleks tarbiyaning muhim qismi sifatida, vatanparvarlik hissini shakllantirishda, inson va tabiat o'rtasida oqilona o'zaro munosabat o'rnatishda g'oyat katta ahamiyat kasb etadi.

Tabiat muhofazasi bo'yicha amaliy faoliyat bolalarda tabiat boyliklarini himoya qilish hamda ko'paytirishga intilishni rivojlantiradi. Shunga ko'ra ularni qushlar uchun oziqa tayyorlashda qatnashishga, kech kuz, qish va erta bahorda qushlarni boqishga, gul manzarali o'simliklar urug'larini yig'ishga, ularni aholi o'rtasida tarqatishga, ko'kalamzorlarni parvarish qilishga, tuproqni yemirilishdan saqlovchi o'simliklarni o'stirishga jalb qilish kerak.

"Hamjihatmiz – zukkomiz" tadbir senariysi

Maqsadlar:

Ta'limiy: O'quvchilarning tabiatshunoslik, ona tili, o'qish, matematika fanlaridan olgan bilimlarini o'zaro bellashuv asosida aniqlash va mustahkamlash.

Tarbiyaviy: Bolalar o'rtasida do'stlik, o'zaro hurmat, hamjihatlik, ona tabiatga bo'lgan mehr- muhabbat tuyg'usini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi: Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish malakalarini rivojlantirish. Ma'naviy ongini o'stirish. O'zaro hamjihat, erkin, mustaqil faoliyatda bo'lish orqali muvaffaqiyatga erishish mumkinligini tushuntirish.

Bellashuv shakli: Musobaqa.

Jihozi: marker, qog'ozlar.

Sinf o'quvchilari ikki guruhga bo'linadi. Musobaqa sharti tushuntiriladi.

Ular rioya etishlari lozim bo'lgan "Oltin qoida"lar eslatiladi. O'qituvchi bellashuv shartlari haqida qisqacha ma'lumot berib o'tadi va har ikki guruhga omad tilagan holda bellashuvni boshlaydi.

1 shart

"Aqliy hujum" orqali tezkor savollarga javob berish.

1-guruh uchun savollar: "Yurt" so'ziga ma'nodosh so'z toping.

Matematikadan 4 amalni kim yaratgan?

Yer sharida nechta materik bor?

So'z turkumlarini ayting?

"Yomonlar nasibi - el-yurt qarg'ishi". Ushbu parcha qaysi matndan olingan?

Globus nima?

300000 ni 1 ga ko'paytiring.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan?

Xalq og'zaki ijodiga nimalar kiradi?

Shaxs va narsaning rangi, tusi, mazasini bildirgan so'z turkumini ayting.

2-guruh uchun savollar:

Hadis nima?

Bir yil necha kundan iborat?

Undalma qatnashgan gap tuzing.

Yulduzlar turkumini o'rgangan olim kim?

"Zamin" so'ziga ma'nodosh so'z ayting.

"Xo'p hayda" she'ri muallifi?

Konstitutsiya necha bo'lim, necha bob va necha moddadan iborat?

$110-20=90$. Komponentlar nomini ayting.

Sakradi, o'ynadi, yugurdi. Ushbu so'zlar qaysi so'z turkumiga mansub?

Yer yuzida nechta okean bor?

2-shart.

Maqollarni davom ettiring.

1-guruhga:

Yosh kelsa ishga, qari kelsa

Tinchlik bilan el ko'karar, yomg'ir bilan
Maslahatsiz ish, keltirar
Yaxshi ko'rgan do'stingdan joningni ham
Ona yurtning omon bo'lsa, rangu ro'ying bo'lmas.

Himmating – Ahdga vafo – baxtga
Ahd mahkamning – mahkam.

Yigit kishiga ... hunar oz.

Yaxshilik yerda

Mard so'zidan, yo'lbars ... qaytmas.

2-guruhga:

Oltin kumushning eskisi bo'lmas, ota-onaning...

Ona yerning tuprog'i, ona sutidek

Yurti boyning – o'zi...,

Mehnat qilganning qo'li... .

Bilagi zo'r birni yig'ar, bilimi zo'r

Inson odobi bilan

Mehnatdan kelsa boylik, turmush– bo'lar

Hayosiz bo'lma – bo'l. Do'stni yo'qotding – yo'qotding.

Maqsad sari murosa – eng yaxshi...

3-shart

Matematik topshiriq.

1-guruhga:

To'g'ri to'rtburchakning bir tomoni 3 sm, $P=26$ sm.ga teng. To'g'ri to'rtburchakning tomonlarini toping. $P = 26$ sm

1-tomoni 3 sm

2-tomoni ? sm Yechimi:

$3 \cdot 2 = 6$ sm $26 - 6 = 20$ sm $20 : 2 = 10$ sm Javob: 6 sm, 10 sm.

2-guruhga:

Uchburchakning bir tomoni 12 sm. Ikkinchi tomoni birinchi tomonidan 2 marta uzun. Agar

Uchburchakning perimetri 64 sm bo'lsa, uning uchinchi tomonini toping.



Yechish:

$$12 \cdot 2 = 24 \text{ (sm)}$$

$$12 + 24 = 36 \text{ (sm)}$$

$$64 - 36 = 28 \text{ (sm)}$$

Javob: 28 sm

4-shart. Ekran orqali Vatan haqidagi she'rdan parcha o'qib eshittiriladi.

Guruhlar esa she'ri qolgan qismini davom ettirishadi va muallifini topadilar.

1-guruh uchun: Do'stlar mening yurtimni, O'zbekiston deydilar.

Dong'i tutgan dunyoni,

Bog'u bo'ston deydilar.

(Zafar Diyor, "Serquyosh o'lka").

Al Beruniy, al Xorazmiy, Al Farob avlodidan.

Asli nasli balki o'zluk,

Balki Tarxon o'zbekim.

(Erkin Vohidov, "O'zbekim").

2-guruh uchun:

Buyuk Temur jahon bo'ylab, O'z dovrug'in solgan tilim.

Mir Alisher bobomlardan,

Meros bo'lib qolgan tilim.

(Tursunboy Adashboyev, "Ona tilim").

Dehqon desam ko'z o'ngimda, Jonlanadi saxiy inson. Dehqon desam ko'z o'ngimda, Yashnab turar bog'u bo'ston.

(Sulaymon Rahmon, "Dehqon").

5-shartda bahru bayt aytish bo'yicha o'zaro musobaqalashiladi.

6-shartda o'quvchilar geometrik shakllardan buyum va narsalar yasash bo'yicha o'z mahoratini namoyish etishadi.

Musobaqa yakunida guruhlarning olgan ballari aniqlanadi va e'lon qilinadi.

Eng ko'p bal to'plagan guruh g'olib bo'ladi. Qolgan guruh a'zolari ham turli nominatsiyalar bo'yicha rag'batlantiriladi va ularga esdalik sovg'alari topshiriladi.



“Tabiatni asrash- olamni asrash”
mavzusidagi tadbir senariysi

1- *Boshlovchi.* Assalom-u alaykum qadri mehmonlar, aziz ustozlar va bilimga chanqoq zukko o'quvchilar!

2- *Boshlovchi.* Barchangizni

5-iyun Jahon atrof-muhitni muhofaza qilish kuni bilan tabriklaymiz.

O'xshashi yo'q bu go'zal bo'ston,

Dostonlarda bitgan guliston,

O'zbekiston deya atalur Uni sevib el tilga olur. 1-boshlovchi: Hurmat so'z navbatini tadbirni ochib berish uchun maktabimiz direktori _____ga beramiz

(Maktab direktori barcha bilan salomlashib tabiat haqida o'z fikrlarini bildirib o'tadi)

Maktab direktori: Yer sharining turli mintaqalarida har kuni qandaydir tabiiy ofatlar ro'y berayotgani haqida televizor, radio va gazetadagi xabarlar orqali boxabar bo'lib boramiz. Bilamizki, yillar davomida insoniyat tobora rivojlanib, hozirda misli ko'rilmagan yutuqlarga erishib kelmoqda. Shunday ekan aziz o'quvchilar bizni boqib kelayotgan aziz tabiatimizni asraylik

Tadbirimiz bellashuv shaklida o'tkaziladi. Ushbu bellashuvni oqilona boshqarib boruvchi hakamlar hay'ati bilan tanishib olamiz.

(Hakamlar hay'ati bilan tanishtiradi)

1-boshlovchi: bugungi bellashuvning shartlari bilan tanishib olamiz

1-shart Bunda jamoalarimiz o'z jamoasi tarkibi bilan barchani tanishtirib o'tadi. Tabiat haqida she'rlar va ma'lumotlar bilan bizni xushnud etadi.

2-shart Sahna ko'rinish (Tabiat va uni ifloslantiruvchi omillar ko'rsatib berishlari kerak)

3-shart savol-javob

Har bir shart 10-ballik tizimda baholanadi.

2-boshlovchi: Jamoalarimiz tayyor bo'lishsa ularni sahnaga taklif etamiz.

(Bog'bonlar va dehqonlar jamoasi)

(Jamoalar sahnaga chiqib o'z jamoalarini tanishtirishadi).

Va she'rlar asosida ma'lumotlar berib o'tishadi)

1-boshlovchi: jamoalarni o'z joylariga kuzatib qo'yamiz 2-shartga tayyorgarlik ko'rgunga qadar navbat musiqiy tanaffusga

1-boshlovchi: 2-sinf o'quvchisi Jumayeva Mahbubaga (Sahnada raqs ijro etiladi)

2-boshlovchi: 2-Shartga tayyorlanib bo'lishgan bo'lsa sahnaga taklif etamiz.


1-boshlovchi 2-shartimiz sahna ko'rinish sharti

(Jamoalar chiqib o'z sahna ko'rinishlarini namoyon qilishadi) 2-boshlovchi: Jamoa a'zolariga rahmat juda ajoyib sahna ko'rinishlari uchun 1-boshlovchi: Navbat 1-sinf o'quvchilariga ular bizga juda ajoyib "Jo'jalar raqsini" tayyorlab kelishgan marhamat tomosha qiling.

2-boshlovchi: Endi navbat biz va siz uchun juda qiziqarli va murakkab bo'lgan savol-javob shartiga

1-boshlovchi marhamat jamoalar sahnaga (savol-javob klaster usulida o'tkaziladi)


2-boshlovchi 1-jamoa O'zbekiston hududidagi cho'llar nomini topishadi 2-jamoa esa tog'lar



Hakamlar hay'ati jamoalarni yozgan javoblarini tekshirib, ularni baholashadi va umumiy ballarni e'lon qiladi. G'olib jamoa estalik sovg'alar bilan taqdirlanadi.

Mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalashda ta'lim-tarbiyaning uzluksizligini ta'minlash va uni tizim shaklida tashkil etish asosiy masalalardan biridir. Shuningdek, boshlang'ich sinflarda tashkil etiladigan darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlarga e'tiborni kuchaytirish bilan ham ta'lim-tarbiya jarayonining uzviyligiga erishish mumkin.

Darsdan va sinfdan tashqari ta'lim-tarbiyaviy ishlarda o'quvchilarda ekologik tafakkurni shakllantirish vazifasi faqat bolalarni band qilish emas, balki ancha murakkab, ya'ni ularning darslarda olgan bilimlarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimizga nisbatan qiziqishini uyg'otish, qolaversa, ularning hayotini zavq va shavqqa to'ldirishdan iborat. Xuddi dars jarayonida bo'lgani kabi tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda ham sinf o'qituvchisining vazifasi mas'uliyatli va ahamiyatlidir. Bu mas'uliyat ulardan doimiy ravishda o'z ustida ishlash, ijodiy mehnatni talab qiladi.



Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tafakkurni shakllantirish faoliyatini tashkil qilishga yo'naltirilgan sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning asosiy xususiyati - o'quvchini ijtimoiy hayotga tayyorlashdan iboratdir³. O'quvchi kundalik ishlarining davomi sifatida sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda bevosita turli mazmundagi suhbatlar, savol-javoblarda qatnashadi, kechalarni tashkil qilishda ishtirok etadi, rollarni bajaradi, tinglaydi, qolaversa, bular orqali bilimi va ma'naviy dunyosi boyib boradi. Ayniqsa, ular bugungi kunda o'quvchilarning milliy merosimizga nisbatan qiziqishlarini o'stirish maqsadida tashkil qilinadi. Har qanday sinfdan tashqari mashg'ulot oldiga turli tarbiyaviy vazifalar qo'yiladi. Ularning har biri o'ziga xos belgilar, bir-biridan farq qiluvchi shakllar, vositalar, ijodiy mehnatni talab qiladi. Sinfdan tashqari ta'lim-tarbiyaviy ishlar

³ Avazov Sh. Maktabda ekologik tarbiya. –Toshkent: O'qituvchi, 1992.– 70 b.

o'qituvchilarning yillik ish rejalarida aniq ko'rsatilgan, maqsad va vazifalari belgilangan bo'lishi lozim.

Boshlang'ich sinflarda tashkil etiladigan ta'lim - tarbiyaviy ishlar o'quvchilik davri, ya'ni ularning maktab ostonasiga ilk qadam qo'ygan kunlaridan boshlanadi. "Mustaqillik bayrami", "Konstitutsiya kuni", "Alifbo bayramlari", "Navro'z" bayrami, "Gullar", "Mehrijon", "Hosil bayramlari" kabilar shular jumlasidandir. Tarbiyaviy tadbirlar bevosita o'quvchilarda vatanga e'tiqod, tabiatga muhabbat, milliy a'nanalarimizni shakllantirishga xizmat qiladi. Bular uchun xalq og'zaki ijodi, badiiy va ilmiy adabiyot namunalari muhim manba hisoblanadi.

O'quvchilarda ekologik tafakkurni shakllantirish ta'lim-tarbiyaviy tadbirlarni uyushtirishda quyidagi pedagogik talablarga amal qilishi kerak:

- o'quvchining yoshi, ruhiy holatiga mos bo'lishi;
- darsda olgan bilimlarni mustahkamlashga xizmat qilishi;
- aniq maqsad vareja asosida uyushtirilishi;
- tadbirlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida jamoatchilik, uyushqoqlik, o'zaro yordam kabi axloqiy sifatlar tarkib topishi lozim.

Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari mashg'ulotlar quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Tadbirni rejalashtirish.
2. Tadbir yuzasidan o'quvchilarga tushuncha berish.
3. Tadbirni tashkil qilish jarayonida sinf o'quvchilarining barchasi ishtirok etishini ta'minlash.
4. O'quvchilarning imkoniyatlari darajasidan kelib chiqqan holda ishlarni taqsimlash.
5. Tadbirni amalga oshirish.
6. Tadbir natijalarini tahlil qilish va baholash.

Bosqichlarning har biri o'qituvchi tomonidan oldindan chuqur o'rganilgan bo'lishi kerak.

Mazkur ishlarni amalga oshirishda har bir boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishda, eng avvalo, tashkil qilinadigan tarbiyaviy

tadbirlarning mazmunini chuqur o'rganishi, uning natijalariga jiddiy e'tibor berishi va bu bilan o'quvchi shaxsiga ijobiy ta'sir etishga intilmog'i, vatanga e'tiqod, milliy g'urur, vatan ravnaqi uchun xizmat qilish, qolaversa, ona tabiatni asrash kabi sifatlarni yanada rivojlantirish yo'llarini izlamog'i lozim.

Bu kabi tarbiyaviy ishlar natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining so'z boyligi oshadi, dunyoqarashi kengayadi, asosiysi darsda olgan bilimlari mustahkamlanadi, ularning xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi.

Xuddi shunday ijobiy sifatlarni boshlang'ich sinf o'quvchilarida tarkib toptirishda ertaliklarning o'z o'rnini bor. Ertaliklar bolalar uchun juda qiziqarli, ta'lim-tarbiyaviy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan vositalaridan biridir. Ertaliklarda deyarli barcha sinf o'quvchilari ishtirok etadi. Ertaliklarga tayyogarlik jarayonining o'ziyiq bolalarda qiziqishni uyg'otadi. Bolalar ertalik munosabati bilan milliy qadriyatlarimiz namunalari bo'lmish topishmoq, maqol, tez aytishlarni yod oladilar. Kuzatishlar natijalariga asoslangan holda maktablarning aksariyat qismida ertaliklarni o'tkazishga kam e'tibor berilishi aniqlandi. Bu sohadagi talab va istaklarni o'rganib chiqib, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan bir-necha bor ertaliklar uyushtirish bo'yicha quyidagi tavsiyalarni keltirish mumkin.

- ertalikning mavzusini tanlash va mavzu yuzasidan materiallar to'plash;
- ertalikning dasturini tuzish;
- ertalikka mehmonlar taklif etishni rejalashtirish;
- ertalik o'tkaziladigan joyni aniqlash va bezash;
- ertalikni muvaffaqiyatli o'tkazish va qatnashchilarni rag'batlantirish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan "Navro'z bayrami", "Mehrjon bayrami", "Gullar bayrami", "Alifbo bayrami", "Oltin kuz" va boshqa ertaliklarni uyushtirish mumkin.

"Navro'z" - o'zbek xalqining tabiat, yer va uning in'omlariga bo'lgan muhabbatining o'ziga xos mujassamligidir. Shunga ko'ra, o'zida nihoyatda katta tarbiyaviy imkoniyatni mujassamlashtiradi hamda insonlarda mehnatsevarlik, insonparvarlik, o'zaro hurmat, muhabbat, ezgulik, adolat, do'stlik kabi ijobiy fazilatlarini mustahkamlashga imkon yaratadi. "Navro'z" O'zbekistonda bahor va

mehnat bayrami hisoblanib, bahor faslining boshlanishida o'tadi. Chunki, bu paytda dehqonlar yerga dastlabki urug'ni qadashadi, mevali va manzarali daraxt ko'chatlarini o'tqazishadi. Qisqasi yerni bezashga harakat qilishadi, toki bu ijobiy ishlar insonlarga ezgulik keltirishiga, ularning qalbida ishonch va umid tuyg'ularining shakllanishiga olib keladi.

Ushbu ibratli ishlarga yoshlarni ham jalb etish, ularda ekologik ong vadunyoqarashning shakllanishiga, insoniylik, vatanparvarlik, mehr-oqibatli bo'lish kabi his-tuyg'ularning tarkib topishiga olib keladi. Ayniqsa, biz suvlarni toza saqlash, undan tejamkorlik bilan foydalanish, havoning musaffoligiga erishish, tuproq, o'simlik, hayvonot dunyosini muhofaza qilish kabi tadbirlarni hayotiy ehtiyojimizga aylantirishimiz lozim⁴.

Ekologik tarbiyaning asosiy maqsadi har bir insonga tabiiyatsiz, tabiiy boylklarsiz yashab bo'lmashligini singdirishdan iboratdir. Inson tabiiy zaxiralarning tunganmas, cheksiz emasligi va qachonlardir tugashini bilishi kerak. Shu bois, ulardan tejamkorlik bilan foydalanish zarur. Bu esa yoshlarda axloqiy me'yorlarga rioya etish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Zero, inson o'zining mehr-muhabbati bilan tabiatni muhofaza qilishi, unga yordam bera olishi mumkinligini anglab yetishi lozim. Shundagina ekologik falokatning oldi olinadi, insoniyat bu xavf-xatardan omon qoladi. Ekologik muammolarni hal etish uchun uzluksiz ta'lim tizimida yoshlarning ekologik madaniyati va dunyoqarashini shakllantirish zarur. Yurtimiz go'zalligi, ozodaligi, tozaligi va obodonligiga o'z hissamizni qo'shish - bizning maqsadimizdir. Shundan kelib chiqib barchamizda ekologik madaniyat va dunyoqarashni tarkib toptirish o'ta muhim vazifadir. Aslini olganda, bu vazifalar har birimizning yuksak insoniylik va ma'naviy burchimiz ekanligini anglab yetmog'imiz, tabiat, uning resurslarini asrab-avaylashga hamda ulardan oqilona foydalanishni hayotiy ko'nikmamizga aylantirishimiz lozim.

⁴ Ziyomuhammedov B. Ekologiya va ma'naviyat. - Toshkent: Mehnat, 1997. -95 b.

Axir, bolalar o'sib kelayotgan yosh avlod hisoblanadi, kelajagimiz taqdiri ularga bog'liq. Tabiatga mehr, unga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish kerakligini singdirish har birimizning burchimiz.

8-§. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi va pedagogic faoliyatda yuzaga keladigan kasbiy muammolarni bartaraf etish strategiyalari

Reja:

1. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi. O'quvchilarga ta'lim tarbiya berishda undan foydalanishning didaktik imkoniyatlari;
2. O'quvchilarning o'zaro fikr almashishi, muomala madaniyatini egallashi, har bir o'quvchi o'zi, guruhdoshlari, sinfdoshlari muvaffaqiyati uchun harakat qilishi va natijada ularda o'zaro ishonch va samimiy do'stona munosabatning tarkib topishi, ularda mas'uliyatlik ko'nikmasini shakllanishi.
3. Har bir o'quvchida boshqaruvchilik ko'nikmalarini egallash imkoniyatini paydo qilish.

Hamkorlikda o'qitish bo'yicha birinchi tajribalar 1898 yilda amalga oshirilgan.

O'sha vaqtdan beri aynan mana shu mavzu yuzlab ilmiy ishlar bajarilgan va o'qitishning uchta asosiy usuli hamkorlikda, individual va musobaqa tarzidagi usullar bo'yicha bir qator qiyosiy tadqiqotlar bajarilgan.

Hamkorlikda o'qitish g'oyasining o'zi juda oddiy.. Sinf bir nechta kichik guruhlarga bo'linadi, har bir guruh ma'lum topshiriqni bajarishga kirishadi va guruh a'zolarining barchasi ishning o'z qismini tushunib bajarmaguncha ishlaydi. Bunda guruhning barcha a'zolari »Biz hammamiz birga suzib chiqamiz yoki birga g'arq bo'lamiz» degan g'oyaning mazmunini tushunadi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, birga o'qish nafaqat engilroq va qiziqroq bo'ladi, balki sezilarli darajada samaradorliroqdir. Muhimi shuki, bu samaradorlik

o'quvchilarning nafaqat akademik muvaffaqiyatlari, intellektual rivojlanishi,

balki ularning ma'naviy o'sishiga ham taalluqlidir. Bir-biriga yordam berish, hamkorlikda har qanday muammolarni echish, o'rtoqlari muvaffaqiyat qozonganda ularning quvonchiga sherik bo'lishdek olijanob sifatlarni tarbiyalaydi.

Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi biror narsani birga bajarish emas, balki hamkorlikda o'qish, o'rganishdir!

Hamkorlikdagi ish natijalarini to'rt turkumga to'plash mumkin:

1. Psixologik qulaylik.

2. Shaxsiy o'sish.

3. Ijtimoiy etuklik.

4. Akademik o'zlashtirish.

Psixologik qulaylikka o'quvchilarga kengroq erkinlik berish orqali, ijobiy o'zaro bog'lanish va o'zaro qo'llab-quvvatlash uchun sharoitlar yaratish, guruh va sinf a'zolari

o'rtasida muloqotlar va o'zaro munosabatlarning har xil turlarini yaratish hisobiga erishiladi.

Shaxsiy o'sish qiyinchiliklarni engib o'tishni bilish, o'z emotsiyalarini boshqarish qobiliyati, o'zini-

o'zi baholash ko'nikmalarini rivojlantirish, jamoada ishlashni bilish kabi muhim ko'rsatkichlarda namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy etuklik shaxslararo munosabatlar madaniyati (quloq solish va eshitish

qobiliyati, murosaga kelish, chidamlilik, o'zaro hurmatda bo'lish, gender muqotlarida

bo'lish ko'nikmalari va b.) hamda hamkorlikda mehnat qilish bo'yicha bilim va ko'nikmalarda ifodasini topadi.

Akademik o'zlashtirish o'quvchilar passiv tinglovchilardan faol arboblarga aylanishi hisobiga ta'minlanadi. Undan tashqari, o'qituvchi kichik guruhlar imkoniyatlariga tayanib quyidagi topshiriqlarni qo'llashi mumkin: tadqiqotlar o'tkazish, loyihalar bajarish, konseptual plakat va sxemalarni yaratish, hamkor

likdagi insholarni yozish, ma'ruzalarni tayyorlash va b. Odatda bunday topshiriqlar fan mazmuni doirasidan tashqariga chiqadi va fanlararo bog'lanishlarga ega.

Hamkorlikda o'qitishning samaradorligi

1. Axborotga tanqidiy yondashuv va o'z nuqtai nazarini dalillar bilan asoslashni shakllantiradi. Bu ko'nikmalar hamkorlikda o'qiyotganlarda bir-biri bilan raqobat qilayotgan yoki individual o'qiyotganlarga qaraganda yaxshiroq rivojlangan. Xattoki, hamkorlikda bajarilgan yozma ishlar chuqur mazmunga egaligi bilan farqlanadi.

2. Ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi. Hamkorlikda o'qiyotgan guruh a'zolari betakror g'oyalarni ko'proq ishlab chiqadi, turli maqsadlarga erishishda va dars jarayonida paydo bo'lgan har xil o'quv masalalarining yangi yechimlarini topishda ijodiy iobilyatlar rivojlanib boradi.

3. Bir vaziyatda olingan bilimlar boshqa vaziyatda qo'llanishiga ko'maklashadi. Bugun guruh bajargan topshiriqni ertaga har o'quvchi mustaqil bajara olishi mumkin.

4. Dars mazmuniga ijobiy yondashuv shakllantiriladi. Hamkorlik bilimlarga ko'proq qiziqish uchun ham sharoitlar yaratadi. Mashg'ulot o'tkazish usuli qanchalik takomillashgan bo'lsa, o'quvchilarning o'rganilayotgan masalaga qiziqishi va faolligi ortib boradi.

5. Topshiriqlarni bajarish uchun ko'proq vaqt sarflanadi. Hamkorlikda o'qiyotganlar topshiriqlarni bajarish uchun raqobat qilayotgan yoki individual o'qiyotganlarga nisbatan ko'proq vaqt sarflaydilar.

Hamkorlikda o'qitishning asosiy afzalliklari

Hamkorlikda o'qiyotgan o'quvchilar bir-birining muvaffaqiyatiga ko'maklashadi.

1. Yordam va madad beradilar va yordamni qabul qiladilar, gap faqat o'qish to'g'risida emas, balki insoniy, do'stona munosabat to'g'risida ketayapti.

2. Axborot va »moddiy resurslar«, ya'ni topshiriqni bajarish uchun zarur bo'lgan barcha narsalar bilan almashadi.

3. O'rtoblari bergan ma'lumotlarni o'zlashtiradi va qo'llashga harakat qiladilar. Og'zaki tushuntirishlar, axborotni o'ylab ko'rish va umumlashtirish, o'z bilimlari va ko'nikmalarini boshqalarga uzatish bularning hammasi bilimlarni tartibga solish, ularni yaxshiroq anglab o'zlashtirish va umumiy maqsadga erishishga shaxsiy ulushini qo'shishga olib keladi.

4. Bolalar bir-

biri bilan muzokara olib borishga va dalillar keltirishga o'rganadi.

Intellektual maydondagi zidliklar

qiziquvchanlikni rivojlantiradi, bilimlarni o'zlashtirish

va ularni qayta anglash, o'rganilayotgan muammoga chuqurroq kirishishga undaydi hamda boshqa ko'p foydali sifat va ko'nikmalarni shakllantiradi.

5. O'quvchilar yaxshiroq o'qishga intilishda bir-biriga ko'maklashadi. O'qishda o'rtoblariga yordam berayotgan o'quvchi o'zi ham sezilarli darajada yaxshiroq o'qiydi.

6. Bir-biriga ta'sir etadi. Hamkorlikda o'qiyotgan guruh a'zolari o'rtoblariga ta'sir etishning har qanday imkoniyatidan foydalanadilar va o'z navbatida ta'sir uchun ochiqlar.

7. Aniq ifodolangan motivatsiyaga ega. Bilimlarni o'zlashtirishga intilish umumiy maqsadga erishishga qaratilgan hamkorlikdagi mehnat tufayli kuchayadi.

8. O'zaro ishonch sharoitini yaratadi va talablarni yuqori darajada ushlab tura di. Guruh a'zolari o'z o'rtoblariga ishonadilar va o'zlarini o'rtoblari ishonchini qozonadigan tarzda tutadilar, bu katta muvaffaqiyatlarga erishish uchun sharoitlar yaratadi. O'zaro ishonch – har birining yuqori yutuqlari uchun yaxshi asos.

Juftliklarda ishlash usullari.

Turli o'quv fanlar bo'yicha jamoaviy mashg'ulotlar tashkil qilishning ko'p variantlari ishlab chiqilgan va sinovdan o'tkazilgan. »Nimadan boshlash kerak?» va »Guruhda ishlash ko'nikmalariga ega bo'lmagan o'quvchilar bilan sinfda guruhviy ishni qanday tashkil etish kerak?» degan savollarga quyidagicha javob berish mumkin: »Ishni juftliklarda ishlashdan boshlab ko'ring».

Bu partalarning odatdagi joylanishiga o'zgartirishlar kiritishni talab etmaydi lekin, bolalarni guruhiy ishga o'tishga tayyorlaydi. Bolalar juftliklarda bir-biriga o'rgatadigan, yangi materialni o'rganadigan, mashq qiladigan, tekshiradigan turli usullar mavjud. Juftlikdagi ish qisman ma'lum algoritmlar hisobiga ta'minlanadi. U birinchi navbatda samarali o'zaro o'qitish, tekshirish, muhokama qilish, tushunishni ta'minlash uchun beriladi. Lekin, hamma boladan birdaniga yaxshi ish kutishni yo'q. Ishni tashkil etish juftliklarda ishlashning og'zaki meyorlari va qoidalarini asta sekin o'zlashtirishi hisobiga ta'minlanadi.

Juftlikda ishlash uchun o'quvchilarga qanday ko'nikmalar zarur?

Juftlikda sifatli ishlash uchun o'quvchi quyidagi ko'nikmalarni o'zlashtirishi kerak:

- o'qish o'zi uchun emas, balki ovozin chiqarib, sherigi uchun, past ovoz bilan o'zi tushunadigan va sherigi hammasini tushunadigan qilib o'qish;
- gapirish –past ovoz bilan, dona-dona qilib;
- tinglasho'qiyotgan yoki gapirayotgan sherikni nutqini to'g'rilash va fikrini aniq ifodalashga yordam berib, diqqat bilan tinglash;
- savollar berish – bu oson ish emas: savollar muhokama qilinayotgan mavzu mohiyati bo'yicha bo'lishi kerak; savol sherik gapirayotgan narsani chuqurroq anglashiga yordam berishi kerak; savol mavzudan ortiqcha chetlashib ketishi kerak emas;

• yozish o'z sheriklari uchun ularning daftarlariga yozish kerak bo'ladi, bu esa katta mas'uliyat: yozilgan narsani har qanday odam osongina tushunadigan qilib yozish kerak;

- juftlik va guruh ishi jarayonini boshqarish;
- hisob-kitob va nazoratni yuritish.

Hamkorlikdagi o'qish tamoyillari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- guruhga bitta topshiriq;
- bitta rag'bat: guruh barcha ishtirokchilari hamkorlikdagi ish bahosi (umumiy natijaga erishish uchun barcha guruh a'zolari sarflaydigan kuchi baholanadi) va akademik natijalari yig'indisidan tashkil topgan

bitta baho oladi, ya'ni guruh (komanda) muvaffaqiyati har bir ishtirokchining hissasiga bog'liq;

-har birining o'z muvaffaqiyati va guruhning boshqa a'zolari muvaffaqiyati uchun shaxsiy mas'uliyati;

-hamkorlikdagi faoliyat: guruhiy muzokara, hamkorlik, o'zaro yordam berish kabi o'zaro harakat usullari asosida tashkil topadi;

Muvaffaqiyatga erishishda teng imkoniyatlar:

-har bir o'qiyotgan o'z shaxsiy yutug'ini takomillashtirish, shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda o'qishga berilgan bo'lishi zarur, chunki u boshqalar bilan teng baholanadi.

Guruhlarda hamkorlikda o'qishni tashkillashtirishda o'qituvchi quyidagilarga e'tibor qaratadi:

1. Ta'limiy maqsadni belgilaydi va natijalarni rejalashtiradi.

2. Mavjud o'quv rejasiga muvofiq vaqt bo'lagini, belgilangan maqsad va ko'zlanayotgan natijalarga erishishni amalga oshirish uchun muhim bo'lgan vaqt bilan o'zaro bog'lash. Guruhli ishni o'tkazish mumkinligi to'g'risida xulosa chiqaradi.

3. Guruhli ishga zarur bo'lgan va o'quv rejasida ajratilgan vaqt bo'lagini o'zaro nisbatini belgilaydi.

4. Eng yaxshi model:

1) o'quv topshirig'ini barcha o'quv guruhlariga tushuntirish;

2) kichik guruhlarda, avval alohida, so'ngra birgalikda ishni tashkillashtirish;

3) guruh ishi natijalarini taqdimoti va uni jamoaviy yakunlash;

5. O'quv mashg'ulotining modelini tanlash.

Auditoriya shunday bo'lishi kerakki, bunda bir-birlariga halaqit bermasdan, bir necha guruh ishlashi zarur. Stollar va o'rindiqlari polga mahkamlangan auditoriya to'g'ri kelmaydi.

6. Guruhlar ish joyini tanlash. Ta'limiy maqsadga mos keluvchi bir xil yoki turli topshiriqlarni tanlaydi. Uni ta'lim oluvchilarning qobiliyatlari, bilimi, ko'nikmasi va malaka darajasi va xususiyatlaridan kelib chiqib ifodalaydi.

Bu esa barcha guruh a'zolarini topshiriqni bajarishda birgalikda ishtirok etishini ta'minlash imkonini beradi.

6. Topshiriqni tanlash va uni ifodalash.

Bir turdagi guruhli ish-

o'quv guruhlariga uchun bir turdagi topshiriq bajarishni nazarda tutadi.

Tabaqalashgan (turli topshiriqli) guruhli ish guruhlarida topshiriqlarni bajarishni-nazarda tutadi.

O'qituvchi o'quv materialini va yo'riqnomani tayyorlaydi. Bular yozma yo'riqnoma va topshiriqlarni tayyorlashda o'quvchilar tushunishi va shu asosda o'quv topshiriq'ini bajarishiga qaratilgan, samarali ishni tashkil etilishiga bog'liq bo'ladigan jarayonlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Yo'riqnomaga talab:

Yo'riqnoma quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak:

- topshiriqni aniq ifodalanishi;
- kutilayotgan natijalarga aniq yo'naltirish;
- tajribada sinalgan bo'lishi kerak. Bu yo'riqnomani avval o'zi yoki hamkasbidan bajarishini iltimos qilishi kerak;
- guruh topshiriqni mustaqil bajarishi uchun to'la tavsifnomani olishi kerak undan;
- har bir ta'lim oluvchi uchun tushunarli qilib yozilishi kerak.

Ta'lim oluvchilarni hamkorlikda ishlashga tayyorlash-o'quv guruhida xayrihona munosabat muhitini yaratadi. Faqat shunda hamkorlikda ishni samarali va ijodiy bajaradilar. Ta'lim oluvchilar topshiriqlarni guruhlarida bajarish qoidasini bilishlari va yo'naltirilgan bo'lishlari kerak.

1-bosqich

Guruh ish joyini tayyorlash-stol va o'rindiqlar shunday joylashtiriladiki, bunda ta'lim beruvchi auditoriyada erkin harakatlana olsin, har bir guruh a'zosi bir joyda bo'lishlari va bir-birlarini ko'rishlari va eshitishlari kerak, zarur o'quv qo'llanmalar barchaga yetarli bo'lishi kerak.

2-Asosiy bosqich

1. Ta'lim oluvchilarni guruhlariga taqsimlash – tanlangan kichik guruhlariga birlashtirish yo'li asosida ta'lim oluvchilarni guruhlariga bo'ladi.
2. O'quv topshiriqlarini tarqatish – muammoli vaziyatni taklif qiladi, ta'lim oluvchilar bilan birgalikda uni echish yo'li va tartibini muhokama qiladi, guruhlarda hamkorlikdagi faoliyatni taqdim etish shaklini ma'lum qiladi. Har biri va butun guruhning natijalarini baholash mezonlarini tushuntiradi.
3. O'quv topshiriqlarni bajarish bo'yicha yo'riqnomani tushuntirish. Guruhlar bo'yicha ishni bajarish uchun zarur materiallarni tarqatadi. Topshiriqni bajarishda qanday qo'shimcha materiallardan foydalanish mumkinligini tushuntiradi. Guruhlarda ishlash qoidalarini eslatadi.
Dokada guruhli ishni bajarish bo'yicha yo'riqnomani yozadi yoki tarqatadi.
4. Ta'lim oluvchilar bilan qaytar aloqani amalga oshirish Ta'lim oluvchilar bilan guruhli ishni bajarish bo'yicha yo'riqnomani muhokama qiladi, hammalari uni tushunganlariga ishonch hosil qiladi.
5. Guruhlarda o'quv topshiriqni bajarish jarayonini tashkil etish – o'quv topshiriqni bajarish bo'yicha ishni boshlanishi haqida e'lon qiladi; Guruh ishini nazorat qiladi.

Guruh ishini rejalashtirish, vazifalarni guruh a'zolari o'rtasida taqsimlash, vazifani bajarish bo'yicha yakka tartibda ishlash, yakka tartibda topilgan yechimlarni muhokama qilish, guruh uchun umumiy yechimni ifodalash, guruh ishi natijalarini taqdimotini tayyorlash, aniq topshiriqni bajarish uchun zarur bo'lgan alohida bo'lib ishlashga, ko'nikmalarni shakllantirishga e'tiborini qaratadi.

Ish borishini sharxlaydi, yutuqlarni baholaydi, ayrim aniq, va samimiy tanbex qiladi.

6. Guruh ishi taqdimotini tashkil qilish – bajarilgan ish natijalari to'g'risida ma'lumot berish uchun guruh vakillarini tayinlaydi. Baholash mezonini va ko'rsatkichlarini eslatadi.

3-Nazorat –yakuniy bosqichi

Yakun yasash – natijalar tekshiruvini o'tkazadi:

-guruhning har bir ishtirokchisi bilan gaplashadi;

Guruh ishini tahlil qiladi, topshiriq bajarilishining yakunini qiladi, erishilgan maqsad to'g'risida xulosalar chiqaradi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi jarayonida o'quvchi quyidagilarga ega bo'ladi:

1. Axborotni tanqidiy yondashuv va o'z nuqtai nazarini dalillar bilan asoslashni shakllantiradi.

2. Ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi.

3. Bir vaziyatda olingan bilimlar boshqa vaziyatda qo'llanishiga ko'maklashadi.

4. Dars mazmuniga ijobiy yondashuv shakllantiriladi.

5. Topshiriqlarni bajarish uchun ko'proq sarfini talab etadi.

Kichik guruhlarda ishlashning afzalligi

1. O'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi;

2. O'z vaqtida har tomonlama aloqalarni ta'minlashydi;

3. Muloqotga kirishish ko'nikmasini takomillashtirishga olib keladi;

4. Vaqtning tejash imkoniyati mavjud;

5. Barcha ta'lim oluvchilarni faol ishlashga jalb etadi;

6. O'z-o'zini va guruhlara baholash imkoniyati mavjud.

Guruhda sog'lom sharoit yaratishga yordam beradigan yo'llar

Quyidagicha bajarish lozim:

1. Murosa izlash, a'zo va ular fikrlari o'rtasidagi zidliklarni yumshatish;

2. Bildirilgan turli fikrlardan umumiylikni topish, xulosa chiqarish;

3. Guruh yutuqlariga e'tibor berish;

4. Fikr bildirish uchun xavsiz

muhit yaratish (qatnashchi fikri ustidan hech kim kulmasligiga ishonch hosil qilishi kerak;)

5. Guruhning umumiy manfaatini uchun o'z fikridan qaytish;

6. Keskinlikni hazil bilan yumshatish;

7. Har bir vaziyatda o'zini madaniyatli tutish.

Guruhning miqdori va tarkibi aniq masala va sharoitlarga bog'liq. Guruh tarkibini aniqlashda rioya qilinadigan asosiy qoida qanchalik kamroq bo'lsa, shunchalik yaxshiroq.

Agar hamkorlikda ikki kishi ishlasa, ular bir-biri bilan munosabatda bo'ladi, agar uch kishi bo'lsa-oltita kontakt hosil bo'ladi, agar to'rt kishi bo'lsa- ularning soni o'n ikkita bo'ladi.

Quyidagi esingizda bo'lsin!

1. Guruh qanchalik katta bo'lsa, shunchalik shaxsiy xususiyatlarning kattaroq majmui – qobiliyatlar, bilimlar, ko'nikmalar, odatlar bilan ish tutishingiz kerak bo'ladi.

2. Guruh qanchalik katta bo'lsa, shunchalik uning tarkibiga kirgan bolalarga yuqoriroq talab qo'yiladi:

-ular o'zlarini shunday tutishi kerakki, har biri o'z fikrini ifoda qilish, o'z harakatlarini o'rtog'lari harakatlari bilan muvofiqlashtirish, rozilikka erishish; -o'rganilayotgan materialni tushuntirish, hech kim yalqovlik qilmaganini kuzatish, ishchi atmosferani saqlash imkoniga ega bo'lishi kerak.

3. Guruh miqdorini aniqlashda bajarilishi zarur bo'lgan topshiriqning xususiyati va bunga zarur bo'lgan material (resurs) lar bilan ta'minlanganlik katta rol o'ynaydi.

4. Topshiriqni bajarish uchun qanchalik kam vaqt ajratilgan bo'lsa, guruh shunchalik kichikroq bo'lishi kerak.

Agar qisqa muddatli dars o'tkazilishi kerak bo'lsa, kichik guruhlar bo'lgani ma'qul, chunki ularni tashkil qilish osonroq, ular tezroq ishlaydi.

O'quvchilarni guruhlar bo'yicha taqsimlash guruhlarini shakllantirishning ko'p jihatlari mavjud:

1. O'quvchilarni tasodif bilan taqsimlash, lekin o'qituvchi o'z xohishiga muvofiq harakat qilishi mumkin. Masalan, o'ttizta o'quvchilarni har birida uch kishidan o'nta guruhga bo'lish mumkin. Bu yerda o'yinli tomonlardan foydalanish mumkin, masalan, tug'ilgan oylari bo'yicha, bo'ylari bo'yicha, ranglar bo'yicha, meva yoki geometrik figuralar nomlari bo'yicha va h.k.

2. Dastlabki testlash yordamida. Natijalari bo'yicha o'qituvchi o'quvchilarni uch toifaga ajratishi mumkin - a'lochilar, o'rtachalar va o'zlashtirmovchilar. Keyin u triadalarini shakllantiradi, ularning tarkibiga har bir toifadan bittadan "vakil" kiradi.

3. Bolalar kim bilan ishlashini o'zlari tanlaydilar, lekin bu yo'l eng no-ma'qul hisoblanadi, shuning uchun eng kam tavsiya etiladi. Bolalarning o'z tanlovi bo'yicha tuzilgan guruhlar odatda bir tekis: a'lochilar a'lochilar bilan ishlashni xohlaydi, o'g'il bolalar -o'g'il bolalar bilan va h.k.

Ko'pincha o'quvchilar o'zlari yaratgan guruhlarda pedagog shakllantirgan guruhlariga qaraganda kamroq muvaffaqiyatlarga erishadilar.

Hamkorlikda o'qitishning samaradorligi

1. Axborotga tanqidiy yondashuv va o'z nuqtai nazarini dalillar bilan asoslashni shakllantiradi.

2. Ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi.

3. Bir vaziyatda olingan bilimlar boshqa vaziyatda qo'llanishiga ko'maklashadi.

4. Dars mazmuniga ijobiy yondashuv shakllantiriladi.

5. Topshiriqlarni bajarish uchun ko'proq vaqt sarfini talab etadi.

Kichik guruhlarda ishlashning afzalligi

- O'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi.

- O'z vaqtida har tomonlama aloqalarni ta'minlaydi.

- Muloqotga kirishish ko'nikmasini takomillashishiga olib keladi.

- Vaqtni tejash imkoniyati mavjud.

- Barcha ta'lim oluvchilarni faol ishlashga jalb etadi.

- O'z-o'zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud.

Kichik guruhlarda ishlashning kamchiliklari

- Ba'zan kichik guruhlarda kuchsiz ta'lim oluvchilar bo'lganligi sababli kuchli ta'lim oluvchilar ham past baho olishi mumkin.

- Barcha ta'lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past darajada bo'ladi.

- Guruhlararo o'zaro salbiy raqobat paydo bo'lib qolishi mumkin.

- Guruh ichida o'zaro nizo kelib chiqishi mumkin.

Guruhda sog'lom sharoit yaratishga yordam beradigan yo'llarni quyidagicha bajarish lozim:

- Murosa izlash, a'zo va ular fikrlari o'rtasidagi zidliklarni yumshatish;
- Bildirilgan turli fikrlardan umumiylikni topish, hulosani chiqarish;
- Guruh yutuqlariga e'tibor berish;
- Fikr bildirish uchun xavfsiz muhit yaratish (qatnashchi fikri ustidan hech kim kulmasligiga ishonch hosil qilishi kerak);
- Guruhning umumiy manfaati uchun o'z fikridan qaytish;
- Keskinlikni hazil bilan yumshatish;
- Har bir vaziyatda o'zini madaniyatli tutish.

Shaxsning barcha faoliyat turlari kabi ta'lim jarayoni ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, u kishining bilish jarayonlari, individual xususiyatlariga alohida talablarni qo'yadi. Mazkur faoliyatga munosabat shaklida u yoki bu psixik holatlar paydo bo'ladi. Ta'lim jarayonida vujudga keladigan psixik holatlar doimo bir xil sifat va davomiylikka ega bo'lavermaydi. Ijroiy kechinmalar faoliyat samaradorligiga ta'sir etib, uni yanada qiziqarli bo'lishini ta'minlasa, salbiy his-tuyg'ular ta'lim jarayoni samaradorligini tushurib yuborishi ham mumkin. Bir necha obyektiv, subyektiv sabablar ta'lim jarayonida o'ziga xos stresslarni vujudga kelishiga turtki bo'lib hisoblanadi. Ta'lim faoliyatida paydo bo'ladigan stresslarni bartaraf etish ta'lim samaradorligini oshirishning eng muhim omillaridan biridir.

Psixolog Morin Parsin ham quyidagicha maslahat beradi:

- O'z g'azabingizni tadqiq qiling. O'zingizni tuta olmay janjal chiqargan voqeani, albatta yozib qo'ying. Unga g'azabingiz qo'zg'ashiga sababchi bo'lgan gap, so'zlarni ham kiritishingiz kerak. Yana daftarda mojaroda kim ishtirok etgani, o'zingizni qanday his qilganingiz, g'azab olovi qanchagacha o'chmay turgani yozilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bir-ikki hafta o'tib, buning o'ziga xos qonuniyatga ega ekanini anglab olasiz. To'g'ri janjal insonga ko'p narsani o'zgartirishga yordam berishi ham mumkin, ammo uni boshqacha yo'l bilan ya'ni

go'zallik va sog'liqqa putur yetkazmay o'zgartirsa ham bo'ladi. Agar vaziyat o'zgarmasa unga boshqacha yondoshishga harakat qilish kerak.

Haddan ortiq serjahl insonlarda sekin-asta depressiya, gipertoniya, yurak xastalıkları, artritlar, aroq yoki dori-darmonlarga bog'lanib qolish va xatto semirib ketish xollarini ham kuzatish mumkin. Bundan tashqari jahlini haddan ziyod namoyish etadigan ayollarda sut bezi raki ham kuzatilishi mumkin.

Hissiyotlarini mutlaqo yuzaga chiqarmaydigan, ichiga yutadigan insonlarda ham stress holatlarini kuzatish mumkin. Buning ustiga ular semirib ketishlari yoki aksincha, ozib ketishlari, infarktga ham chalinishlari mumkin. Umuman bunday stress holatlariga psixologlar sovuqqon munosabatda bo'lish kerakligini ta'kidlab, sovish jaxldan tushish uchun jismoniy mashqlarga zo'r berish kerak ekanligini ta'kidlab o'tadilar, chunki jaxl chiqqanda jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish ikki kara foydali ekan. Shunda inson tetiklashadi.

Inson kuchli stressli holatlarni, zo'riqtiruvchi vaziyatlarni muvaffaqiyatli bartaraf etsa kelajakda yana shunday vaziyatlarni yengishga o'zida ishonch va kuch paydo bo'ladi. Stress holatlarini yengishga katta jur'at bilan kirishish va hal etish xuddi shunday vaziyatlarda o'z emotsiyalarini boshqarishni egallaganligiga bog'liq bo'ladi.

Stressni yengillashtiruvchi usullardan biri bu yumor hissini faollashtirishdir. Chunki yengil yumor, kulgu, tabassum bezovtalik va sezgirlikning pasayishiga olib keladi. Yumor orqali inson voqeaning axamiyati haqidagi bahoni o'zgartiradi.

Inson vaziyatni o'ta og'ir deb idrok etayotganida bosh miya po'stlog'ida dominant qo'zg'alish o'chog'i yuzaga keladi. Bu vaziyatda insonga yordam berish uchun unga yangi dominant qo'zg'olish o'chog'ini yuzaga keltirishi lozim. Bosh miya po'stlog'idagi yangi qo'zg'olish o'chog'i qo'zg'olishning kuchini kamaytiradi va ba'zan umuman bosib ketadi. Masalan, ichki nizolar tufayli kuchli ruhiy tenglik holatida turgan inson o'ziga yaqin odamiga havf tahdid solganda o'z kechinmalarini unutib, butunlay sog'ayib ketadi. Albatta, bunday vaziyatlarda jamoatchilik ishlariga chalg'ish, ilmiy yoki badiiy ish bilan shug'ullanish shaxsiy kechinmalarning yengillashtirishiga yordam beradi.

Ko'proq o'z ichki dunyosi bilan band bo'luvchi insonlar uchun musiqa stressni bartaraf etuvchi, yengillashtiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

O'quv jamoalaridagi sog'lom, ishchan vaziyatning shaxs emotsional xushvaqtligiga (komfortlik) ta'sirini alohida qayd etish lozim. Inson umuman o'ziga ijobiy munosabatda bo'lgani holda muayyan xatti-harakatidagi qusurlarni, kamchiliklarni, noetuklik holatlari haqidagi tasavvurni anglay olsa, bu holda u kamchiliklarni bartaraf etish yo'liga o'tadi. U o'z hulqini o'zgartirishga erishishi mumkin, bu yangi hulq esa uning ongiga ta'sir etishi tufayli butun hayotini o'zgartirib yuborishi mumkin. Chunki psixologik himoya mexanizmlarining harakati insonning qadriyatlar tizimiga ziyon yetkazadigan va shuningdek, uning ichki dunyosiga jarohat yetkazuvchi barcha narsalarni ong sohasidan siqib chiqarish evaziga ichki muvozanatni saqlab qolishga yo'naltirilgandir. Ba'zida psixologik himoya mexanizmlari insonning o'z-o'zini rivojlantirishga to'siq bo'lib qolishi ham mumkin.

Hozirgi jamiyatimizda pedagogning mustaqil ravishda bilimlarni egallab, o'z malakasini oshirib borishi - bir tomondan o'qituvchilik faoliyatining borgan sari naqadar muvaffaqiyatli borayotganligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan muhim vazifa ekanligidan dalolat beradi - chunki, bu kechiktirib bo'lmas jarayon shaxsni intellektual qashshoqlikdan qutqarib qoladi.

Psixologik nuqtai-nazardan pedagog doimiy ravishda o'z bilimlarini oshirish bilan shug'ullanishi zarurdir. Chunki o'qituvchilik mehnatining asosiy xususiyati ham shudir. Pedagog har doim odamlar orasida bo'larkan, u birinchidan, odamlarni ko'pdan beri qiziqitirib kelayotgan haqiqatni o'z qarashlari bo'yicha to'g'ri tushuntirib berishi lozim. Albatta, pedagogdagi bu tariqa qarashlar ko'p yillar davomidagi mehnat va hayot faoliyati jarayonida shakllanadi; ikkinchidan, pedagogning o'zi axborotlar olish uchun o'quvchilarga nisbatan cheklangan vaqt imkoniyatiga ega; uchinchidan, u o'ta tor doiradagi tengqurlari bilangina muloqotda bo'lish imkoniyatiga ega bo'lib, ko'pincha o'z kasbiga xos qiziqishlar bilangina cheklanib qoladi.

Pedagogga jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablar, turli xilda ijtimoiy kutishlar, pedagogning individualligi, uning shu tariqa talablarga javob berishga sub'ektiv tayyorligi muayyan o'qituvchining pedagogik faoliyatga naqadar tayyorligidan dalolat beradi.

Pedagog o'z kasbidan va hayotdan doimo mamnunligini dildan his qilib, bu holatni atrofda qilarga, jumladan o'quvchilariga, hamkasblariga, oila-a'zolariga ham namoyon qilishi zarur. Doimo optimistik kayfiyatda bo'lish, birinchidan ta'lim samaradorligiga ta'sir qiladi; ikkinchidan o'quvchilarda pedagogik kasbga qiziqish uyg'onadi.

Xulosa qilib, shuni aytish joizki, pedagogik faoliyat eng murakkab sohalardan biri hisoblanadi. Chunki bunda har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olib, ularga moslashib, pedagogik talablardan chetga chiqmay faoliyat yuritish har bir pedagogda stresslarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Stresslarga barqarorlikni esa pedagogning o'zi egallagan bilim, ko'nikma va malakasi orqali nazorat qiladi. Pedagogning barcha ijobiy, umuminsoniy ahloq me'yorlariga mos keluvchi hislatlari katta ahamiyatga ega. Agar biz quyidagi hislatlarini olib qaraydigan bo'lsak, bularning barchasi ham o'ta muhim omillardir. Jumladan, o'qituvchining tashqi qiyofasi uning obro'si shakllanishiga ta'sir etadi. O'qituvchining ozodaligi, ixchamligi, uning pokizaligi, saranjom - sarishtaligi, o'zini chiroyli tutishi qaddiqomati va yurish-turishlari o'quvchilarda juda yaxshi taassurot koldiradi.

9-§ Boshlang'ich sinflarda darslarida didaktik material va o'yinlardan foydalanish

Raja:

1. Boshlang'ich sinf aniq va tabiiy fan darslarida didaktik material va o'yinlardan foydalanish.
2. O'quvchilarda intellekt va kreativlik qobiliyatlarini shakllantirish yo'l-yo'riqlari

Faol o'qitish usullari boshlang'ich maktab yoshidagi o'quvchilarda kognitiv faollik darajasini maksimal darajada oshiradi, ularni rag'batlantiradi, ayniqsa tabiatni o'rganadigan darslarda. Ammo barcha tirik organizmlar tabiiy yashash joylarida kuzatilishi mumkin emas. Ushbu usullarning muhim qismi o'yin. Biologik tarkibning didaktik o'yini pedagogik faoliyat uchun dolzarbdir, chunki uning kognitiv va tadqiqot tabiati talabalarning atrofdagi dunyoni bilishga bo'lgan qiziqishi, ularning faoliyati bilan bog'liq bo'lib, bu ularga yoshga mos ob'ektlarni, jarayonlarni, tirik dunyo hodisalarini modellashtirishga imkon beradi [1]. Didaktik o'yinning muhim belgilari-bu aniq asoslangan o'quv maqsadi, o'quv va kognitiv yo'nalish, tegishli ta'lim samarasi va natijasi. Bu talabdan o'quv jarayoniga, e'tiborga, zukkolikka qo'shilishni talab qiladi, fikrlashni faollashtiradi, bilimga ijobiy munosabatni rivojlantiradi va natijasi o'ziga xos kashfiyotdir.

Ta'lim tovarlari bozorida taklif qilingan didaktik o'yinlardan sinfda har doim ham boshlang'ich maktab o'quvchilari bilan qo'shimcha umumiy ta'lim umumiy ilmiy rivojlanish dasturi (bundan buyon matnda dastur deb yuritiladi) doirasida foydalanish mumkin emas. Binobarin, muammoning o'z vaqtida echimi-bu maxsus o'yinlarni yaratish, ularning mazmuni o'rganilayotgan mavzularga sho'ng'ish, tirik mavjudotlarning biologik modellarini, yashash muhitining modellarini yaratish, kasbiy faoliyatning mohiyatini sinab ko'rish imkonini beradigan dasturni amalga oshirish uchun mos keladi.

O'yinni rivojlantirish uchun biz bir nechta dizayn bosqichlariga amal qilamiz. Birinchidan, o'quv o'yinlari bozorini uslubiy jihatlardan (kitoblar, nashrlar, video materiallar va boshqalar) amaliyotga (har xil turdagi o'yinlar) o'rganish. Bizning pedagogik faoliyatimizga ko'proq qiziqish faoliyat sohasidagi o'yinlar – intellektual, pedagogik jarayonning tabiati bo'yicha – o'quv va kognitiv ijodiy, o'yin metodologiyasiga ko'ra – syujet va rol o'yinash, simulyatsiya. O'yinlarning mexanikasi va xususiyatlarini o'zgartirib, fan sohasidagi o'quv jarayoni uchun qo'yilgan vazifalarning echimini topish mumkin.

Ikkinchidan, tanlangan materialni quyidagi asoslar bo'yicha o'rganish: sinfda (rolli o'yin, simulyatsiya o'yini), ofis devorlaridan tashqarida aloqani tashkil qilish

mumkinmi? Biologiya materiallari tizimda (yashash joyi, ovqatlanish, turmush tarzi, iqlim, qiziqarli ma'lumotlar, olimlar, kashfiyotlar) taqdim etiladimi? O'yin tasavvurni, tajribalarni rivojlantirish, faktlarni izlash uchun ijodkorlikni qo'llashni o'z ichiga oladimi? Biologik tizimni o'rganish uchun ijodiy texnikani qanday qo'llash mumkin? O'yin dasturning maqsadlari, vazifalari va natijalariga javob beradimi?

Masalan, kognitiv o'yin - «asalarilar oilasining sirlari»simulyatsiyasi. Bolaligidanoq bolalar ishchi – ari, asalning foydali xususiyatlari va qadim zamonlardan beri odam asal asalarilarini xonakilashtirganligi bilan tanish. Uning maqsadlari biologik ob'ektlarning tuzilishini eslab qolish (maketlarni yaratish), atrof-muhitni muhofaza qilishda ishtirok etish tajribasiga ega bo'lish (yovvoyi tabiat ob'ektlarini himoya qilish uchun tashviqot plakatlarini yaratish). O'yinning o'ziga xos xususiyati shundaki, u sizga asalarilar hayotiga sho'ng'ishga imkon beradi, kompyuter simulyatsiya o'yiniga o'xshaydi! O'yin vizual xotirani, jamoada o'ynash va bir-biri bilan muzokaralar olib borish qobiliyatini, jismoniy faollikni va kognitiv qiziqishni rivojlantiradi. Tabiatga hurmatni rivojlantiradi-asal qiyin va uzoq vaqt yaratiladi. Bu bolalarga "asalarilar oilasi" a'zolarining rollarini sinab ko'rishga va asalni yaratish qanchalik qiyinligini his qilishga imkon beradi. "Asalarilar oilasi" tarkibida siz asalarilar o'rtasida vazifalar qanday taqsimlanganligini, turli xil harakatlar birgalikda qanday amalga oshirilishini, bitta maqsadga intilishini mukammal ko'rsatishingiz mumkin. O'yindagi tarkib va rollar: "skautlar" – nektar bilan to'ldirilgan gullarni kashf eting, uyadan bu gulga yo'l oling, marshrutni kollektorlarga tushuntiring. "Kollektorlar" - ular skautlardan marshrutni to'g'ri tushunishlari va to'g'ri gulga uchishlari, bir tomchi nektar to'plashlari va uyaga yetkazishlari kerak. "Asal ishlab chiqaruvchilar" - terimchilardan olingan ingredientlardan asal yarating. Asal uchun chuqurchalar yarating ("chuqurchalar" jumboqlari, jumboqni hal qiling). O'yin uchun atributlar: vazifalar va nektar tomchilari bilan gullar, ko'plab chuqurchalar qurish uchun jumboq, ehtimol rollar bo'yicha identifikatsiya belgilari, burchaklarning ko'k

papkalaridan yasalgan «asalarilarning ko'zlari», kattalashtirgichlar (piktogramma, jantlar va boshqalar).

Keyingi qadam, tanlangan o'yin materialini o'quvchilarning yosh xususiyatlariga, dars metodologiyasiga muvofiq dasturning mazmuni va tematik rejalashtirishiga moslashtirishdir. O'z vazifalarini ishlab chiqish, o'yinni yig'ish, tabiatshunoslik sohasida kasbiy faoliyatni amalga oshiradigan kasblarning tavsifi. Dasturning mazmuni va dasturdagi tematik rejalashtirish qit'alarga ko'ra klasterlardan iborat. Ushbu uslub sizga dasturda rejalashtirilgan o'quv natijasini hisobga olgan holda didaktik o'yinlar bazasini yaratishga imkon beradi.

O'yin(lar) ni "o'yin o'ynash" tamoyili asosida ishlab chiqish bosqichi. "Kichik" o'yin (interfaol vazifalar, laboratoriya vazifalari va boshqalar) ko'proq «katta» o'yinning bir qismiga aylanishi mumkin. mavzuning (dasturning) boshqa tarkibidan foydalanish uchun o'yinning universal mexanikasini ishlab chiqish, shuningdek darsning turli maqsadlari uchun «kichik o'yinlar» dan foydalanish (bilimlarni sinash, yangi materialni o'rganish, ko'nikma va malakalarni mashq qilish va boshqalar) muhimdir. Ushbu bosqichga e'tibor berib, o'qituvchi keyingi darslarga tayyorgarlik ko'rish uchun vaqtni tejaydi, talabalar o'rtasida bilim qiziqishini saqlashga imkon beradi.

Zamonaviy qoida, biz turli xil kompyuter dasturlarini o'rganish va o'zlashtirishni ko'rib chiqamiz Paint.net, Excel, PowerPoint, Constrect, Pano2VR va boshqalar. "katta" o'yinlar, o'yin vazifalarini yaratish, vizual materiallarni sinflar uchun virtual haqiqat, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda moslashtirish. Zamonaviy texnik o'quv vositalaridan foydalangan holda sinfda o'yinlardan foydalanish o'quvchilarga telefondan, kompyuterdan ishlashga imkon beradi, bu uning elektron ma'lumotlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga, texnik vositalardan yordamchi vosita sifatida foydalanishga yordam beradi. Talabalar qiymatni shakllantiradilar-ta'lim natijalariga erishish uchun zamonaviy texnik vositalardan foydalanish qobiliyati.

Masalan, "Afrika" intellektual o'yini o'quvchilarda tizimli, ijodiy fikrlashni, bilish motivatsiyasini rivojlantirishga yordam beradi. Afrika turli xil hayvonlarning

noyob yashash joyi va ko'plab ajoyib o'simliklarning o'sishi. Afrika-bu bola shunchaki sayohat qila olmaydigan joy, lekin ular bu haqda bolaligidan eshitishadi: "Afrikada katta yovuz timsohlar... bolalar Afrikaga sayr qilish uchun bormang!". Undan darsda yangi mavzuni o'rganish uchun foydalanish mumkin. "Yuzdan biriga" televizion dasturining o'yin mexanikasi asos qilib olingan. O'yin Microsoft PowerPoint-da yaratilgan bo'lib, unda pop-up javoblari bilan animatsiya elementlari mavjud. Tayyorgarlik bosqichida bizning muassasamiz o'quvchilari va o'qituvchilari bilan suhbatlar bo'lib o'tdi. Korrespondentlar sifatida Afrika qit'asi haqidagi ilmiy dalillarga asoslangan savollarga eng mashhur javoblarni to'plagan bolalar birlashmasi talabalari ishtirok etishdi: geografik ma'lumotlar, aholi, Millatlar, tibbiyot, Afrikaning hayvonot va o'simlik dunyosi. O'yinning ushbu mazmuni turli sohalaridagi bilimlarni – tarix, geografiya, biologiyani birlashtirishga imkon beradi, bu tabiiy dunyoni tizimli o'rganishni rivojlantirishning ajralmas shartidir. O'yin boshida bolalar ikki jamoaga bo'lingan. Uning yo'nalishi bo'yicha har bir jamoa savollarga javob berish uchun ma'lum miqdordagi ball to'playdi. O'yin eng ommabop, ya'ni kamroq ball to'playdigan eng mashhur faktlarga ega va Afrika haqida eng kam ma'lum bo'lgan faktlar mavjud bo'lib, ular eng ko'p ball to'playdi. Eng kam ma'lum bo'lgan faktni beradigan jamoa eng ko'p ball oladi. Keyingi darslarda bolalarni ko'proq qiziqtirgan faktlar o'rganiladi. Ortda qolgan ma'lumotlarga ko'ra, mustaqil o'rganish uchun video lavhalar, ko'rsatuvlar katalogi yaratilgan.

Eng qiziqarli dizayn bosqichlaridan biri bu zamonaviy ta'lim resurslarining hamkorligi: QR kodlari, yagona elektron resurs manzili (URL), "hayvonot va o'simlik dunyosi" xaritasi uchun IQMap ilovasi, tadqiqot va ijodiy topshiriqlar, jumboqlar, topishmoqlar, krossvordlar, klassik adabiyot va entsiklopediyalardan parchalar, laboratoriya asboblariidan foydalanish, topshiriqlar diagrammalar va biologik chizmalar bilan, pop-up (hayvonot va o'simlik dunyosi modellarini tayyorlashning interaktiv elementlari), interaktiv vazifalar (lapbook). Bunday qadam sizga bolalar mustaqil ravishda yaratadigan va unda ishlaydigan interaktiv o'yin "Explorer kundaligi" ni yaratishga imkon beradi. O'yin namunasi, tadqiqot

elementlari bilan "Shimoliy qutbga ekspeditsiya" stol usti rolli o'yini. O'yin sujeti Arktikaning biologik xilma-xilligini o'rganish bo'yicha ilmiy ekspeditsiyaning haqiqiy sharoitlariga yaqin. O'yin interaktiv elementlarni o'z ichiga olgan o'yin maydonini o'z ichiga oladi – ilmiy qutb stantsiyasi, teshik teshiklari, muz bloklari, hayvonlar. O'yinning maqsadi: o'quvchilarda ongni rivojlantirish, olingan ma'lumotlarni tahlil qilish qobiliyati va uni qoidalarga muvofiq tuzatish qobiliyati. O'yin qoidalari bolalar ilmiy stantsiya binosiga "kirish" orqali oladigan tadqiqot kundaliklarida tasvirlangan (qoidalar va vazifalar o'zgaruvchan). Ulardagi vazifalardan so'ng bolalar Shimoliy qutb aholisi bilan tanishadilar va ijodiy ishlarni bajaradilar. Masalan, "siz qutb ayig'i bilan uchrashdingiz, uning izlarini chizib, chizilgan rasmga imzo chekdingiz", "kecha keldi va biz osmonda Shimoliy chiroqlarni kuzatamiz, u boshqacha, diqqat bilan ko'rib chiqing – tadqiqot kundaligida yorug'lik to'lqinlarining yo'nalishini, porlash soyalarini chizib oling". Yangi mavzu bilan tanishayotganda, bolalar barcha o'yin nuqtalaridan o'tib, Shimoliy qutb haqida o'yinda taklif qilingan faktlarni bilib olishadi va tadqiqot kundaligidagi barcha vazifalarni tartibda to'ldirishadi. O'rganilgan materialni birlashtirganda-tasodifiy tanlov elementi o'yinga kiritiladi-zar-keyin "ekspeditsiya" bir nechta darsni davom ettiradi, ammo tadqiqot kundaligidagi barcha vazifalar bajarilmaguncha.

Shunday qilib, didaktik o'yinlarni ishlab chiqish tajribasi bir nechta samarali dizayn bosqichlarini o'z ichiga oladi. Ularga ko'ra, ishlab chiqilgan o'yinlar yangi mavzuni o'rganish darslarida, bilimlarni mustahkamlash uchun, o'rganilgan materialni takrorlashda amalga oshiriladi, bu bolalarga o'rganilayotgan tirik organizm dunyosiga sho'ng'ishga, "dunyoga uning ko'zlari bilan qarashga", ushbu organizmning mavjudligining izchilligini tushunishga imkon beradi.dunyo. Atrofdagi dunyoni idrok etish va tushunish qiyin bo'lgan biologik tizim, bola tomonidan har tomonlama boshdan kechiriladi va o'rganishga imkon beradi, kelajakda tabiatni o'rganishga qiziqadi, go'yo o'ziga jalb qiladi o'rganilayotgan ob'ekt bilan o'zaro bog'liq bo'lgan va uning hayoti va dunyoda mavjudligini batafsilroq ko'rib chiqishga imkon beradigan tabiatdagi bir qator voqealar zanjiri.

Shunday qilib, boshlang'ich maktab yoshidagi o'quvchilarning tadqiqot kognitiv faoliyatini faollashtiradigan qiziquvchanlik paydo bo'ladi.

Darslarda, taklif qilingan o'yinlarda foydalanish bolalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga kognitiv qiziqishi va motivatsiyasini, kuzatish, qiziquvchanlik, fantastikli fanlarini o'rganishga zukkoligini rivojlantirishga imkon beradi. Ijodiy nostandart fikrlashni shakllantirish, kerakli ma'lumotlarni topish va umumlashtirishni rivojlantirish, nostandart vaziyatlarda harakat qilish, jamoada ishlash, boshlang'ich maktab yoshidagi talabalardan ma'lumotni tanqidiy idrok etish ko'nikmalarini olish. O'yinlarni rivojlantirishning bunday yechimi ularni o'quv jarayonida, darsda ham, bolalar uyushmasining tarbiyaviy ishlarida ham ishlatishga imkon beradi.

"Yashil topishmoqlar"

Maqsad: "Meva" va "Sabzavotlar" mavzularidagi bilimlarni mustahkamlash.

Aktyorlar 2-3 guruhga bo'lingan. Ularning har biri doira hosil qiladi. Doira markazida sabzavot va mevalar solingan sumka bor. Barcha o'yinchilar bitta sabzavot yoki meva tasvirlangan emblemaga ega. Bir topishmoq bor. Ushbu sabzavot yoki mevaning emblemasiga ega bo'lgan talaba taxminni chaqiradi, shundan so'ng u sumkada nomlangan narsani topadi. Agar ishtirokchi xato qilmasa, uning guruhi ochko oladi. Eng ko'p ochko to'plagan guruh g'alaba qozonadi.

Topishmoqlar:

Bobo o'tiradi

Yuz mo'ynali kiyimda,

Uni kim echintiradi,

U ko'z yoshlarini to'kadi. (Piyoz)

Yozda bog'da –

Yangi, yashil,

Va qishda bochkada –

Kuchli sho'r. (Bodring)

Ildiz emas, balki yerda,
Stolda non emas.
Oziq-ovqat uchun ziravorlar,
Va kengash mikroblarida. (Sarimsoq)

Ular don ekishdi,
Quyosh ko'tarildi. (Kungaboqar)

Dumaloq, qizarib ketgan,
Men filialda o'saman,
Kattalar meni yaxshi ko'rishadi,
Bolalar meni yaxshi ko'rishadi. (Olma)

Qizil burun erga singib ketgan,
A yashil quyruq tashqarida.
Bizga yashil quyruq kerak emas.
Faqat qizil burun kerak. (Sabzi)

Dumaloq, maydalangan, oq,
U dalalardan stolga keldi,
Siz uni ozgina el qildingiz,
Axir, albatta, mazali...? (Kartoshka)

Qalin va sariq teri,
U butun hayotini yotgan holda o'tkazadi. (Qovoq)

"Bu turli xil gullar"

Maqsad: yopiq va yovvoyi gullar haqidagi bilimlarni mustahkamlash, bolalarning bilim faolligini, ishda ilgari olingan bilimlardan foydalanish qobiliyatini rivojlantirish.

Ushbu didaktik o'yin rivojlanish soatlarida ham, dars paytida ham juft bo'lib ishlash uchun ishlatilishi mumkin. Kartalar oldindan tarqatiladi.

Uskunalar:

Bolalarda yopiq gullar va yovvoyi gullar tasvirlangan kartalar, shuningdek "D" va "K" harflari bilan ikkita Tuval mavjud. (rasm.1.)

O'qituvchining hikoyasidan so'ng, bolalar gullarni yopiq va yovvoyi gullarga tarqatishga taklif qilinadi. Keyin talabalar yopiq va yovvoyi gullarga olib borgan gullarni nomlashadi. Siz doskaga bir xil harflarni birlashtirishingiz mumkin va bolalar



navbat bilan chiqib, kerakli harf ostida bitta kartani birlashtiradilar.

“Mevalarni bilib oling”

Maqsad: o'rmonlarimiz va bog'larimizning berry ekinlarini tanib olish qobiliyatini mustahkamlash.

Ekranida rezavorlar tasvirlangan rasmlar millatlaydi. Rasmni bosish kerak, ular millatlashni to'xtatadilar. Quyida uchta so'z paydo bo'ladi-rezavorlar nomi. Rasmga mos keladigan so'zni tanlash kerak. Agar berryning nomi tanlangan bo'lsa, to'g'ri, unda so'zda tasdiq belgisi shaklida yashil belgi paydo bo'ladi, agar bo'lmasa - qizil xoch.

“O'simlikning etishmayotgan qismlarini joylashtiring”

Maqsad: o'simliklar haqidagi bilimlarni mustahkamlash.

O'yin jarayoni

Variant 1. Doskada o'simlik tasvirlangan plakat osilgan. Suhbat o'simlikning tuzilishi, o'simlik qismlarining nomi va joylashishi haqida. Bundan tashqari, o'qituvchi maktab o'quvchilarining e'tiborini ba'zi qismlarning yo'qligiga qaratadi. Ular yiqilib, chalkashib ketishdi. Ularni o'z joylariga joylashtirish kerak. Talabalar birma-bir doskaga chiqib, o'simlik qismlaridan birini tanlaydilar, bu haqda gaplashadilar va kerakli joyga birlashtiradilar.

Variant 2. Mikro guruhlarda, juftlikda yoki alohida-alohida ishlash. Talabalarga etishmayotgan qismlari va o'simlikning alohida qismlari bo'lgan o'simlik tasvirlangan kartalar beriladi. Maktab o'quvchilari qismlarni tegishli

joylariga joylashtiradilar, so'ngra o'simlikning biron bir qismi haqida birma-bir aytib berishadi.

Agar ish alohida-alohida bajarilgan bo'lsa, siz doskadagi demo tasvir yordamida tekshirishni qo'llashingiz mumkin yoki o'qituvchi ishlarni to'playdi, tekshiradi va belgilaydi.

“O'rmon va tundra hayvonlari”

(Rasm saralash)

Maqsad: o'rmon va tundra hayvonlarini ajrata olish.

Turli xil hayvonlarning bir qator tasvirlari berilgan. Vazifa rasmlarni ikkita ustunga ko'chirishdir: o'rmon hayvonlari va tundra hayvonlari.

“Ko'chib yuruvchi va qishlaydigan qushlar”

Maqsad: ko'chib yuruvchi va qishlaydigan qushlarni ajrata olish.

Qushlarning tasvirlari berilgan. Siz qushning rasmini nomi bilan kerakli girdobga ko'chirishingiz kerak: ko'chib yuruvchi yoki qishlaydigan qushlar. Agar rasm to'g'ri tanlangan bo'lsa, unda qush girdobga tushadi, agar bo'lmasa, rasm joyida qoladi.

“Bizning o'rmonlarimiz qushlari” (Anagram)

Maqsad: «o'rmonlarimiz qushlari» mavzusidagi bilimlarni tizimlashtirish va chuqurlashtirish

Ekranida harflar mavjud. Harflarni joylarda qayta tartiblashda siz so'z - qushning nomini olishingizga ishonch hosil qilishingiz kerak. Aktyor «ishga tushirish» so'zini bosadi va harflarni qayta tartiblashni boshlaydi. Agar o'yinchi so'zni harflar bilan tanib olishda qiynalsa, u tugmachani bosishi mumkin-kalit (clue). Ekranida jumboq uchi va ushbu qushning tasviri paydo bo'ladi.

Masalan: ekranida harflar-b, p, z, e, a

Kalit - «chiziqli ot»

“Yovvoyi va uy hayvonlari”

Maqsad: «yovvoyi hayvonlar», «uy hayvonlari» mavzularidagi bilimlarni mustahkamlash.

O'qituvchining «endi biz ertak o'rmoniga sayohat qilamiz» degan so'zlaridan so'ng, bolalar sayohatga boradigan transportni tanlaydilar, nima uchun bu transportni tanlaganliklarini tushuntiradilar. Musiqa yangraydi.

O'qituvchi aytadi: mana ajoyib o'rmon, lekin kechqurun qorong'i tusha boshlaydi. Biz tunni o'rmonchining uyida o'tkazishimiz kerak va ertalab sayohatni davom ettiramiz. Ertalab Sasha hammadan oldin uyg'ondi va uni yangi joy bilan tanishtirishga qaror qildi. U atrofga qaradi va to'satdan karavot yonidagi gilamchada yotgan hayvonni ko'rdi. Sasha ko'rgan hayvon haqidagi topishmoqni tinglang va uning surati tushirilgan rasmni toping.

O'tkir quloqlar,

Yostiqning oyoqlarida,

Mo'ylov tuklar kabi,

Orqa kamon.

Kunduzi uxlaydi, quyoshda yotadi.

Kechasi aylanib yuradi,

U ovga chiqadi.

Bu hayvonni qanday asosda taniysiz?

Quyida bolalar o'rmonchining uyining hovlisida ko'rishlari mumkin bo'lgan boshqa uy hayvonlari haqida topishmoqlar keltirilgan. Jumboqlarni taxmin qilganda, hayvonlarning rasmlari yozuv tuvaliga qo'yiladi, keyin savol tug'iladi: bu hayvonlar guruhini nima deb atash mumkin? (Uy qurilishi). Xulosa qilinadi: unga foyda keltiradigan odam g'amxo'rlik qiladigan hayvonlar (ular uchun uy-joy quradi, ovqatlantiradi, parvarish qiladi) uy hayvonlari deb ataladi.

O'qituvchi so'raydi: yovvoyi hayvonlar qayerda yashaydi? Talabalarni o'rmonga borishga taklif qiladi. Uning aholisini ko'rish uchun o'rmonda o'zini qanday tutish kerakligi aniqlandi. Bolalar ko'zlarini yumadilar, o'rmon qushlari va hayvonlarining ovozlari Tinglaydilar. Bu vaqtda «o'rmon»surati osilgan. Yovvoyi hayvonlar haqida topishmoqlar mavjud. Ular taxmin qilinganidek, yovvoyi hayvonlarning rasmlari yozuv tuvaliga qo'yiladi.

Bu hayvon sizga tanish – u sichqonlar yeydi,

Sut ichadi,

Ammo u mushukka o'xshamaydi,

Hammasi uzun tikanlarda ...(Kirpi)

Siz va men hayvonni taniymiz

Bunday ikkita belgi bo'yicha:

U kulrang qishda mo'ynali kiyimda,

Va qizil mo'ynali kiyimda – yozda. (Sincap)

Siz uni darhol taniysiz:

Yozda qish uchun zaxiralar

U kundan-kunga tejamaydi,

Barcha zaxiralar har doim u bilan.

Qishda shirin uxlaydi

Horlama yo'q.

Va og'izda, ko'krak kabi, panjasi bor.

Faqat tomchilar jiringlay boshlaydi,

Uyg'onadi ... (Ayiq)

Qaysi hayvonlar yovvoyi deb ataladi degan xulosaga kelishdi.

Sayohatning oxirgi bosqichi: o'rmonda erta kuz. Bolalar hayvonlar tasvirlangan rasmlarni ko'rib chiqadilar va sentyabr oyida o'rmonda topilishi mumkin bo'lganlarni tanlaydilar.

1-bo'lim.

Tabiatni o'rganish. Xarita

1. Biz tabiatni o'rganishning asosiy usullarini sanab o'tdik.

O'rganish usullari

2. Tuproq tarkibida havo borligini isbotlash uchun biz bir parcha tuproqni suvga tashladik. Biz ... a) tadqiqot b) kuzatish c) tajriba o'tkazdik

3. Yozda jonsiz tabiatda qanday o'zgarishlar yuz berishini bilib oling:

Osmon kamdan-kam hollarda yopiladi Ko'pincha momaqaldiroq, shundan keyin osmonda paydo bo'ladi Ertalab maysazorga

tushadi Ertalab va kechqurun dalalar va o'tloqlar ustida tez-tez uchraydi
.....

4. Rebusni taxmin qiling:

Javob: _____

5. Ob-havoni kuzatish uchun ishlatiladigan asboblari:

A) termometr, cho'kindi, ob-havo, kompas.

B) Ruletka, hukmdor.

C) soat, tarozi, lupa.

10-§. Boshlang'ich sinflarda aniq va tabiiy fanlardan ochiq darslarni o'tkazish va darsni tahlil qilish

Reja:

1. Aniq va tabiiy fanlar darslarini kuzatishdan ko'zlangan maqsadlar.
2. Darsni kuzatish va tahlil qilish.
3. Dars tahlilining maqsad va vazifalari. Dars tahliliga qo'yilgan talablar. Ochiq, ko'rgazmali, namunaviy, hisobot darslari va ularga qo'yilgan talablar.
4. Darsni tahlil qilish usullari.

Dars kuzatish va tahlil qilish orqali o'quvchilarning umumiy tayyorgarligi, bilim olishdagi faoliyati, o'quv faiga bo'lgan qiziqishi, diqqat bilan ishlashi, matn, xarita, jadval, asboblari bilan mustaqil ishlay bilishi, o'kshuvchiga bo'lgan munosabati aniqlanadi. Shu bilan birga o'qituvchining faoliyati ham tahlil qilinadi. Chunonchi, o'qituvchining o'quv dasturi materiallarini bilish darajasi, ya'ni mavzuni tushuntirish jarayonida asosiy fikrni ajratib olishi, ilmiylik va soddalik, ko'rgazmalilik tamoyillariga rioya qilishi, dars maqsadini to'g'ri qo'yishi, dars jarayonini to'g'ri rejalashtirishi, darsda hamkorlikka erisha olishi, bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni nazorat etishi, o'quvchilar bilan yakka va jamoada ishlashni tashkil eta bilishi, dars mobaynida vaqtdan unumli foydalanishi va pedagogik muomala madaniyatini egallaganlik darajasi kabi jihatlar inobatga olinadi.

O'qituvchining darsini bir necha marta kuzatish va tahlil qilish, uning pedagogik mahorati, ish tizimi, o'quvchilarining o'zlashtirishi, bilim darajasi kabi sohaviy va kasbiy layoqati yuzasidai xulosa chiqarish imkonini beradi.

Takidlash joizki, umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchilarining darslarini tahlil qilishda ko'pincha kuzatuvchilar darsga yaxlit tizim sifatida qaramay ko'proq tashqi jihatlariga baho beradilar, darsning mazmun-mohiyati xususida yuzaki mulohaza yuritadilar. Shuningdek, dars tahlilida o'qituvchining ko'rsatmali qo'llanmadan foydalanishi, didaktik kartochkalar bilai ishlashi va hokozolar aytiladi-yu, ammo ulardan nima maqsadda, qaysi vaziyatda foydalanilgani, qanchalik samara berganligi, vaqt taqsimotiga to'g'ri amal qilinganligi, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan-olmaganligi kabi masalalar to'g'risida fikr yuritilmaydi. Bundan tashqari yana bir jiddiy kamchilik o'qituvchining o'zini o'zi tahlil qilishiga e'tibor qaratmaslikdir. O'zini-o'zi tahlil qilish tamoyili o'qituvchining o'z faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarini aniqlash va bartaraf etishga oid maqsadli yo'lni belgilab olishiga asos bo'ladi. O'qituvchilar aksariyat hollarda dars jarayonida quyidagi xato va kamchiliklarga yo'l ko'yadilar. Jumladan, bu:

- dars maqsadi bilan o'quvchilarni tanishtirmaslik;
- interfaol metodlardan samarasiz foydalanish;
- dars jarayonida barcha o'quvchilarning ishtirokini ta'minlay olmaslik;
- o'quvchilar bilan yakka va jamoa tartibda ishlashga erisha olmaslik;
- o'quvchilarning mustaqil ishlashini ta'minlamaslik;
- o'quvchilar bajargan ishlarini vaqtida baholamaslik;
- o'qituvchi nutqiniig ravon ta'sirchan emasligi;
- mavzuni amaliyot bilan bog'lab tushuntirmaslik;
- mavzuni ilmiy va amaliy nuqtai nazardan tushuntirishga e'tibor bermaslik;
- sinf doskasi, darslik, o'quvchi daftari, qo'shimcha adabiyotlardan foydalanishning tizimli yo'lga qo'yilmaganligi;
- o'quvchilarga beriladigan savollarning muammoli tarzda tuzilmaganligi kabilar.

Darslar aniq maqsad asosida kuzatilishi va tahlil qilinishi lozim. SHundagina natijasi samarali bo'ladi va o'quv jarayoni yuzasidan aniq xulosa chiqarish imkonini beradi. Dars tahlilida izchillikning aniq bir maqsadning yo'qligi, darsga tasodifan qatnashish, darsni chuqur tahlil qila olmaslik, o'qituvchiga amaliy yordam ko'rsata olmaslik kabi jihatlar darslar sifatining va saviyasining pasayib ketishiga olib keladi.

Darslarni tahlil qilish faqatgina metodik ahamiyatga ega bo'lmay, balki maktabda o'quv-tarbiya jarayoniga rahbarlik va nazoratning muhim Shakllaridan biridir. O'qituvchi darsini kuzatish va tahlil qilish amaliyotining tizimli amalga oshirilishi darslarni qiyoslash va yo'l qo'yilgai xatolarning bartaraf etilganligini aniqlash imkoniyatini beradi. O'qituvchilarning o'zaro dars kuzatishi tajriba almashinuv jarayoni bo'lib, dars o'tayotgan o'qituvchi bor mahoratini ishga solib, yuqori ishchanlik bilan faoliyat ko'rsatsa, tahlil qiluvchi o'qituvchi esa taklif va mulohazalar berish orqali tajribasini boyitadi, metodik malakasini oshiradi.

II.2. Darsni kuzatish va tahlil qilishdan maqsad va uning turlari.

Dars tahlili o'quv mashg'ulotini kuzatish, o'rganish Shaklida olib boriladi. Shu o'rinda savol tug'iladi. O'qituvchining darsi kim tomonidan kuzatilishi lozim? Qanday maqsad bilan kuzatiladi ia tahlil qilinadi? O'qituvchining darsi viloyat XTB, tuman xalq ta'limi bo'limi, ta'lim muassasalari rahbarlari, xodimlari, metodistlar va o'qituvchilar tomonidan kuzatiladi va tahlil qilinadi.

Buning uchun, eng avvalo, darsga kirishdan maqsad nimadan iborat ekanligini aniqlab olish zarur.

Dars quyidagi maqsadda kuzatiladi va tahlil qilinadi:

- ta'lim va tarbiya jarayoni sifatini aniqlash;
- o'qituvchining pedagogik mahoratini oshirishga yordam berish;
- ilg'or ish usullari va metodlarini o'rganish va ommalashtirish;
- o'qituvchilarning o'zaro tajriba almashishi;
- o'quvchilarning bilimi va tarbiyalanganlik darajasini aniqlash;
- ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish;
- o'quvchilarning bilish faoliyatini o'rganish;

- o'qituvchiga amaliy va metodik yordam ko'rsatish;
- ta'lim-garbiya jarayonida o'quvchilar psixologik xususiyatlarining o'ziga xosligini e'tiborga olish;

- darsda o'quvchilarni faollashtirish va mavzuni o'zlashtirish darajasining e'tiborga olinganligi.

Dars - o'quv jarayonining juda ko'p talim-tarbiya qirralarini hal qiluvchi asos hisoblanadi. Shunga ko'ra darsni kuzatuvchi va tahlil qiluvchilardan maxsus tayyorgarlik ko'rish talab etiladi.

Darsni tahlil qilish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

1. Darsni kuzatishga tayyorgarlik.
2. Darsning borishini kuzatish.
3. O'z-o'zini tahlil qilishni taminlash.
4. Dars tahlili va takliflar berish.

Darsni tahlil qilishda quyidagilarga e'tibor qaratish tavsiya etiladi.

2. Darsni kuzatishdan oldingi tayyorgarlik:

- dars kuzatishdan ko'zlanayotgan maqsad va vazifalarni Shakllantirish;
- kuzatiladigan darsni aniq belgilab olish;
- dars kuzatish tuzilmasini tayyorlash;
- kerakli materiallarni tayyorlash; o'qituvchi bilan suhbatlashish.

3. Darsning maqsadlarini tahlil qilishda:

- o'quv fani va mavzuning o'ziga xos tomonlari, o'quvchilar yoshi va bilim darajasi e'tiborga olingan holda ta'lim-tarbiya maqsadini to'g'ri va asosli qo'yilganligi;

- o'quvchilarning tayyorgarligi, o'rganilayotgan mavzu bo'yicha darslar tizimidagi aynan shu darsning o'rini hisobga olgan holda maqsad qo'yilishining to'g'riligi va asoslanganligi;

- dars asosiy g'oyasining to'g'ri qo'yilishi va o'quvchilarga maqsadning yetkazilishi, maqsadga erishish darajasi.

4. Dars tuzilmasi va darsning tashkil qilinishini tahlil qilishda:

- dars tuzilmasining dars maqsadlariga mosligi;

- dars turi va strukturasi puxta o'ylanganligi;
- dars bosqichlarining mantiqiy ketma-ketligi va bir-biri bilan bog'liqligi;
- dars bosqichlari uchun vaqtning to'g'ri taqsimlanganligi;
- o'qitish shakllarini to'g'ri tanlanganligi;
- dars rejasi mavjudligi va uning o'qituvchi tomonidan bajarilishini tashkil qilishi;
- dars jihozlari.

5. Dars mazmunini tahlil qilishda:

- dars mazmunining Davlat ta'lim standarti talablariga mosligi;
- materiallarning to'liqligi, tushunarligi;
- bayon qilinayotgan materialning ilmiy darajasi;
- darsni tarbiyaviy yo'nalishi, ta'limiy ta'sir darajasi;
- darsning hayot, mehnat tarbiyasi va kasbga yo'naltirish bilan bog'lanishi;
- o'quvchilar tomonidan yangi bilimlarni qabul qilishdagi qiyinchiliklarni

bartaraf etish;

- yangi materialning asosiy g'oyasini ajratish. Yangi tushunchalarni

Shakllantirish.

Tayanch bilimlarning muhimligini ko'rsatish.

Dars tahlilini quyidagi asosiy 5 turga bo'lish mumkin.

1. Ilmiy tahlil.
2. Metodik tahlil.
3. Didaktik tahlil.
4. Umumpedagogik tahlil.
5. Umumpsixologik tahlil.

Ilmiy tahlil berilayotgan bilimlarning ilmiy-nazariy jihati, o'quvchi bajarayotgan mustaqil ishning maqsadga muvofiq bo'lishi jihatdan to'g'riligini aniqlash demakdir. Bunda asosan quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir.

1. O'qituvchining shu kungi darsga ilmiy-metodik tayyorlanganlik holati.

2. O'z mutaxassisligiga oid eng yangi ilmiy-nazariy axborotlar bilan qurollanganligi.

3. Dars jarayonida ilmiy qoida va ta'riflarning to'g'ri bayon etilishi hamda ilmiy atamalarning o'quvchilarga singdirib borilishi.

4. Darslik materiallarining qo'shimcha adabiyot materiallari bilan boyitilishi.

5. O'quvchi va o'qituvchi bajarayotgan laboratoriya, amaliy hamda mustaqil ishlarning ilmiy-nazariy jihatdan maqsadga muvofiqligi.

6. O'quvchilar mavzuni ilmiy jihatdan to'g'ri, qisqa va mukammal bayon etishini o'qituvchi tomonidan nazorat qilishi.

7. Dars davomida yangi mavzuni bayon etish jarayonida ta'limning tarbiya bilan bog'lanishi.

8. O'qituvchi va o'quvchilarning nutq madaniyati.

Metodik tahlil. O'qituvchining dars jarayonida qo'llagan usullarining maqsadga muvofiq ekanligi ta'limning turiga va uning o'ziga xos xususiyatlariga qarab belgilanadi. O'quv materialini o'quvchilarga bayon qilish qv tushuntirish jarayonida qo'llanilgan usullarining shu materialga mosligi yoki mos emasligi metodik tahlil davomida aniqlanadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'qituvchi darsda qo'llagan usullarning samaradorligi, rang-barangligi, namunaviyligi, uning o'tgan, yangi mavzu materialini o'quvchilarning qay darajada o'zlashtirilganligi bilan belgilanadi. Shu boisdan har bir dars kuzatuvchi dars tahlilining bu turiga alohida e'tibor bilan qarashi kerak. Dars metodlarini tahlil qilishda quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir:

1. Dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining tashkiliy Shakllariga ko'ra:

- a) hikoya usuli;
- b) og'zaki usuli;
- v) suhbat usuli.

2. O'quvchilarning o'zlashtirishiga ko'ra:

- a) o'qituvchining so'zlash usuli;
- b) ko'rsatmali qurollardan foydalanish usuli;

- v) darslik, diagramma, jadvallar bilan ishlash usuli;
- g) laboratoriya asboblari bilan ishlash usuli;
- d) texnik vositalaridan (informatika elektron hisoblash texnikasi, diafilm, radio, televizor kabilardan) foydalanish usuli;
- e) sinf doskasidan, turli kartalarda foydalanish usuli.

Didaktik tahlil. Ta'lim turlari samaradorligi va uni belgilovchi qonun va qoidalarning darsda qanchalik to'g'ri hamda mukammal bajarilganligini tahlil qilish demakdir.

Darsni didaktik tahlil qilishda quyidagilarga e'tibor berish o'rinli bo'ladi:

1. O'qituvchi bayonining g'oyaviy jihatdan ta'lim-tarbiya talabiga mos bo'lganligi.
2. O'qituvchi fikrining sinf o'quvchilari jamoasiga to'la tushunarli bo'lishi va bu bayonning izchil ravishda o'quvchi ongiga etib borishi.
3. Barcha o'quvchilarning o'qituvchi berayotgan materialni ongli ravishda o'zlashtirishlari.
4. O'qituvchi bayonida rivojlantiruvchi va muammoli ta'limning mavjudligi.
5. O'qituvchi fikrining izchilligi.
6. Dars jarayonida ko'rsatmali qurollardan, tarqatma materiallardan va texnika vositalaridan foydalanishning qanchalik maqsadga muvofiqligi.
7. Ekskursiya, tajriba, amaliy ishlarda maqsadga erishganligi.
8. Darslik bilan ishlashning to'g'riligi.
9. Misollarning ta'lim-tarbiya birligi asosida yo'nalishi.
10. Darsni ma'lum bir tizimda olib borilishi.

Umumpedagogik tahlil. Bu darsdagi hamma jihatlarning qisqa va o'zaro bog'liqligi tahlilidir. Bunda quyidagilarni hisobga olish o'rinli bo'ladi:

1. O'quv yoki dars xonasining dars o'tishga tayyorgarlik holati (dars jihozlari).
2. O'quv xonasining sanitariya-gigiena holati.
3. O'qituvchining dars mavzusi bo'yicha ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadi.

4. O'qituvchining mazkur darsga ilmiy-metodik va umumiy pedagogik jihatdan qanchalik tayyorlanganlik darajasi.

5. O'qituvchining dars etaplaridan to'g'ri foydalanligi.

6. O'qituvchining o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda pedagogik jihatdan namunalilik darajasi.

7. O'quvchilar bilimiga qo'yiladigan bahoning adolatli va izohli bo'lishi.

8. O'quvchilarning darsdagi faolligi, intizomi, mustaqil fikr yuritishi hamda mazkur fan asoslarini o'zlashtirib olganlik darajasi.

9. O'quvchilarning o'qituvchi darsiga munosabati va hurmat bilan qarashi.

10. O'qituvchining darsdagi rahbarlik roli va ish uslubi, ta'limni tarbiyaga bog'lashi.

11. Dars jarayonida o'lkashunoslik, ekologiya va tabiatni muhofaza qilish materiallaridan foydalanishi.

12. O'qituvchining darsda asosiy maqsadiga erisha olganligi.

13. O'qituvchining ilmiy, metodik va umumpedagogik jihatdan yordamga muhtojligi kabilar.

Umumpsixologik tahlil. Darsni umumpsixologik tahlil qilish sxemasi:

I. Darsning aniq maqsad va vazifalariga bog'liq ravishda tuzilishiga psixologik baho berish.

a) darsning mavzu, maqsad va vazifalari;

b) darsning psixologik jihatdan maqsadga muvofiqligi.

II. Darsning mazmuniga psixologik jihatdan baho berish.

a) mazkur material o'quvchilar bilim faoliyatining yoki xususiyatlariga, ularning hayotiy tajribasi va bilimlari darajasiga mos kelishi;

b) o'qituvchining murakkab o'quv materialini mazkur yoshdagi o'quvchilarning idrok etishi uchun qulay, tushunarli va qiziqarli uyushtirish (bayon qilishning oddiyligi, ravonligi, qiyoslarning mavjudligi, hayot bilan bog'lash);

v) o'rganilayotgan materialning tarbiyaviy ta'siri.

III. Darsda o'quvchilar bilim faoliyatining namoyon bo'lishi va uni boshqarish.

1. Diqqatni tashkil etish.

2. Idrokni tashkil etish.

3. Xotirani faollashtirish – ya'ni bayon qilinayotgan ma'lumotlarni yaxshiroq eslab qolish usullaridan foydalanishi, takrorlash, masalalar yechish, muammoli vaziyatlar vujudga keltirish va ularni yechimini topish.

4. O'quvchilar fikrlash faoliyatini kuchaytirish. Mavzuga doir muammoli vaziyatlar qanday yo'llar bilan yaratildi. O'quvchilar javoblarni izlashda faollik ko'rsatdilarmi? Ular qo'yilgan muammoning yechimini topish uchun qanday aniq fikrlash harakatlarini mustaqil ravishda amalga oshirdilar. O'quvchilarda ana shu ko'nikmalar hosil qilinganligi.

5. O'qituvchining bosqichlarida o'quvchilar bilan munosabati. O'qituvchi muomila madaniyatining tarbiyaviy ahamiyati.

Ma'lumki, kuzatilgan darsning tahlili umumiy pedagogika va xususiy metodika talablari nuqtai nazaridan bir xil bo'lsa ham lekin har bir fanning o'z talablari bor. Geografiya darslarida o'quvchilarning amaliy mashg'ulot o'tkazishlari, olingan bilimlarga doir muammolar, masalalar yechilishiga ahamiyat ko'proq beriladi. Biroq hamma fan bo'yicha dars kuzatish va uni tahlil qilishdan asosiy maqsad o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini takomillashtirishga o'qituvchilarning ma'suliyatini oshirishga qaratilmog'i lozim.

Maktabda dars kuzatish va uni tahlil qilish masalasi to'g'ri tashkil qilish o'quv-tarbiya ishlarini yanada takomillashuvida katta ahamiyat kasb etadi. Dars kuzatuvchi – darsga kirishdan oldin o'z oldiga aniq maqsadni qo'yishi va shu maqsad asosida fan o'qituvchisining darsini maxsus tayyorgarlik asosida kuzatish va uni to'g'ri tahlil qilib borishi lozim.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, maktab doirasida o'qituvchi va tarbiyachilar o'rtasida dars kuzatish uni tahlil qilish ishini aniq ob'ekt, aniq mavzu va aniq maqsad yo'nalishida tuzilgan reja-grafik asosida tashkil qilish bu borada muhiti pedagogik ahamiyat kasb etadi (Mazkur reja-grafik namuna Shaklida ilova qilindi. Siz unga ijodiy yondoshib o'z faoliyatingizda undan foydalanasiz degan umiddamiz). Darslarni kuzatish va tahlil qilish tartibi, qanday bo'lishidan qat'iy

nazar uning asosiy maqsadi o'quvchilarning bilim malakalarini yanada yaxshilashga, darsning sifat va samaradorligini oshirishga qaratilmog'i lozim.

II.3. O'zaro dars kuzatish va uni tahlil qilish rejasi.

Dars kuzatish kuni	Sinf	Fan	Dars kuzatish vaqti	Dars olib boruvchi fan o'qituvchisining ismi va familiyasi	Dars mavzusi	Dars kuzatuvchisining ismi va familiyasi	Dars kuzatuvchisining maqsadi
--------------------	------	-----	---------------------	--	--------------	--	-------------------------------

IV. Kichik guruhlarda "Dars tahlili"ning optimal xaritasini ishlab chiqish va taqdimot qilish – 40 daqiqa.

Metod: ijodiy ish; forma: guruhda; usul: og'zaki, yozma, taqdimot; jihoz: vatman qog'ozi, marker.

Suhbat jarayonida tinglovchilarda hosil bo'lgan bilimlar asosida ko'nikma va malakaning Shakllanishi uchun ular 3 ta guruhga bo'linib, ularga "Ijodiy topshiriq" beriladi.

Topshiriq: Biologiya fanining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda dars tahlilining optimal xaritasini ishlab chiqish va taqdimot qilish.

Guruh taqdimoti tahlil qilinib, yagona dars tahlili namunasi ishlab chiqiladi.

V. Darsni yakunlash – 5 daqiqa.

Xulosa: Ta'limning asosiy Shakli – dars jarayonini kuzatish, tahlil qilish o'qituvchidan chuqur ilmiylikni, yuqori muloqot madaniyatiga ega bo'lishni talab etadi.

Uyga vazifa. Keyingi o'tiladigan dars mavzusiga tayyorlanish. Mavzuga doir adabiyotlar bilan tanishish.

Izoh. O'qituvchi uchun taxminiy "Dars tahlili xarita"lari ilova etiladi.

_____ Viloyat _____ tumani _____
 _____-maktab _____ fan
 o'qituvchisi _____ ning dars tahlili
 Fan _____ sinf _____ Mavzu _____

№	Texnik bilim 10%	Maks ball	Baho
1	Tilni mukammal bilishi.		
2	Ta'limiy maqsad uchun jarayonda muloqot tilini tanlay olish.		
3	Tilshunoslik bo'yicha nazariy bilimini ko'rsata olishi.		
	O'qitish metodikasi 50 %		
1	Darsni oldingi o'tilgan mavzu bilan bog'lay olishi.		
2	O'tgan mavzuga yakun yasay olishi.		
3	O'quvchilarni yangi mavzuga tayyorlash muhitini tashkil eta olishi.		
4	Yangi mavzuni tushunarli bayon eta olishi.		
5	Turli o'qitish strategiyalari orqali o'quvchilar bilim salohiyatiga e'tibor bera olishi		
6	Turli texnik vosita va tarqatma materialdan foydalanishi.		
7	Mashqlarni bajartirishda turli metodlarni qo'llash orqali savol-javobdan foydalanishi.		
8	O'quvchilar nutq faoliyati turlarini egallashni mantiqan tashkil eta olishi.		
9	O'quvchilarni individual, juftlikda, guruhda ishlashini va boshqa faoliyatini tashkil eta olishi		
10	O'quvchilar faoliyatidagi xatolarni o'z vaqtida aniq mukammal to'g'rilay olishi		
11	O'quvchilar egallagan bilimni nazorat qila olishi va o'z vaqtida to'g'ri baholay olishi		
12	Dars maqsadiga erisha olishi.		
	O'qituvchi va o'quvchi hamkorligi 30 %		
1	Darsning borishi tartibi (ketma-ketligi) vaqtga e'tibor berilishi.		
2	Savol javoblarda aniq vaqt reglamentiga rioya qilishi.		
3	Yangi nutq faoliyati haqida ma'lumot berishda mulohaza qila olishi.		

4	O'quvchini ruhlantira olishi va rag'batlantira olishi.		
5	O'quvchilar tartibi va ijobiy holatlariga baho bera olishi.		
6	O'quvchilar bergan savollarga mukammal tushunarli javob bera olishi.		
7	Ma'lum holatlarga oid turli savollarni tanlab bera olishi.		
8	O'quvchilarning ismlaridan foydalanishi va har bir o'quvchi holatiga e'tibor bilan qarashi.		
	Umumiy rahbarlik va muomila madaniyati. 10 %		
1	Darsga o'z vaqtida kirish		
2	Dars jarayonida o'ziga ishonch hosil qilish.		
3	O'quvchilarni o'ziga jalb qila olish.		
4	Sinfdagi vaziyatni, muhitni nazorat qila olish.		
5	Muloqot madaniyatiga oid muomila lleksikasini tanlay olish.		
6	Kiyinish madaniyati.		
	Jami		

Qo'llangan interfaol metodlarning mashg'ulot mavzusi turi va Shakliga mosligi, mahorat bilan namoish qila olishi _____

2. O'quv mashg'ulotlarning DTSga mos kelishi _____

Ijobiy yutuqlari: _____

Tavsiya, taklif va mulohazalar: _____

Xulosa: _____

Darsni tahlil qildi _____

Dars o'tuvchining imzosi _____ yil

GLOSSARIY

Didaktika – (yunoncha didaktikos “o‘rgatuvchi”, didasko esa – “o‘rganuvchi”) - pedagogik fan bo‘lib, u ta‘limning nazariy jihatlarini (ta‘lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatlari, ta‘lim maqsadi, shakl, metod va vositalari, natijasi va hokazolar)ni o‘rganadi.

Bilim – tizimlashtirilgan ilmiy ma‘lumotlar majmui bo‘lib, ular o‘quvchining ongida borliq tushunchalari, sxemalar, ma‘lum obrazlar ko‘rinishida aks etadi. **Bilim olish** – idrok etish, o‘rganish, mashq qilish va egallangan tajriba asosida xulq va faoliyatda yangi shakllarning yuzaga kelishi, mavjud bilimlarining o‘zgarib, takomillashib, boyib borish jarayoni.

Ta‘lim – qo‘yilgan maqsadga erishishga yo‘naltirilgan o‘qituvchi va o‘quvchining maqsadli o‘zaro harakatlari. Ularning birgalikdagi faoliyati ikki tomonlama aloqani tashkil etish jarayonidir.

Ko‘nikma – shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.

Malaka – muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

Ta‘lim maqsadi (o‘qish, bilim olish maqsadi) – ta‘limning nimaga intilayotgani, uning urinishlari yo‘naltirilgan.

Mazmun (ta‘lim, bilim olishning mazmuni) – ta‘lim jarayonida o‘quvchi egallab olishi zarur bo‘lgan ilmiy bilimlar, amaliy ko‘nikma va malakalar, faoliyat hamda fikrlash usullarining tizimi.

Ta‘lim natijasi (ta‘lim mahsulini) – ta‘lim nimaga erishishini qayd etuvchi tushuncha, o‘quv jarayonining oqibati, belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi.

Pedagogik paradigma – (yunoncha paradeigma - misol, namuna) – pedagogika fani rivojining har bir bosqichida ta‘limiy va tarbiyaviy muammolarni hal etish namunasi (modeli, standarti) sifatida ilmiy pedagogik hamjamiyat tomonidan e‘tirof etilgan nazariy hamda metodologik ko‘rsatmalar to‘plami bo‘lib, u ta‘limning konseptual modeli sifatida qo‘llaniladi.

Verbal – soʻz bilan, ogʻzaki.

Gnostik – oʻrganuvchi.

Metodologiya-nazariy va amaliy faoliyatni tashkil etish va qurish tamoyillari va usullari tizimi.

Taʼlim usullari - talabalarning ehtiyoj-motivatsion sohasi va ongini rivojlantirish uchun tarbiyaviy ishlarning usullari va usullari toʻplami.

Oʻqitish usullari-bu oʻquvchilar va oʻquvchilarning oʻquv va kognitiv faoliyatini tashkil etish usuli va oʻqituvchi va talabalarning birgalikdagi faoliyati usullari va usullarini aks ettiradi.

Pedagogik tadqiqot usullari-muntazam aloqalarni, munosabatlarni oʻrnatish va ilmiy nazariyalarni qurish uchun pedagogik hodisalarni oʻrganish, ilmiy maʼlumot olish usullari.

Oʻqitish-ijtimoiy amaliyot jarayonida ishlab chiqilgan ijtimoiy-tarixiy tajribani shaxsga oʻtkazish usullarini tashkil etish tizimi; oʻqituvchi va talabalarning birgalikdagi maqsadli faoliyati, uning davomida shaxsning rivojlanishi, uning taʼlimi va tarbiyasi amalga oshiriladi.

Taʼlim muassasasi-bu maʼlum bir taʼlim dasturi boʻyicha oʻquv jarayonini olib boradigan normativ muassasa.

Fan obyekt-bu fan oʻrganadigan voqelik sohasi (sohasi).

Taʼlimning tashkiliy shakllari-belgilangan pedagogik maqsad va vazifalarni, shuningdek talabalar sonini, oʻqish joyini, oʻquv mashgʻulotlarining davomiyligini hisobga olgan holda turli mezonlarga koʻra tasniflanadi.

Pedagogik faoliyat-pedagogik maqsadga erishishga qaratilgan faoliyat.

Pedagogik tizim-shaxsni shakllantirishga uyushgan, maqsadli pedagogik taʼsirni yaratish uchun zarur boʻlgan oʻzaro bogʻliq vositalar, usullar va jarayonlar toʻplami.

Pedagogik maqsad-uning rivojlanishini belgilaydigan oʻquvchi (talaba) shaxsidagi oʻzgarishlarni oʻz ichiga olgan maqsad.

Pedagogik jarayon-pedagogik tizim sharoitida ta'lim va tarbiya maqsadlarini amalga oshiradigan kattalar va bolalarning yo'naltirilgan va uyushgan o'zaro ta'siri.

Pedagogik o'zaro ta'sir-o'qituvchilar va o'quvchilarning qasddan aloqasi (uzoq muddatli yoki qisqa muddatli), natijada ularning xatti-harakatlari va faoliyatidagi o'zaro o'zgarishlar.

Dasturlashtirilgan ta'lim-bu oldindan tuzilgan o'quv dasturiga muvofiq amalga oshiriladigan va dasturlashtirilgan darsliklar va o'quv mashinalari yordamida amalga oshiriladigan o'quv turi.

Ta'limni rivojlantirish-bu o'quvchilarning potentsial imkoniyatlaridan foydalangan holda jismoniy, kognitiv va axloqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim nazariyasi va amaliyotidagi yo'nalish.

Shaxsning rivojlanishi-tashqi va ichki, boshqariladigan va boshqarib bo'lmaydigan omillarning ta'siri tufayli inson tanasi, psixikasi, intellektual va ma'naviy sohasidagi miqdoriy va sifatiiy o'zgarishlar jarayoni.

O'quv faoliyati-bu nazariy fikrlash predmetida rivojlanish jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga qaratilgan inson faoliyatining asosiy turlaridan biridir.

O'quv va kognitiv jarayon-bu ijtimoiy ideallar, ijtimoiy tartib, ijtimoiy qadriyatlar va boshqalarga asoslangan ta'lim qonunlari, mazmuni, usullari va texnologiyalarini o'rganishda tizimli yondashuvni talab qiladigan murakkab mexanizm.

Ta'lim shakllari-ma'lum bir tartibda va rejimda amalga oshiriladigan o'qituvchi va talabalarning kelishilgan faoliyatining tashqi ifodasi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar:

1. 5111700 – Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish. Fan dasturlari. T., 2020-yil.
2. Mavlonova R.A., To'rayeva O.T., Xoliqberdiyev K.M. –“Pedagogika” T., «O'qituvchi» - 2008-y.
3. M.X.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. “Pedagogika” – T.: Faylasuflar Milliy jamiyati, 2010-y.
4. Yo'ldoshev J.G'., S.Hasanov, M.Shirinov. “Magistrantlarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash. O'quv metodik qo'llanma. Fan va texnologiyalar. T: 2011-y.
5. Jurayev R.H., Tolipov U.Q., Sharipov Sh.S., “Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naldirishning ilmiy-pedagogik asoslari” T.: Fan nashriyoti, 2004- yil.
6. M.Nuriddinova. “Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi” T.: O'qituvchi 2005-yil.
7. Mavlonova R.A., Sanaqulov X.R, Xodieva D.P. Mehnat va uni o'qitish metodikasi. TDPU, O'quv qo'llanma. 2007-yil.
8. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. –163 b.
9. M.Qo'ldasheva. O'quv topshiriqlarini yaratishga innovatsion yondashuv. Namangan.2020 yil
10. M.Qo'ldasheva.Tabiiy fanlardan innovatsion o'quv topshiriqlar. Namangan.2022 yil

Qo'shimcha adabiyotlar:

11. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga qo'ramiz. “O'zbekiston” 2017
12. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017—2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakat strategiyasi. 7 yanvar 2017 yil.
13. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent. 2022 yil
14. Ta'lim to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (Barkamol avlod –

- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. 1997 yil T., "Sharq" nashriyoti)
15. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2008.
 16. Ochilov S. va Xoshimov K. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent, «O'qituvchi», 2010-y
 17. Geronimus T., Uchebnik malenkiy master texnologiya. 1-4 klass Moskva «AST-PRESS SHKOLA» 2009 god., (www.astpress-shkola.ru)
 18. Аквилева Г.Н., Клитрина З.А. «Методика преподавания естествознания». Москва, Владос. 2001. (www.pedlib.ru)
 19. Ochilov Z. Sinfдан tashqari tarbiyaviy tadbirlarda kasb tanlashga shakllantirish. Toshkent. "O'qituvchi". 1996-yil.
 20. M.Haydarov. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining mehnat tarbiyasida xalq an'analaridan foydalanish. Toshkent "Yozuvchi" 1995 yil.

Axborot manbaalari

1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
2. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. www.mineconomy.uz (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi)
4. www.mehnat.uz (O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi)
5. www.mf.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi)
6. www.stat.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi)
7. www.ima.uz (O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi)
8. www.academy.uz (Fanlar akademiyasi)
9. www.Ziyonet.uz
10. www.edu.Uz

MUNDARIJA

	Kirish	3
1	Fanning maqsadi va vazifalari. O'qituvchiga qo'yiladigan talablar. O'qituvchining faoliyati va pedagogik mahorati.....	4
2	Boshlang'ich sinflarda aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasining didaktik printsiplari.....	12
3	Boshlang'ich ta'limda aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda o'quv dasturi, darslik, multimedia ilovali metodik qo'llanmalar. Ulardan foydalanish texnologiyasi.....	23
4	Interfaol ta'lim vositasida o'quvchilarda mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirish va kompetentli yondashuv.....	41
5	Muammoli ta'lim yondashuvlari. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari.....	53
6	O'quvchilar bilim, ko'nikma hamda malakalarini baholash va nazorat turlari.....	69
7	Ta'lim-tarbiyaga an'anaviy va pedagogik texnologik yondashuv.....	101
AMALIY MASHG'ULOTLAR		
1	Boshlang'ich sinflarda aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda o'quv dasturi, darslik, multimedia ilovali metodik qo'llanmalar tahlili.....	109
2	Boshlang'ich sinflarda aniq va tabiiy fanlarni o'qitishdagi muammolar. O'quvchilarda matematik savodxonlik va tabiiy kuzatuvchilik malakalarini shakllantirish usullari.....	111
3	Matematika va tabiiy fanlar darslarini tashkil etishga ilmiy-metodik yondashuv.....	127
4	Boshlang'ich sinflarda matematik va tabiiy fan tushunchalarini shakllantirishning interaktiv metodlari.....	139
5	Boshlang'ich sinfda aniq va tabiiy fanlar darsi va o'qitishning turli formalari.....	155
6	Boshlang'ich sinflarda og'zaki hisoblash va tabiiy jarayonlarni o'rganishni rivojlantirish texnologiyalari.....	157
7	Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish texnologiyasi.....	162
8	Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi va pedagogic faoliyatda yuzaga keladigan kasbiy muammolarni bartaraf etish strategiyalari.....	197
9	Boshlang'ich sinflarda darslarida didaktik material va o'yinlardan foydalanish.....	211
10	Boshlang'ich sinflarda aniq va tabiiy fanlardan ochiq darslarni o'tkazish va darsni tahlil qilish.....	223
	GLOSSARIY	235
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	238

